

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK**

Hamroyev Dilmurod

**XVIII asr fransuz inqilobining din va madaniyat masalalaridagi siyosati
(hujjatlar asosida)**

5A220203 – Umumiy tarix mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
berildi.

Ilmiy rahbar:

dots. To'raqulov B.T. _____

«Umumiy tarix» kafedrasi mudiri

dots.Hoshimova M.M. _____

M.O'.

,

SAMARQAND – 2012

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-6
--------------------	------------

I Bob. FRANSUZ INQILOBCHILARI SIYOSATIDA MADANIYAT

MASALALARI.

1.1. Xalq ta'limining isloh qilinishi.	7-27
1.2. Inqilob davrida akademiya faoliyati.....	28-34
1.3. Bayramlar, nashriyotlar va yodgorliklarga munosabat.....	35-47

II Bob. DINIY MASALALAR SIYOSATCHILAR MUHOKAMASIDA.

2.1. Milliy Konventda cherkov masalasi.....	48-58
2.2. Cherkov va uning mulkiga doir hujjatlar.....	59-68
2.3. Inqilob davrida din xodimlarining huquqiy maqomi.....	69-86

XULOSA.....	87-90
--------------------	--------------

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	91-93
----------------------------------	--------------

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda O'zbekiston tarixini o'rganish bilan birga jahon tarixini o'qitishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki dunyo xalqlarining, turli millatlarning urf-odatlarini, an'analari, boshdan kechirgan og'ir sinovlari, bosib o'tgan shonli yo'lini o'rganish har bir jamiyat uchun ko'p jihatdan kelajakni qurish, tarixda yuz bergan xatoliklarni qayta takrorlamaslik, tarix yutuqlaridan unumli foydalanish kabi tajribalarni hosil qiladi. Bundan tashqari minglab yillardan buyon xalqimiz ko'pgina dunyo davlatlari bilan doimo uzviy aloqada bo'lgan. Xalqlar bilan muloqotga kirishgan. Ko'p hollarda ularning taqdiri bilan o'xshash, ayrimlari bilan bir bo'lgan. Shu jihatdan biz vatan tarixini jahon tarixining bir bo'lagi sifatida olib qaraymiz va uni ayro o'rgana olmaymiz. Turli davrlarda tarix maslasida, xususan, uni o'rganish, yoritish va tadbqiq qilish siyosiy tuzumlar bilan bog'liq holda kechdi. Bugungi kun esa unga haqqoniy va xolis baho berishni talab qilayapti.

Tarixni o'rganishni obyektiv tashkil qilish barcha davrlarda ham murakkab masala bo'lgan. Shuning uchun biror bir xalq yoki voqeya tarixini o'rganishda uning xarakteri, sabablarini, muhitni hisobga olish kerak. "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolarini, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yani, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi."¹ Bularning barchasini inobatga olish zarur.

"Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz."² Bu esa hech

¹ И.А.Каримов. "Юксак маънавият – энгилмас куч" Т., Маънавият, 2008. 97-б.

² И.А.Каримов. "Юксак маънавият – энгилмас куч" Т., Маънавият, 2008. 3-б.

qachon o'z-o'zidan, oson yo'l bilan amalga oshirilgan emas. Jahon tarixi tajribalaridan ma'lumki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga, eski jamiyatdan yangisiga o'tish og'ir silkinishlar bilan amalga oshadi. Gohida katta yo'qotishlar evaziga sodir bo'ladi. XVIII asr oxirida yuz bergan Buyuk fransuz inqilobi bunga yaqqol misol bo'ladi. U barcha davrdagilardan ham ko'ra tubdan, to'liq va har sohada amalga oshganligi bilan xarakterlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Barcha davrlarda din va madaniyat masalalari jamiyatning eng muhim sohalaridan bo'lib kelgan. XVIII asr fransuz inqilobi davrida ham, oradan 200 yildan ziyodroq vaqt o'tganligiga qaramay bugungi kunda ham u dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki din doimo jamiyatda kuchli ta'sirga ega. Islohotlar amalga oshirilayotgan, yangilanishga yuz tutgan ko'pchilik jahon davlatlarida ayni vaqtda din masalasini inobatga olishi lozimligini ushbu inqilob ko'rsatib berdi. Buning uchun esa inqilob davrida dinga munosabatdan tegishli xulosa chiqarib olishi mumkin. Isloh qilinayotgan jamiyatlarda diniy tashkilotlarning ham o'rni borligini siyosatchilar doimo inobatga oladilar. O'rganilayotgan davrda yangi "Oliy mavjudot" dinining joriy qilinishi o'zini oqlamaganligi, bugungi kunda turli diniy sektalar vujudga kelishiga qiyos qilib bu yaxshi oqibatga olib kelmasligini tushunish lozim.

Madaniyat jamiyatning ko'zgusi hisoblanadi. U barcha davrlarda kuchli ta'sir vositasi bo'lib kelgan. Ammo uning ustidan siyosat yuritishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Inqilob yangi jamiyatni barpo qilishda undan keng foydalandi. Bugun ham islohotlar amalga oshirilishida undan ko'mak olishi, hamda inqilob tajribalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuni o'rganishdan maqsad XVIII asr fransuz inqilobida din va madaniyat masalalarining kam o'rganilgan tomonlarini, hamda unga bildirilgan `siyosiy munosabatni yoritib berishdan iboratdir. Uni bugungi kunda jamiyatning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan taqqoslab, ularning o'xshash tomonlarini, voris iylk an'alarini ko'zdan kechirib chiqish va imkon darajasida yoritib berishni ko'zlaydi.

Uning vazifasi ko`zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kun diniy va madaniy sohalaridagi o`zgarishlarning amalga oshishi, bu boradagi siyosatning to`g`ri amalga oshirilishini kuzatishdir.

Mavzuning tarkibiy qismi. Ushbu disertatsiya tarkibiy jihatdan kirish, ikki bob va xulosa qismlaridan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganilish darajasi va bugungi kunda dunyo tarixidagi ahamiyati xususida to`xtaladi.

“Fransuz inqilobchilari siyosatida madaniyat masalalari”-deya nomlangan birinchi bob uch qismga ajratilib tahlil qilingan. Birinchi qismda Xalq ta’limining isloh qilinishi, uning cherkovdan ajratilib dunyoviy bilim maskaniga aylantirilishi hamda, unga doir masalalarning Milliy Konventda ko`rib chiqilishi yoritilgan. Ikkinchi qism inqilob davrida akademiya faoliyati bilan bevosita bog`liq. Unda akademiyaning inqilob amalga oshishida tutgan roli, ichki o`zaro kurashlar, bu davrdagi ilmiy yutuqlari va olimlar faoliyati, Konvent tomonidan nizomlarning o`zgartrilishi tahlil qilingan. Uchinchi qismda bayramlar, nashriyotlar va yodgorliklar borasidagi siyosat o`z aksini topgan.

Ikkinchi bob “Diniy masalalar siyosatchilar muhokamasida”-deb nomlanib u ham uch qismda yoritilgan. Birinchi qism cherkovning hokimiyatda ta’sirini kamaytirish, u bilan bog`liq turli munosabatlarning Konvent va departamentlardagi muhokamasi xususida. Ikkinchi qism bevosita Konvent tomonidan qabul qilingan cherkov va uning mulkiga doir hujjatlarning tahliliga bag`ishlangan. Uchinchi qism isloh qilingan cherkovda ruhoniylarning vazifasi, huquq va burchlari haqida.

Bundan keyin yuqorida keltirilgan bob va qismlarni umumiyashtirib xulosa yasalgan. Eng so`nggida foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati ham keltirilgan.

Mavzuning tarixshunosligi. XVIII asr fransuz inqilobi nihoyatda katta voqeya bo`lganligi uchun uning xususiyatlari, sabablari, natijalari haqida juda ko`plab tarixchilar shug`ullandilar. Inqilobning umumiy xarakteri yoki undagi yirik namoyondalar faoliyati haqida alohida maxsus kitoblar chop etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so`ng dunyo ikki qarama – qarshi tomonga bo`linib ketganidan so`ng inqilob xarakteriga bir-biriga zid nashrlar e’lon qilina

boshlandi. G`arbiy Yevropa va Amerika tarixchilari unga o`z qarashlari bilan baho bersa, sotsialistik davlatlar uning sinfiyligini ochib berishga urindilar.

Inqilobning din va madaniyat masalalaridagi tarixini o`rganishda A.Olarning 1918-yilda rus tiliga tarjima qilingan “Политическая история французской революции”³ asari umumiy voqealarni qamrab olsada unda din va madaniyat masalalariga ham alohida boblar ajratilgan va mavzuni hujjatlarga tayanib yoritib bergan. Bu sohada rus tarixchilarining faoliyati ham ancha samarali. N.Konchevskiy fransuz tilidagi bir nechta inqilobga doir kitoblarni qo`shimcha mulohazalar bilan rus tiliga tarjima qildi. M.Ya.Domnich bu davrning diniy masalalari bilan shug`ullandi va 1960-yilda bu haqda kitobini nashr qildirdi.⁴ Unda diniy masalalar to`liq yoritib berildi. XX asrning 80-90 yillarida ayniqsa unumli faoliyat olib borildi. Din va madaniyatga doir bir necha hujjatlar bevosita rus tiliga tarjima qilinib to`plam shaklida nashr qilindi, xususan A.V.Ado muharrirligida turli hujjatlar 1990-yili ikki tomlik kitob qilib nashr etildi. Shunday hujjatlar Ye.Ye. Yurovskaya rahbarligida va shu yili V.G.Sirotkin muharrirligida yana hujjatlar to`plami chop etildi.<sup>5</sup> Bundan tashqari biz Ya.M.Zaxer, V.M.Dalin, N.M.Lukin, A.F.Yefimov, V.A.Orlovlarning faoliyatini ham ta`kidlab o`tishimiz lozim.

Ilmiy – amaliy ahamiyati. Inqilobdan meros qolgan ta`lim tizimi, teatr, muzey, nashriyot, bayramlar, diniy udumlarning bugungi kunga qadar davom etayotgan an`analari, ularning jamiyat hayotidagi o`rni, taraqqiyot va farovonlik uchun qilayotgan xizmatlarining ahamiyati kattadir. Uni rivojlantirish, saqlab qolish va ommaga yetkazish uning ilmiy – amaliy ahamiyati hisoblanadi.

³ Олар А., Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918. с. 3.

⁴ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. с.3-4.

⁵ Е.Е.Юровская Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., Высшая школа 1990. С. 4.

I BOB. INQILOB DAVRIDA MADANIYAT BOBIDAGI SIYOSAT

I.1. Xalq ta'limining isloh qilinishi

Buyuk fransuz inqilobi davrida feodal munosabatlar batamom yo'q qilinishi uchun jiddiy kurash ketdi. Siyosiy jarayonlar inqilobning eng qaltis sohasi bo'lib, jamiyatning boshqa bo'g'inlari unga qarab o'zgarib borar edi. Bu o'rinda xalq maorifi ham siyosat ta'sirida edi. Cherkov bilan munosabatlar taranglashgan, Konvent yig'ilishlarida diniy masalalar doimo qaltis mavzu bo'lib qolar edi. Inqilob namoyondalari xalq ta'limini yo'lga qo'yishda avvalo maktabni cherkovdan ajratish lozimligini ta'kidlardi. Cherkovdan ajratilgan ta'limni so'ng qanday islox qilishni yo'lga qo'yish haqida turli taklif va mulohazalar kengashlarda o'rta tashlandi. 1792-yili 20-aprelda umumiy xalq maorifini tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan tizimni xalq maorifi nomidan Milliy Majlisga J.A.Kondorse taqdim etdi va o'qigan maruzasida: "Insoniyatga o'z ehtiyojini ta'minlash yo'lini ochib berish, o'z huquqlarini bilish va ishlatish, o'z burchlarini tushunish va bajarish; har kimga o'z kasbida kamol topishga imkoniyat yaratib berish, jamoa oldidagi burchini bajarishga qurbi yetishi, tabiatdan olgan iqtidorini boricha namoyish etish va shu bilan qonun ma'lum qilgan, fuqarolar orasida asl tenglikni tiklash va siyosiy tenglik bunyod qilish milliy maorifning eng asosiy maqsadi va shu nuqtai-nazardan davlat uchun haqqoniylik burchidir"⁶ -degan edi. Kondorse ta'lim sohasida umuman yangi tizimni joriy qilishni rejalashtirib Milliy Majlisga taklif etgan edi. Bu tizimdan keyinchalik ko'p davlatlar ta'limni islox qilishda foydalangan.

Majlis davomida ta'lim quyidagicha tizimlashtirildi: barcha ta'lim besh bosqichdan iborat deb belgilandi.

1-bosqich. Boshlang'ich maktabda o'quvchilarga mustaqil tarzda harakat qilib va o'z huquqlaridan to'liq foydalangan holda kerakli bilim beriladi. Bu bilim oddiy jamoa ishlarini bajarishda yetarli hisoblanadi. Masalan oddiy xodim yoki munisipalitet a'zosi bo'lishi mumkin. Bu maktab 400 dan ortiq turar joy va mas'ul

⁶ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаца, Лаканая, Лепелете, Лавуазе и др./Подред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.54.

o`qituvchi bilan ta`minlanadi. Ushbu maktabda o`qish, yozish, grammatika, arifmetika qoidalarini, binolarning sodda va aniq o`lchovi haqida, davlat ishlab chiqarish xo`jaliklari tarifi to`g`risidagi bilimlar, qishloq xo`jalik va kasbga yo`naltirish uslublari, boshlang`ich axloqni rivojlantirish va yurish-turish qoidalarini, o`quvchiga tushunarli darajada ijtimoiy tuzum prinsiplarini o`qitish ko`zda tutildi. Shunday qilib maktabda olingan jamiyat haqidagi bilimlar faqatgina nazariy asosga ega bo`lib qolmay, balki amalda ham qo`llanilishini ta`minlash joizligi alohida takidlandi.

Kondorse: “Maorifni shunday yo`naltirish kerakki, ilmdagi kamolot fuqarolar baxtiga yordam bersin va odamlar uchun qulayliklarni ko`paytirsin, ko`proq odamlar burchlarini mohirona bajarsin, o`sib borayotgan maorif progressi bizning talablarimizni qondirish uchun bitmas-tuganmas manbalarni ochib bersin, kasaldan davolasin, kishining o`z baxti va umumiy gullab- yashnash uchun vosita bo`lsin”⁷ - degan edi.

Jamiyatda har qanday sohaga ehtiyoj seziladi. Buni aniqlashtirib, kattalarni ham yoshlarni ham o`qitish, kasbga tayyorlash kerak. So`ng bunga qayerda ehtiyoj borligiga qarab o`quv muassasalarini tashkil etish kerak. Ta`limning boshqa jabhalari tashkil qilishning ikkinchi qismi hisoblandi.

Milliy bayramlarda, bozorlarda, qishloq va shahar fuqarolariga ozodlik uchun kurashib yurtning shuxratini ko`targan shaxslarni maqtasa ularda burchga nisbatan hurmat uyg`onadi. Boshqa tomondan maktablarning ichki nizomida bolalarni saxiy va haqiqatgo`y qilib tarbiyalash kerak, ularda milliy iftixorni uyg`otish kerak. Kattalar uchun ham, kichiklar uchun ham kitoblar tuzish kerak, chunki o`qish qiziqish uyg`otadi va kitob xarid qilishga undaydi. O`quvchilar uchun esa eng oson, eng sodda va maqbul yo`l tanlanadi va ular albatta bundan foydalanadi⁸.

⁷ Документы истории великой французской революции В 2-х т., т.1, под.ред. А.В.Адо. М., 1990. С.442.

⁸ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, под.ред.. А.В.Адо. М., 1990. С. 442-443.

II.bosqich maktablar aholi orasidagi oilasi uzoq muddat farzandining ro'zg'or tebrata oladigan va farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadigan, unga vaqt ajrata oladigan, hatto ayrim harajatlarni ko'tara oladigan oilalarga atalgan. Har bir okrug, aholisi 4000 kishiga yetadigan va undan ortiq shaharlar II bosqich maktablariga ega bo'ladi. Bu yerda ham birinchi bosqichdagidek fanlar o'qitilishida uyg'unlikni uchratish mumkin. Maktabda tabaqalanish bo'lmaydi, barcha departamentlardagi maktablarda o'qitish va darsliklar bir xil, ammo bolalar soniga qarab bu yerda birdan uchtagacha o'qituvchi belgilanadi. Maktab o'quv dasturida matematika, tabiiy tarix, ximiya hamda kasb uchun zarur axloq prinsiplari, jamiyatshunoslik fanlari kengroq beriladi. Kommersiya bilimlari ham xuddi shu yerda o'rgatiladi.

III bosqich maktablari butun insoniyat bilimlarining hamma elementlarini o'zida jo qiladi. Umumiy tarbiyaning bir qismi deb qaralgan ta'lim bu yerda mutlaqo to'liq beriladi. Bu bosqich jiddiy bilim talab qiladigan jamiyat majburiyatlarini bajarish uchundir. Bu yerda jamiyatning hamma bilimlari bilan shug'ullanish mumkin, hamma soha qamrab olinadi. Bilim yurtidan ikkinchi bosqich o'qituvchilari yetishtirib chiqariladi. Shu bilan birga ikkinchi bosqichni bitirgan birinchi bosqich o'qituvchilari ham malaka oshirish uchun kelishi mumkin. Bu institutlar soni davlat miqyosida qancha bo'lishini belgilash uchun tuzilgan komissiyaning xulosasiga ko'ra 110 ta deya e'tirof etildi. Ular har bir departamentda ochilishi shart qilib belgilab qo'yildi. Barcha fanlar to'liq o'rgatilib har qanday kasbni o'rgatuvchi yo'nalishlar ochiladi. Hattoki bir necha yondosh kasb turlarini o'rgatish mumkin, jumladan, Qishloq xo'jaligi, mexanik kasblar, harbiy san'at, shu bilan birga tibbiy bilimlar doirasida malakali shifokorlar, akkusherlar lozim bo'lgan bilimlar bilan qurollantiriladi. Veterinariya bo'limi ham ochiladi.⁹

Ko'p sabablarga ko'ra matematika va fizika fanlariga ko'proq joy ajratildi. Chunki bu fanlar uzoq muddat fikr yuritishni istamaydigan kishilar intellektual

⁹Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, под.ред. А.В.Адо. М., 1990.С.444-445

qobiliyatini o`stirish kuchiga ega, fikrlash, tahlil qilishni o`rgatadi. Tabiiy fanlarni bilmasdan adabiyot, grammatika, tarix, siyosat, falsafani o`rganib ham kuchli mantiqiy fikr yuritish mumkin. Lekin ulug` insonlar ham tabiat ilmidan oqilona foydalangan, ammo bu bilimni shakllantirish murakkab jarayon. Aniq fanlarda esa fikrlar soddaroq, qat'iyatli va aniq. Yuqoridagi bilimlar mustaxkamroq o`rganilsa hech bo`lmaganda xurofot, aql doirasi tor, hamda falsafani tushunmaydiganlar uchun dori vazifasini bajarardi. Ular har kasbga ta'sir o`tkaza oladi. Fizikani o`rganishga kelganda fan shunday keng tarqaladiki, shu jarayonda o`rganishda davom etsa fanda katta inqilob yasashi mumkin. Bu davr tezroq kelishi uchun bu fanlarni jamiyatning har bir sinfida tarqatish, uning o`tilish uslublarini va mazmunini tushunarli darajada yengillashtirish zarur. Keyingi davrda haqiqatdan ham ilm-fan inqilobi davrida fizika fanining ahamiyati katta bo`ldi. Ko`p texnik kashfiyotlarga bu fan xizmat qildi.

Bu davrga kelib ilmiy hayotda fan tili sifatida lotin tilining ahamiyati pasayib bormoqda edi. Muxokamalarda bunga ham urg`u berilib, yangilanayotgan jamiyatda o`quvchilar qaysi tilda bo`lsa ham kitobni tog`ri o`qib, to`g`ri talqin qila olsa shu yetarli emasmi?- degan savollar o`rtaga tashlandi. Lotin tili kerakli til hisoblanadi, garchi o`z ahamiyatini yo`qotayotgan bo`lsa ham. Bu vaqtga kelib falsafa va siyosatdagi barcha adabiyotlar fransuz tiliga o`girilib bo`lingan, lotin tilida berilgan hamma manbalar to`ldirilgan, yangi manbalar qo`shilgan edi. Haqiqiy manbalar bilan shug`ullanishni esa tarixchilarga qoldirsa ham bo`ladi, tuzum, zamon, siyosat o`zgarganidan keyin eski manbalarining qadri ham yo`qoladi, qadimgi kitoblarni chuqur va uzoq vaqt o`rganish foydadan ko`ra ko`proq ziyon keltiradi. Bizlar aqlni peshlash yo`lini axtaramiz, bu kitoblar esa to`g`ri yo`ldan chalg`itadi degan qarashlar ustun kela boshlagandi.¹⁰

Fransuz millati XVIII asr talabiga javob bera oladigan ilm-fan tarkib topishini ro`yobga chiqara oldi. U zamon kishisining aql-idrokini charxlab taraqqiyotga yetaklay oldi. Milliy falsafada eski udumlardan voz kechib uning

¹⁰ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаста, Лаканаль, Лепелете, Лавуазе и др./Под ред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.64.

asosida hamma fanlar tasniflanib, taqsimlanib chiqildi. Shu falsafaga binoan maktablarda axloqiy va siyosiy bilimlarni umumiy tarbiyaning eng ahamiyatli qismi deb hisoblashdi. Institutlarning eng muhim vazifalaridan biri yangi jamiyatni o'rganib o'rnatilgan qonun-qoidalarini hayotga tadbqiq etib borilishini boshqa siyosiy organlar bilan birga kuzatish va nazorat qilib borish kerak edi. Chunki yangi jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, diniy tuzum bobida yaxlit o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bir davr uchun bu juda muhim edi. Qolaversa maktablarning o'z ichki nizomi ham unga asoslanmog'i va o'z-o'zini nazorat qilishni tashkil etish kerak edi.

Jamiyatda qonun ustuvorligi taminlansa va shu qonun tarqqiyparvar qonun bo'lsa, barcha masalalar unga binoan yechimini topadi. Qonun ijodkori esa ilm-fan ahli bo'lsa. Platon "Yaxshi qonun shunday qonunlarki uni fuqarolar jonidan ortiq ko'radi"¹¹-degan edi. Qonunni hayotga tadbqiq qilishda xalq irodasidan foydalanish kerak. Aslo yakka shaxs kuchiga tayanmaslik lozim. Fuqarolar qonunni sevish uchun aqlni erkin saqlashi, haqiqiy adolatli prinsiplarni bilishi kerak. Qonunlarning ibtidosi ham rivoji ham xalq farovonligiga xizmat qilsin. U insonning ajralmas haq-huquqlaridir. Fuqarolar uning himoya kafolatiga ishonsin. Shu vajhdan ayrimlar uni donoligi uchun, ayrimlar adolatiligi uchun sevadi.

Maktab va institutlarda ayni shu axloqiy-huquqiy prinsiplar bayon etiladi. Ular insonning hislariga va aqliga asoslangan holda barchaga teng darajada xosdir. Ta'lim tizimini islox qilish mobaynida ayrim to'siqlarga ham duch kelindi. Xususan bir guruh ota-onalar bolalarini milliy maktablarga berishdan bosh tortishdi. Diniy tarbiya berishni davom ettirib cherkovga murojaat qildilar. To'g'ri konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek har bir odamning din tanlash huquqi o'zida. Ammo diniy muassasalarga berish, tenglikni buzadigan turli dogmalarning ustunlik qilishiga va fikr ozodligiga zid keladigan elementlar qo'shilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun ham axloq prinsiplari har qanday dindan ajratib olindi

¹¹ Туленов.Ж. Фалсафа. Т., 1994. 27-б.

va xalq ta'limida hech qanday diniy bilimlar o'qitilishiga yo'l qo'yilmadi.¹² Ota-onalar o'z farzandalari bilan ibodatxonalarga borib sharoitni o'rganib Milliy maktablar bilan taqqoslab ko'rsin. O'shanda ota-onalar qo'rqmasdan din haqida qanday fikrda bo'lmasin, bolalarini Milliy maktablarga yuborishadi. Shunda davlat hokimiyati ham ta'lim berish va yo'naltirish vajhidan vijdon erkinligiga tajovvuz qilmaydi. Nihoyat har bir avlodda jismoniy, axloqiy va intellektual qobiliyatni madaniylashtirish va shu bilan insoniyat naslini mukammallashtirish har qanday jamoa institutining asosiy maqsadidir”.

IV bosqich litsey deb nomlandi. Bu yerda hamma fanlar boricha to'liq o'tiladi. Olimlar ham xuddi shu yerdan yetishib chiqadi. Hamma o'qituvchilar ham shu yerda ta'lim olishi joiz. Ayni shu muassasa yordamida bir avlod keyingisiga olgan hamma bilimlarini va orttirgan tajribasini qoldirishi mumkin. Bunday litseylardan Fransiyada to'qqizta qurilishi rejalashtirildi. Bundan maqsad bilim va ma'rifatni yoyishda uning bir necha o'chog'idan foydalanib xalqqa yetkazishdir. Yuksak bilimli kishilar departamentlarda ham bo'lishi lozim. Agar Parijda bilim olishni xohlab kelsa shu yerda qolib ketishi mumkin. Eng muhimi ta'limning to'rt bosqichi ham bepul qilib belgilanadi. Aslida konstitutsiya faqat I bosqichni bepul qilishni ko'zlagan edi. Lekin II bosqich ham umumiy hisoblangani uchun pullik ta'lim qilinmadi. Boshqa bosqichlar ham kuzatilsa kambag'al va eng ko'p sonli fuqarolarning bolalariga o'z talantini rivojlantirish uchun imkon yaratishi mumkin. Bu nafaqat davlatni balki unga xizmat qiladigan fuqarolar bilan, fanni uning rivojiga yordam beradigan xodimlar bilan ta'minlaydi, tengsizlikni bartaraf etadi, tabaqalarni birlashtiradi. Eski ta'lim tizimi va boylik boshqa jamiyatlarda tenglik va farog'at olib kelmaydi. Yangi ta'limni joriy qilib esa o'sha tengsizlikning manbalarini bartaraf etish mumkin. Ammo Kondorsening bu taklifi amalga oshmadi. 1795-yil 25-oktabrda Konvent yig'ilishida “Har bir o'quvchidan boshlang'ich maktab o'qituvchilari to'lov haqqi olishadi. Unung miqdorini department ma'muriyati aniqlaydi. Munisipal ma'muriyati bu to'lovdan har bir

¹² М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С.114-115.

boshlang'ich maktabning to'rtinchi qismini kambag'allik sabab ozod qilishi mumkin"¹³ - deb belgilab qo'yildi.

Ta'limni har qanday avtoritar ta'sirdan ozod qilib, hukmdorlar buyrug'idan himoya qilish, ularga qaram bo'lib ortidan yurmasligini ta'minlash zarur. Uni oldinga yetaklash, to'g'irlash va rivojlantirish zarur. Ta'lim olishning birinchi sharti haqiqatni o'qitish deb hisoblandi. Bu qabul qilingan shart shunchalik demokratik ko'rinishga ega bo'lishi kerak ediki, davlat hokimiyati tayinlagan har qanday muassasalar siyosiy bosimidan ozod bo'lishi lozim. Hech qaysi davlat hokimiyati uning siyosatiga yoki manfaatiga vaqtinchalik zid kelgan holda ham yangi haqiqatlar va nazariyalarni tarqatish va o'qitishga qarshilik qilish uchun na kuch va na imkoniyat topmasligi kerak. Siyosat ta'limga aralashib jarohat yetkazib qo'yishi mumkin va oqibat feodal tuzumidagidek uning ozodligi bo'g'ilib jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmay qo'yishi mumkin. Lekin ta'lim ozodligi mutlaqlashtirilmaydi. Maktablarda o'qitish jarayonini xalq vakillari majlisida ko'rib chiqib uning ishlarini taftish qilish huquqiga ega. Chunki bu hokimiyat shaxsiy manfaatlardan yiroq va u hech qachon maorif dushmani bo'lmaydi. Xalq ta'limini tashkil qilish va nizomlashtirishda inqilob yuzaga chiqargan insonparvarlik g'oyalariga amal qilishi lozim.

O'quv muassasalarini o'quv qurollari bilan ta'minlash yana bir muhim vazifa hisoblanadi. Uni hal qilishda quyidagicha yo'l tutildi. I va II bosqich maktablari uchun kitoblar xalq ta'limiga yordam tariqasida xohlagan odamlar uchun e'lon qilingan ko'rik natijalariga bog'liq bo'ladi, ammo institutlar uchun yaratilayotgan kitoblar mualliflari belgilanadi. Litseylar esa professorlarga fan kurslarini o'qitishdan boshqa majburiyatlar yuklamadi. Institutlar uchun mo'ljallangan kitoblarni taniqli olimlar zimmasiga olishi ularning xohishiga bog'liq. Agar ularning ishi qabul qilinishiga ko'zi yetmasa buni rad qilishi mumkin. Shu sababdan ularga konkurs e'lon qilinmaydi. Agar inson biror sohada haqiqatdan ham taniqli bo'lsa va shu sohada kitob yozadigan bo'lsa, bu bilan ta'limga o'z hissasini qo'shmoqchi bo'lsa uning bu mehnati ulug'lanadi. Bu

¹³ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. 448-б.

masalada Yevropada taniqli bo'lgan olimlar nazarda tutiladi, ularning kitobini tanlash xatolikka olib kelmaydi. Agar konkurs e'lon qilinadigan bo'lsa, bir necha kitoblarni tahlil qilish kerak bo'ladi. Oqibatda esa bir necha falsafiy fikrlar, bir necha nozik, o'tkir g'oyalar uslub va aniqlik ustidan g'olib kelishi mumkin.¹⁴

V bosqich ta'limning oxirgi bosqichi hisoblanib fan va san'atning milliy jamoasi deb nomlandi. Bu barcha o'quv muassasalarining ustidan nazorat qilish va rahbarlik qilish, fan va san'atni mukammallashtirish, foydali kashfiyotlarni qo'llash va tarqatish uchun tuzilgan. Bu jamoa ayri holda kengashayotgan to'rt sinfga bo'lindi.

Birinchi sinf hamma matematika fanlarini biriktiradi.

Ikkinchi sinf etika va siyosiy fanlarni kiritadi.

Uchinchi sinf matematik va fizik fanlar tajribalarini boshqaradi.

To'rtinchi sinf grammatika, adabiyot, nafis san'at va eruditsiyani o'z ichiga oladi.¹⁵

Ta'lim muassasalarini o'qituvchilar bilan taminlashda olimlar butun Yevropaga taniqli bo'lib, ularning mashhurligi yozgan ishlarida, yozgan ishlari esa hujjat sifatida hisoblanishi mumkin. Chunki tan olish uchun ularning eng yaxshilari saralanib tanlab olinadi va bu qaytadan saylov o'tkazish uchun ehtiyoj qoldirmaydi. Olimlar ro'yxati juda katta bo'lsa departamentlarda yashovchi olimlar saylov o'tkazishi mumkin. Litsey professorlari, institut o'qituvchilarini saylashi mumkin, lekin munisipalitet nomzodlar ro'yxatini qisqartirishi ham mumkin. Ikkinchi va birinchi bosqich o'qituvchilarining ro'yxati ushbu okrug institut o'qituvchilari tomonidan tuziladi. Ammo saylash huquqi maktab joylashgan munisipalitetga, oxirgi bosqichda esa okrugdagi oila boshliqlari majlisida hal bo'ladi.¹⁶

Direktoriylarga milliy jamoa tarafidan saylangan, litseylarda va institutlarda o'quv muassasalari ustidan doimiy nazorat qilish buyurilgan. Shunday qilib ta'lim mustaqilligi taminlangan hamda inspeksiya uchun alohida muassasa talab

¹⁴Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.452.

¹⁵О'sha joyda.

¹⁶Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.453.

qilinmaydi. Fanlar bo'linishiga bog'liq milliy jamoa ham bo'lingan. O'qituvchi shaxsiga yana quyidagi talablar qo'yilgan: o'qituvchilik qilmoqchi bo'lgan fuqarolar munisipalitet yoki kommuna seksiyasiga maktab ochmoqchiligi haqidagi arizani topshiradi. Unda o'qitmoqchi bo'lgan fan va san'at turini ko'rsatish kerak. Madaniyatga hissa qo'shmoqchiligi, yaxshi xulqiligi haqida kommuna bosh kengashidan kamida a'zolarning yarmi tasdiqlagan yoki yashash joyidagi seksiya va ikki kishidan kam bo'lmagan nazoratchi seksiya qo'mitasidan, imkoni bo'lmaganda esa qo'shni qo'mitadan imzolangan guvohnoma olish kerak. 1793-yilgi xalq ta'limini tashkil etish to'g'risidagi Konvent dekreti 1-bo'lim 4-moddasida "O'zlarini ta'lim berishga yoki san'at va fanning biror sohasini o'qitishga bag'ishlagan fuqarolar o'qituvchi deb atalishadi"¹⁷-deya belgilab qo'yildi. Ularning faoliyati doimo munisipalitet va seksiyalar, ota-onalar, otaliqqa olganlar, nozir va fuqarolar nazorati ostida bo'ladi.

Tarbiya ta'lim bilan birga qo'shib olib borilgani uchun o'qituvchilar kuchli nazorat ostida qoldilar. Ular Lepelete ta'kidlagandek tarbiyachi bo'lgani uchun o'z axloqi ham namunali bo'lishi kerak. Mabodo o'qituvchi maktabida inqilobdan tashqari, qonunlarga va respublikada o'rnatilgan axloqqa zid keladigan bilimlar berganini nazoratchilar aniqlab tegishli joyga yetkazsa o'qituvchi jinoyatining o'g'ir yengiliga qarab jazolanadi. Jamiyat axloqini haqorat qilgan o'qituvchilar ham qonun asosida sud qilinadi.

Bitta maktab joylashgan qishloqlarda yigit-qizlar birga o'qiydi. Agar qishloq yoki shaharda ikkita maktab bo'lib, o'qituvchining bittasi ayol kishi bo'lsa o'g'il-qizlar alohida o'qitiladi. Kengashlarda ayollar masalasi ko'pincha ochiq qolib ketardi. Ular uchun faqat yuqoridagi nizomgina bor edi. Lekin oilada bolalar tarbiyasi to'liq onalar zimmasida, qolaversa 25 oiladan bittasini beva ayol boshqaradi. Bundan tashqari bozor, oila xo'jaligi ham uning zimmasida bo'lib bularning barchasini inobatga olish lozim edi.¹⁸

¹⁷ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, под ред. А.В.Адо. М., 1990. С. 465.

¹⁸ А.Олар, Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918.С. 193.

Ta'limning tashqi hukmronlikdan ozod bo'lishi hech kimni hayiqtirmadi, chunki qonunbuzarlik qonun tuzuvchi hokimiyat tomonidan bartaraf qilindi. Va nihoyat bu masalada oxirgi katta ishonch borki unga ilm bobida hech kim qarshi tura olmaydi, bu ham bo'lsa Yevropadagi ma'rifatli kishilarning umumiy fikri. Bu fikrni buzish yoki to'g'ri yo'ldan ozdirishning iloji yo'q.

Ijtimoiy tuzum prinsiplarini o'qitish jarayonida o'quvchilarda dastlabki vaqtdan boshlab fransuz konstitutsiyasi, Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi haqida bilim olishi kerak. Bu bilim o'rganilmay keyinchalik bu haqda eshitganda, yoki duch kelganda bu huquqiy tushunchalar osmondan tushganday bo'lib turmasin. Uni ezozlab ishonch orttirishi kerak.¹⁹

Umumiy ta'limni tashkil qilish rejasida dastlabki vazifa sifatida, bir tomondan shunchalik darajada hammaga teng, ikkinchi tomondan nihoyatda to'liq imkoniyat berish ta'kidlandi. Ta'lim bilan yonma-yon tarbiya darajasini ham o'stirib borish darkor. U hammaga teng, to'liq va umumiy bo'ladi. Ushbu prinsiplar ta'limni islox qilishning eng muhim shartlari hisoblanadi. O'quvchilar o'rtasida iqtidorlilari uchun ilm o'rganishni davom ettirish imkonini yaratish lozim. Kondorse boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin ta'lim olishni to'xtatish mumkin, ammo yoshlikda olgan bilim kifoya qilmaydi. Hamma yoshda ham bilim olish lozimligini takidlab: "Davlatimizning biror fuqarosi qonun menga tenglik berdi, lekin uni tushunish uchun imkon bermadi deyishini xohlamaymiz. Bolaligimda menga zarur bilim berishdi, lekin yashash uchun ishlashga majbur bo'lganimdan dastlab olgan bilimlarim unutilib, savodsizligim sababi tabiatdan emas, jamiyat nohaqligidan demasin".²⁰ Shunday qilib ta'lim barchaniki bo'lishi zarur.

Ta'limni islox qilish bobida siyosatchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu maktablarning iqtisodiy taminoti masalasi edi. O'quvchi o'qish jarayonida qiynalib qolmasligi uchun uning oilasi farzandi uchun imkon darajada harajat qilishi mumkin. O'qish uchun yagona to'lov miqdori belgilanmaydi.

¹⁹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 453.

²⁰ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаста, Лаканаль, Лепелете, Лавуазе и др./Подред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.69.

Baribir to'lov miqdori turli bo'lishiga qaramay maktabda teng huquqlilik prinsipiga amal qilinaveradi. Maktablarni ochish mobaynida aholi soni inobatga olinib o'quvchilar sonining ko'p yoki kamligi belgilanish kerak. Darslar vaqti aholining taklifi bilan ularning vaqtiga qarab tashkil qilinadi. Shunda maktabda o'qishga ko'pchilikning imkoni bo'ladi va o'quvchilar soni muttasil oshib boradi. Ta'limning har bosqichida insoniyat bilimining hamma tizimini qamrab olib, hamma yoshdagi odamlarning avval egallagan bilimini yengil bo'lsada saqlab qolgan holda, yangi jamiyatning yangi bilimlarini o'rganib borishadi.

Ushbu isloxotlarni ro'yobga chiqarishga amaliy qadam ham qo'yildi. Holatni o'rganib tahlil qilib chiqish uchun xalq maorifi komissiyasi tuzildi. Komissiya faoliyati natijalariga ko'ra 1792-yil 18-avgustda Milliy Konvent yig'ilish o'tkazib tegishli qonunlarni qabul qildi. Ushbu qonunning 4-moddasida cherkovni dindan ajratish masalasi to'liq hal qilindi. Unga ko'ra "Xalq ta'limining hech qaysi sohasi na cherkovga va na sobiq qora va oq ruhoniylarga qarashli kongregatsiyaga berilmaydi"²¹ deb belgilab qo'yildi. Ushbu qonun kelajakda fransuz ilm fanining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Konventda to'plangan deputatlar garchi ta'limni dindan ozod etsalarda uning yo'lga qo'yilishi va taraqqiy ettirishi uchun birmuncha fursat va mablag' ketishini yaxshi anglardilar. Muxokama da'vomida bu masalaga ham oydinlik kiritilib, u qonunning oltinchi moddasi sifatida belgilandi. " hamma kongregatsiya a'zolari hozirgi vaqtda xalq ta'limida xizmat qilayotgan bo'lsa, xalq ta'limining takomillashtirilishi yakuniga yetgunga qadar yakka tartibda da'vom ettiradi. Kim o'z vazifasini bajarmay qo'ygan bo'lsa va munisipalitet sababini asosli deb hisoblamasa department direktoriyasi tomonidan ko'rsatma olgan holda maoshining yarmi qaytariladi."²² Shu yo'sinda ta'lim isloxotini yakunlab olish ko'zda tutildi. Keyinchalik barcha din xodimlari o'rni dunyoviy pedagog xodimlar egallab borishi lozim edi. Shu vaqtdan boshlab barcha xalq ta'limi muassasalarida distrikt ko'rsatmasiga binoan

²¹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.454.

²² Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 452.

department direktoriyasi va munisipalitet arizasi bilan hamma muassasalarda almashuv o`tkazilishi boshlandi.

Siyosatchilar ta'lim tizimini islox qilishda yirik fan arboblardan foydalanib ularning tashabbusi bilan uni yangi bosqichga olib kirdilar. Lekin ta'limning o'zi respublika jamiyati uchun mukammal shaxsni yetkazib bera olmas edi. Ma'rifatparvarlar ta'lim qatoriga tarbiya masalalarini ham kiritish ustida bosh qotirdilar. Konvent bir guruh olimlarga shunday reja ishlab chiqishni yukladi. 1793-yili 13-iyulda Milliy Konventga M.Lepelete tomonidan ishlab chiqilgan Milliy tarbiya rejasini taqdim etildi. Maruzada Lepelete: "Milliy Konvent avlodlarga uchta narsa meros qoldirayapti. Konstitutsiya, fuqaro huquqi kodeksi va jamoa tarbiyasi. Men bularning har biri salmog'ini va muhimligini bir darajaga qo'yaman. Bular yangi jamiyat shaxsini yetishtirishda muhimdir. Insonni shakllantirish, bilimini tarqatish bobida ikki masala bor Birinchisi tarbiya, ikkinchisi ta'lim. Ta'lim hammaga barobar bo'lsa ham kasb va iqtidor har xil bo'lgani uchun u tabiiyki kam sonli jamoaning mulkiga aylanadi. Tarbiya esa umumiy va hamma uchun foydali bo'lishi kerak. Muammoning bir tomoni hal qilingan, ammo ikkinchi tomon hanuzgacha hal qilinmagan. Bir so'z bilan aytganda qo'mitaning rejasi qoniqarli lekin tarbiya ishlab chiqilgan emas."²³ Haqiqatdan ham yangi barpo etilayotgan jamiyat uchun ta'lim isloxotida tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq maorifi qo'mitasi ta'limni to'liq islox qildi, tarbiya masalasi chetda qolib ketaverdi. Qo'mita butun ta'limning uch bosqichida inson bilimini saqlash, tarqatish, mukammallashtirish uchun oqilona taqdim etilgandi, dars o'tish uslublarigacha ham ishlab chiqilgan. Ammo bularda ham fuqarolar oldida haqiqiy burch hisoblangan tarbiya yetishmasdi. Birinchi bosqich maktablari esa umuman tarbiyadan yiroq. Odatda olti yosh atrofida bo'lgan bola hayotining bu muhim boshlang'ich davrida qonun nazoratidan tashqarida qolgan holda eski sarqitlarga aralashib qolar edi. Bularni inobatga olgan Lepelete Konventga murojaat qilib "Kelinglar qonun qabul qilamiz. Bu qonun

²³ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаста, Лаканаль, Лепелете, Лавуазе и др./Под ред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.37.

hozir qabul qilinmasa o`n yildan so`ng albatta qabul qilinadi. U to`liq kambag`al uchun yaratilgan va boy aqli kishi bo`ladigan bo`lsa, u ham qo`llab-quvvatlaydi. Bu qonun haqiqiy milliy, respublikaviy, hammaga teng tarbiyani qabul qilishdan iborat. Bir so`z bilan aytganda jamoa tarbiyasini tuzish qonuni. Men Konventga murojaat qilib 5-12 yoshdagi o`g`il bolalar, 5-11 yoshdagi qiz bolalar hech qanday farqlanmay, birgalikda, respublika mablag`idan muqaddas tenglik ostida bir xil kiyim, ovqat, qarov bilan tarbiyalanish haqida dekret chiqarishingizni so`rayman.²⁴ Agar bu amalga oshsa yetti yil davomida jamoa tarbiyasi mevasidan bahramand bo`lar edi. Ularning iqtisodiy taminoti esa boylardan olingan soliqlar evaziga qoplanishi taklif qilindi.

Bu masalaga 1793-yili 15-25-dekabr kunlari xalq ta`limini tashkil etish uchun to`plangan Konventda aniqlik kiritilib chiqarilgan dekretning ikkinchi bo`lim, 1-moddasida mustaxkamlab qo`yildi. Unga ko`ra “Milliy Konvent ta`lim-tarbiya ishlari bo`yicha qo`mitani tasdiqlaydi, fuqarolar tarbiyasiga kerakli boshlang`ich o`quv kitoblari va qo`llanmalarni taqdim etishni buyuradi. Birinchi o`quv kitoblaridan biri “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” ekanligini ma`lum qiladi.”²⁵

Bolalarning yetti yillik ta`limi ularning jismoniy va axloqiy shakllanishida eng muhim davrdir. Bu paytda o`quvchining har kunlik o`zgarishini kuzatish lozim. Bolani besh yoshga qadar onasidan ajratmaslik lozim, tabiat uni onaga bog`lab qo`ygan. Bu davr onalikka qarashli. Lekin bunga ham qonun ta`sir o`tkazishi kerak. Avvalgi tuzumdagidek bola mehnatga layoqatsiz yoshiida bee`tibor qoldirilmasligi lozim. Shuning uchun Lepelete onalarni rag`batlantirib yordam berish, bolalarini boqishda ularga ko`maklashish, tarbiyada oddiy uslub va yomon ta`sirlardan saqlash, e`tibor va qarov kerakligini ko`rsatish, yangicha hayotga qiziqishini orttirish kerak. Ularga tug`ish va bolani saqlab qolish og`ir yuk

²⁴ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, под ред. А.В.Адо. М., 1990. С. 452.

²⁵ O`sha asar. 465-b.

emas, umid va boylik manbai ekanligini butun millat ayollariga tushunturish haqida ta'kidladi.²⁶

Maktab bola besh yoshga to'lganida uni tabiatdan oladi va 12 yoshida jamiyatga qaytaradi. Shaharlarda har bir seksiyada qishloqda har bir kantonda aholi soniga qarab o'quv muassasasi uchun bitta bino yetarli. Har bir muassasada 400 dan 600 nafargacha bola o'qishi mumkin. Buning qulay tomonlari mavjud bir tomondan mablag' kam talab qiladi, ikkinchi tomondan uydan uzoq emas, ota-onalar farzandlarini tez-tez ko'rib tura olardi.

Jamoa tarbiyasi prinsiplarga qarab majburiy bo'ladi. Chunki bu jamiyat ravnaqi uchun kerak edi. Bu jarayon sekinlik bilan konstitutsiyaga muvofiq holda amalga oshib bordi. Dastlabki muddatda ixtiyoriy, ammo keyinchalik farzandini maktabga berishdan bosh tortgan ota-onalar fuqarolikdan ozod qilinadi, to xatosini to'g'irlamaguncha. Shundan keyin ham ikki barobar soliq to'lashi sharti bilan degan fikrlar o'rta tashlandi.

O'quv muassasalari avvalgi binolarga: cherkov, ko'chkinchilar uyi, feodallarning eski qasrlariga joylashtirildi. 50 bolaga bitta o'qituvchi tayinlandi. O'qituvchiga yordamchi sifatida 10-11 yashar o'quvchilar qarashadi. Ular kichik guruhlariga uy vazifasini tayyorlatadi, o'tilgan mavzuni takrorlatadi. Jismoniy va ma'naviy ko'nikmalar birga olib boriladi. Bolalarda kerakli xarakter shakllantirish, kuchlarini ko'paytirish, bo'yini o'stirish, chaqqonlik, uddaburonlikni o'rgatish, charchoqqa, ob-havoga moslashtirish, ochlikkka, ehtiyoji bor narsalardan vaqtinchalik sabr qilish uchun jismoniy tarbiya darslari ham qo'yildi. O'quvchilar shunday odatlarni o'zida mujassam qilishi darkor. Uydan qatnaydigan bolalardan ko'ra maktab binosida yashaydigan bolalar buni tezroq o'zlashtiradi.²⁷

Doimiy, faol nazorat va boshqaruv, har bir soatning aniq bo'linganligi, uyquga, ovqatlanishga, ishga, mashqqa va dam olishga ajratilgani uchun maqsadga erishish tezlashardi. Maktablarda ichki nizomlar joriy qilingandi. Hamma mayda elementar tomonlarga o'quvchilar faoliyati yozib qo'yilgan edi.

²⁶Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 454.

²⁷Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 458.

O'quvchilar yoshiga qarab og'ir bo'lmagan ishlarni bajarib natijani ta'minlaydi. Bolalar bir xilda kundalik ehtiyojlari bilan: qattiq to'shak, oddiy va kuchli ovqat, qulay lekin dag'al kiyim bilan bir xil taminlanadi. Bu mablag'ni tejardi. Uning yana bir ustun tomoni bor ediki, bu ham bo'lsa bolalarni jismoniy pishiq qilib tayyorlash. Hamma bolalar bunga maxkum. Ularning maktabdagi hayotlari o'quv muassasasidan tashqari jamiyat hayotida ham unga duch kelsa qiynalmaydi. Kambag'al bola uyiga qaytganida uyida ham maktabga o'xshash holatga duch keladi, kamtarin yashagani uchun tez moslashadi. Boy oilaning farzandi esa chiniqadi, erkaliklardan o'zini asraydi.²⁸

Kuch va sog'liqdan tashqari yana bir jihat - mehnat tarbiyasini tashkil qilish ham maktab bo'ynida edi. Bolalarga yagona kasbni emas mehnatsevarlilikni o'rgatish, quvvat-chidamlilik, boshlagan ishini oxiriga yetkazishni o'rgatish muhimroq edi. Lepelete buni tarbiyaning eng ilg'or shakli deb takidlagandi: "Shunday odamlarni tarbiyalang oqibatida respublika dehqonchilik va sanoatda ishlab chiqarishni ikki barobarga oshiradi, shunday odamlarni tarbiyalang va siz hamma jinoyatlarning yo'q bo'lganligini ko'rasiz, shunday odamlarni tarbiyalang – qashshoqlikdan ko'zlaringiz namlanmaydi. O'z o'quvchilaringizga shu sevgini, shu ehtiyojni, shu mehnatga odatni singdiring va ularning yashashi taminlanadi. Bular faqat o'z-o'zlaringizga bog'liq. Qolgan hamma kunduzgi dars jadvallaridagi darslarni qo'shimcha deb hisoblayman, eng asosiysi esa qo'l mehnati."²⁹ O'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, har xil kasb o'rgatuvchi ustalar bundan mamnun bo'lishadi, chunki har kim bundan manfaatdor ayrimlar to'lovni kamaytirish umidida, boshqalar hurmat va mukofot olish uchun, bolalar kasb o'rganganiga va xursandchilik manbai bo'lgani uchun, ustalar ishi samarali va tez bitganiga mamnun.

Bir necha soat davomida ishlagandan keyin bolalar dam oladi va darslarning qolganlarini o'tadi, bundan avvalgi mehnat esa o'quvchida bilim talablilikni kuchaytiradi. Ko'pincha bolalar dala mashqlarini o'tash uchun qishoq xo'jaligiga

²⁸ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, под ред. А.В.Адо. М., 1990. С. 458.

²⁹ O'sha asar. 460-b.

jalb qilinardi. Bu eng keng tarqalgan mashq turi edi. Ba'zan sanoat ishlab chiqarishiga ham jalb etish mumkin.

Bolalar imkoniyatiga qarab o'quv muassasasida har xil mehnat turlari bilan ta'minlanardi. Bu ishlar hamma o'quv muassasasida bir xil amal qilardi. Tartib asosida, aniq belgilangan ish rejalar asosida yashash kishi ma'naviy hayotini yuksaltiradi, intizomni yaxshilaydi, va vaqtini foydali faoliyat bilan to'ldiradi, yomonlik va tartibsizlikka vaqt qoldirmaydi. Har kun, har daqiqa aniq qoidaga bo'ysingan bolalar qonun va qonuniyatga bo'ysinib tarbiyalanardi. Milliy tarbiya shu reja bo'yicha milliy odatga aylanib borardi. Bunda o'zini tutish madaniyati va munosabatga kirishish, xarakter, til qo'pol bo'lmasdan muloyim, ozod shaxs qomati va fazilatlari ortiqcha iltifot kabi fransuz millatiga xos mentalitet shakllanib bordi.³⁰

Ma'rifatparvarlar bir ovozdan boshlang'ich maktablarda din haqida tushuncha bermaslikni lozim topdilar. Bola 12 yoshga to'lganda jamiyatga qaytgandagina, u o'ylab ko'rib, u yoki bu dinni qabul qilsin. Tahlil qilishni o'rganmaguncha u tanlashi kerak emas. Ijtimoiy tarbiya buni ham chegaralaydi. Bolalikda olingan bilim va ko'nikmalar, o'g'itlar kishining butun keyingi hayotiga ta'sir etadi. Bu rejalar mukammallikni talab etadi. Eng bilimdon, oqil insonlar, kuchli faylasuflar uning kamchiligini to'ldiradi. Vaqt va tajriba rejani boyitib bordi. Uning munosibligi, qulayligi ustunligi sekinlik bilan ta'minlanib bordi. Bu jadval, undagi foydali qarash bolani ma'lum yo'nalishga soladi u hayotda o'z o'rmini topib boradi.

Boshlang'ich maktabda mukammal bilim va tarbiya olish qiyin agar u ijtimoiy o'quv muassasasida tarbiya topmasa. Uning eng katta kamchiligi shunda ediki, bolalar bu yerda bir necha soat o'rgatiladi. Ta'lim-tarbiyaning eng mukammalini qo'llagan taqdirda ham, qisman natijaga erishish mumkin yoki oz sonli individlarga qo'l kelishi mumkin xolos. Aksincha ijtimoiy o'quv muassasalarida bola to'laligicha tarbiyachining qo'lida bo'ladi. O'rnatilgan barcha tartib qoidalarga amal qiladi. Tashqaridan hech qanday ta'sir bo'lmaydi. Inqilob

³⁰Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 459.

namoyondalarining fikricha bu usulda o`qitish foydali hisoblanadi. Buni qo`llagan Lepelete ham “talab qiling-bajariladi, yaxshi uslub o`ylab toping bir daqiqadan keyin unga ergashadi, foydali g`oya bering u to`liq ro`yobga chiqadi”³¹-degandi. Milliy maktab muassasalariga to`lov olishning quyidagi yo`llari taklif etildi:

1.bolalar mehnatidan daromad.

2.boshqa ayrim daromad manbalari

3. qolgan qism kanton aholisining imkoniyatiga qarab, to`laydigan yig`imi. Maktabning manfaatini ko`zlaydigan kishilar boshqargani uchun qattiq tejamkorlik taminlanadi. Harajatlar faqat eng zarur narsalarga ishlatiladi. Qolaversa maktabda hech qanday xizmatkor bo`lmaydi. Bolalar navbatchilik qiladi. Ular o`zlariga o`zi xizmat qilib boshqalarga foyda keltirishni o`rganadi. Harajatlar uchta narsaga ishlatiladi: o`qituvchilar maoshi, kiyim-kechak, va ovqat. Kiyim xususida-u oddiy matodan bo`lib kam harajat. Kantonning hamma fuqarolari o`zlaridan biron nima beradi, birov mato, kimdir kasbining mahsuloti, onalar o`z mehnati bilan hissa qo`shadi. Hamma ish xohlagancha taqsimlanadi. Shunda mushkullar osonlashadi. Ovqat xususida u juda oddiy, bolalar sog`lig`iga nima foydali ekanligiga qarab ro`yxat tuziladi. Aniq soniga, iqlim va fasllarga qarab eng arzon mahsulot sotib oladi. Vino va go`sht umuman ishlatilmaydi. Bolalarning bunga ehtiyoji yo`q.³²

O`qituvchilar maoshi masalasida Lepelete taklif qilgandek erkak o`qituvchi 400, ayol o`qituvchi 300 livr emas, 1793-yilgi dekretning 3-bo`lim, 4-moddasiga binoan Respublika kommunalarida maktab ochgan o`qituvchilar, kommuna aholisining soniga qaramasdan har bir o`quvchi uchun yiliga erkak o`qituvchi 20 livr, ayol o`qituvchi 15 livr oladi. Mabodo o`qituvchi yashash joyidan ma`lum masofa naridagi kommuna maktabiga odam kamligidan borgisi kelmasa direktoriya kengashi o`zi o`qituvchi tayinlashi mumkin. Bunday holda respublika o`qituvchiga yillik 500 livr maosh tayinlaydi. Kondorsening ta`limni to`liq bepul qilish tashabbusi amalga oshmay qoldi.³³

³¹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 458.

³² Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 461.

³³ Кондорсе Ж.А. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума/Подред.В.Н.Сперанского. М., 1936. С.47.

Ma'rifatparvarlar qarovsiz qolgan, boquvchisi yo`q, nogiron qariyalarni alohida binolarga emas, ijtimoiy tarbiya uchun mo`ljallangan binolarga ko`chirilsa ikki foydali ish birlashtiriladi deb bu masalani ko`rib chiqayotgan guruhga tavsiya qildi. Uning maqul tomoni shundaki, ta'minot harajatlari kamayadi. Yangi harajatlarga yo`l qo`yilmay, qariyalar oddiy ovqat, kundalik yordam olib turadi. Katta sinf o`quvchilari ularga ko`maklashib turadi. Qolaversa hayotni ko`rgan qariyalar yoshlarga saboq berishda o`qituvchilarga yordamlashadi. Shunday qilib bolalar kattalarni hurmat qilish, bechoralarga rahm-shafqat qilish kabi insonparvarlik g`oyalari bilan katta bo`ladi. Ular uchun bu odatga aylanadi.

Tuzilgan rejaga binoan xalq ta'limi o`z o`rnini topadi. U jamiyat binosining qisman bezagi bo`ladi, ijtimoiy tarbiya bu binoning poydevori hisoblanadi. Lepelete fikriga ko`ra ta'lim jamoaviy tarbiyaning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Shunday qilib 5-12 yosh bolalar hayotida jismoniy va ma'naviy negizida bo`lgan o`zgarishlar bir umrga hamroh bo`lib qoladi. Bir xil ovqat, kiyim, muomala o`quvchilar uchun mavhum nazariya emas, doimiy harakatdagi tajribaga aylanadi. Oqibatda yangilangan, kuchli, mehnatsevar, oqil,intizomli avlod shakllanadi. Qashshoqlikka barham beriladi, boylar ortiqcha mulkidan ajraladi va inqirozsiz, azoblanmasdan, siyosiy organizmning bu ikki kasali yo`qoladi.

Vaqt o`tib brogan sayin ta'limni islox qilish mobaynida doimo o`zgarishlar bo`lib turdi. Bunga hokimiyatdagi o`zgarishlar ham o`z ta'sirini ko`rsatmay qolmadi. Nihoyat 1795-yil 25-oktabr kuni ta'limni yagona qolipga solish uchun Milliy Konvent to`plandi. Shu paytga qadar bildirilgan takliflar, qabul qilingan qonunlar, chiqarilgan dekretlar, nizomlar muxokama qilinib kengash yagona to`xtamga keldi va xalq ta'limini tashkil etish haqida konventning yakuniy dekreti e`lon qilindi. Unga ko`ra Respublikaning har bir kantonida bitta yoki bir necha boshlang`ich maktab ochiladi. Maktabga ajratiladigan maydon departament ma'muriyati tomonidan belgilanadi. Har bir departamentda ta'lim masalalari bo`yicha hukumat hakamlari tasdiqlanadi. Ularning soni oltitadan kam bo`lmaydi. Har bir hakamlikda departament tayinlaydigan uchta a'zo bo`ladi. Boshlang`ich

maktab o`qituvchilari shunday hakamliklarning biror a'zosiga imtixon topshiradi. Keyin munisipal boshqarmasi taqdimi bilan departament ma'muriyati ularni lavozimga qo'yadi. Ular lavozimidan ozod bo'lishda ham xuddi shu ma'muriyat qarori bilan suxbatdan keyin bo'shatiladi. Respublika har bir o`qituvchini yashash va o`qitish joyi bilan ta'minlaydi. Har bitta o`qituvchiga berilgan bino atrofidan bog` ham beriladi. Ma'muriyat bino va bog` o`rniga pul to'lashi ham mumkin. Markaziy va maxsus o`qituvchilar kabi birinchi bosqich o`qituvchilari ham maosh, ham to'lov olishi mumkin. ³⁴

Konvent boshlang'ich maktablarning ichki nizomini departamentlar ixtiyoriga qoldirdi. Ammo department ham asosiy qoidalardan kelib chiqib nizom joriy qiladi. Qabul qilingan nizom tasdiqlash uchun ijrochi qo'mitaga beriladi. Maktablar nazorati munisipal ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazildi. Uni bevosita nazorat qiladi va yuqori ma'muriyat organlari qabul qilgan qonun va qarorlarning bajarilishini tekshirib turadi. Boshlang'ich maktab o`quvchilari o`qish, yozish hisob va Respublika axloq-qoidalarini o`rganadi. ³⁵

Konventning ta'limni tashkil qilish haqidagi dekretining ikkinchi bo'limi markaziy maktablar to'g'risida edi. Unga binoan har bir departamentda bittadan markaziy maktab ochiladi. O`qitish uch seksiyaga bo'linadi: 1. Rasm, tabiiy tarix, qadimgi tillar, ona tili o`qituvchilarini jamlaydi. Mabodo department ehtiyojiga lozim bo'lsa, qonunchilik korpusidan ruxsat olinsa o`qituvchi ikkinchi seksiyaga ham dars berish huquqiga ega bo'ladi. Ikkinchi seksiyada matematika asoslari, tajribaviy fizika, va ximiya fanlari o`rgatiladi. Umumiy grammatika, tarix, adabiyot, huquq fanlari uchinchi seksiya fanlari qatoriga kiritildi. O`quvchilar yoshi masalasida turli tortishuvlardan keyin quyidagicha belgilanib to'rtinchi modda sifatida dasturga kiritildi: "Birinchi seksiya darslariga faqat o'n ikkiga to'lgan o`quvchilar kiradi, ikkinchi seksiyaga o'n to'rtga to'lgan o`quvchilar, uchinchi seksiyaga o'n oltidan kam bo'lmaganlar kiritiladi." ³⁶

³⁴ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 466.

³⁵ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаста, Лаканала, Лепелете, Лавуазье и др. / Подред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.41.

³⁶ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 468-469.

Har bir markaziy maktab qoshida xalq kutubxonasi, bog`, tarix, fizika va ximiya bo`limlari ochiladi. Ta`lim masalalari bo`yicha tayinlangan hakamlar markaziy maktablar uchun o`qituvchilarni tanlab, imtixonidan o`tkazadi. Imtixon natijalarini ma`muriyat tasdiqlaydi. Har bir o`qituvchining maoshi department ma`muriyati a`zosining maoshiga tenglashtirildi. Shuningdek o`qituvchilarga yillik o`qish to`lovining bir qismi ulush sifatida beriladi. Uning miqdorini department ma`muriyati aniqlaydi. Lekin bu to`lov har bir o`quvchidan olinishida 25 livrdan oshmasligi lozim. Kambag`al oilalarning bolalari ham o`qishini hisobga olib department ma`muriyati o`quvchilarning to`rtidan bir qismini to`lovdan ozod qilishi mumkin. Kollejlar deb atalgan muassasalar bo`lgan kommunalar bo`lsa-yu markaziy maktablar bo`lmasa o`sha kollejlar binosini egallab, qo`shimcha markaziy maktab ochilishiga ruxsat berildi. Kommunalar fuqarolari iltimosiga ko`ra munisipal ma`muriyat taklif etgan rejaga binoan va departament ma`muriyatining qo`llab-quvvatlashi bilan qo`shimcha markaziy maktab tashkil etish va ularni moliyaviy ta`minoti uchun mablag` yig`ish haqida qonunchilik korpusi dekret qabul qildi. Mahalliy aholining imkoniga qarab qo`shimcha markaziy maktablar tashkil etildi. Ularning ta`lim rejalari haqiqiy markaziy maktablarning umumiy rejasiga yaqinlashtirildi. Markaziy maktablarga tegishli qolgan kichik qoidalar department ma`muriyatining ixtiyoriga topshirildi.³⁷

Qolgan fanlarni o`zlashtirish uchun maxsus maktablar ochildi. Qabul qilingan qonunga binoan unda astronomiya, geometriya va mexanika, tabiiy tarix, tibbiyot va veterinariya, qishloq xo`jaligi fanlari, siyosiy fanlar, musavvirlik, haykaltaroshlik, arxitektura va musiqa fanlari o`rgatiladi. Bundan tashqari yana ko`rlar va karlar maktablari ochilishi dasturga kiritildi.

Ta`lim tizimini nazorat qilish, uning faoliyatini yo`lga qo`yish uchun eng yuqori ta`lim organi yuqorida ta`kidlanganidek fan va san`at milliy instituti Parijda tashkil etildi. Bu butun Respublika miqyosida amal qiladi. Fan va san`atni doimiy tekshirib turish va rivojlantirish, kashfiyotlarni chop etib borish, chet el ilmiy

³⁷ Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаста, Лаканаль, Лепелете, Лавуазье и др./Под ред. А.П.Пинкевича. М., 1926. С.67.

jamoalari bilan xat orqali muloqotda bo`lib turish, ijroiyl direktoriya qonun va qarorlariga binoan, jamiyat foydasiga qaratilgan va Respublika sharafini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-adabiy ishlar bilan shug`ullanishni maqsad qilib qo`ydi. Institutning tarkibi Parijda yashayotgan va shunga teng Respublikaning turli hududida yashayotgan a`zolaridan iborat. Bunga qo`shimcha yana chet ellik 24 nafar olim ham kiritildi.<sup>38</sup> Shunday qilib boshlang`ich maktabdan to olimlarning ilmiy faoliyati, darsni tashkil qilish borasida kichik nizomlarga qadar ishlab chiqilib amalga kiritildi. Ta`lim tizimi tubdan islox qilindi.

³⁸ Хрестоматия по новой истории: (1789-1870)/Соц. А.Ф Ефимов и В.А. Орлов. М., 1941. С. 78

I.2. Inqilob davrida akademiya faoliyati.

Inqilob boshlanishi arafasida Luvr saroyining pastki qismida fan aristokratlari yig'ilishar edi. Ular o'z a'zolarining ma'ruzalarini tinglash, baholashdan tashqari turli xil fanlar borasida amalga oshirilgan ixtirolar uchun patent berish huquqiga ham ega edilar. Akademiya a'zolari saroy ahlining bir qismi deb hisoblanar edi. Shu sababdan ular oddiy xalq bilan bir safda turishni o'zlariga or deb bilar edilar. Inqilobning dastlabki to'liqlari akademiya hayotiga unchalik ta'sir o'tkazmadi. "1789-yili 15-iyul tongida akademiklar o'zlarining ish faoliyatini boshladilar. Kengashda Darse ximiya bo'yicha ma'ruza qildi, Tille va Brusson bug'doy chirishining oldini oladigan yangi moslamani namoyish qildilar. Garchand akademiya inqilobiy hodisalarga bee'tibordek ko'rinsada, lekin 1789-yil 18-iyuldagi navbatdagi yig'ilishda bu yerga ham atrofdagi voqealar ta'sir ko'rsatgani yaqqol sezildi"³⁹. Bu kuni Laplas jiddiy, sovuqqonlik bilan yer orbitasida tekisliklar tebranishi haqidagi ma'ruzasini o'qidi. To'planganlar yig'ilishda ma'ruzalarni xafsalasizlik bilan tingladilar. Yig'ilish yakunida a'zolar ayniqsa, uchinchi tabaqaga yaqin kishilar barcha akademiya xodimlarining teng huquqliligini ta'minlash lozimligi haqida so'z ochdilar. Xodimlar akademiya nizomini o'zgartirishni, uni demokratlashtirishni talab qilib chiqa boshladilar. Ayniqsa yosh xodimlar orasida mavjud masalalarni hal qilishni inqilobiy yo'l bilan amalga oshirish haqida gaplar tarqaldi. "Bu hodisalardan Laplas o'zini chetga oldi. U faqat ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi. hattoki uning yaqin do'sti General shtatlarning deputati Bayi, keyinchalik Parij shahrining meri bo'lib saylanganda ham, boshqa olimlar turli lavozimlarni egallashga intilsada Laplas bu holatlarga befarq bo'lib qolaverdi"⁴⁰.

Akademiya hayotida bu vaqtda vaziyat o'zgara boshladi. A'zolar va xodimlar o'rtasida bo'linish yuzaga kelib bir qismi qirol boshchiligidagi mutlaq monarxiyachilar tomoniga, ikkinchi qismi esa jirondistlar tomoniga qo'shilib keta boshladi. Buning ta'sirida akademiya nizomi to'g'risidagi masala yana kun

³⁹ Воронцов-Беляминов Б.А. Лаплас. М., Наука. 1985. С.102.

⁴⁰ Воронцов-Беляминов Б.А. Лаплас. М., Наука. 1985. С.102-103.

tartibiga qo'yilib, dolzarbligini saqlab qoldi. Akademiyaning faxriy a'zosi gersog Laroshfuko 18-noyabr kuni nizomni qaytadan ko'rib chiqishni taklif qildi va bu haqda qaror ham chiqarildi. Ishlab chiqilgan nizom loyihasi hech kimga tinchlik bermadi. Chunki nizomni amalga kiritish borasida tortishuvlar bo'lib katta munozara boshlanib ketgan edi. Shuning uchun ikkinchi haftada nizomning yangi loyihasini ishlab chiquvchi komissiya tuzildi. Komissiya a'zolari etib yirik olimlar Laplas, Kondorse, Bord va Bossyu saylandi. Komissiya avvalgi nizomga yengilgina o'zgartirish kiritgani uchun uning muhokamasiga to'plangan kengashni qoniqtirmadi. Chunki bu o'zgarish yangi inqilobiy g'oyalarga va siyosiy holatga to'liq mos tushmas edi. Akademiya'dagi munozaralardan keyin nizomga keskin o'zgartirishlar kiritildi. Bu masala Milliy Majlis muhokamasigacha ko'tarilib, katta o'zgartirishlar bilan deklaratsiya qabul qilindi.

12-avgustda olim Kondorse kengashda qisqagina chiqish qilib akademiya a'zolari barcha fuqarolar kabi teng huquqli bo'lishi lozimligi haqida quyidagicha ta'kidladi: “ bizning oldimizdagi eng maqbul yo'l barcha fuqarolar tengligi uchun kurash yo'lidir. Chunki bu faoliyatimiz rivoji uchun, kelajagimiz uchun muhimdir. Endi kechikib bo'lsada bu yo'lni tanlash zarur”. Qabul qilingan nizom hamda ma'ruzaviy chiqishlar “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” qoidalariga juda ham mos tushdi. Yangi jamiyatni shakllantirishda muhim bo'g'inlardan biri bo'ldi deyish mumkin. Lekin akademiya a'zolari orasida unga qarshi chiqqanlar ham ko'pchilikni tashkil etdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, olimlarning ko'pchiligi saroy qatlamiga mansub bo'lganligi uchun o'zlarini qora xalq bilan teng huquqli ko'rishni istamadi. G'alayonlar shiddatli tus ola boshladi. Ushbu kurashda Laplas faolligi ko'zga tashlanmaydi, chunki u qarama-qarshi kuchlarning har ikkalasi bilan ham munosabatni buzishni xohlamadi.

Akademiya davlat hayotida muhim o'rin tutar edi. Hukumat uning ilmiy yutuqlari, texnik ixtirolaridan ko'p sohada keng foydalanar edi. Qo'lga kiritilgan ixtiro va yangiliklar ko'pincha davlat amaliyotiga joriy qilinardi. 1790-yil 8-mayda Milliy ijroiyy kengash tomonidan davlatda yagona o'lchov birligini joriy qilish komissiyasi tuzildi. Ushbu komissiya ko'p shaharlarning iltimosiga binoan

tuzilgandi, chunki har bir shaharning alohida o'z o'lchovi bo'lib, yagona tizimga tushmagani uchun savdo-sotiqda, qishloq xo'jaligida va umuman iqtisodiy munosabatlarda qiyinchilik tug'ildirdi. Komissiyaga rais qilib Laplas tayinlandi. U uzunlik o'lchovini joriy qilishda yer meridianining bir qismini olishni tavsiya etdi. "Ikki meridian chizig'ining, ya'ni Parij meridiani uzunligi choragining o'n milliondan bir qismiga teng masofa o'nlik sistemada qismlarga ajratilib metr o'lchovi joriy qilindi"⁴¹. Og'irlik o'lchovini hisobga olish borasida esa Lavuaz'ening tajribalari qo'l keldi. U quyidagicha qabul qilindi: 4 gradus Selsiya o'lchovidagi bir kub santimetr hajmdagi toza suv og'irligi kilogramm sifatida qabul qilindi. Parij yaqinida joylashgan Sevr shahridagi Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosida saqlanayotgan silindr shaklidagi qotishma (90% Pt, 10% Ir) kilogramm etaloni sifatida qabul qilingan."⁴² 1799-yili komissiya ishi yakunlandi. O'lchovda metr va kilogrammning asos qilib olingan namunalari respublika arxiviga topshirildi. Bu o'lchov birliklari sekinlik bilan butun dunyoga yoyildi.

1790-yili ishlab chiqilgan konstitutsiya loyihasini amalga kiritishda Ta'sis majlisi ko'pchilikni tashkil etgan yirik burjuaziyaga yon bosgan edi. Majlisda avvalgi nizom tarafdorlari reaksiya talablarni qo'ygan edilar. Ular inqilobning rivojlanishini to'xtatish hamda eski tartiblarni joriy qilishni maqsad qildilar. Liberal-burjuaziyaning holatini tushunish uchun esa akademiyada Bayining siyosiy xarakterini o'rgangan holda tegishli xulosaga kelish mumkin. 1791-yil 17-iyulda xalq Mars maydoniga yig'ilib qirolning taxtdan tushishini talab qilib namoyish o'tkazganida Bayi askarlarga o'q otishni buyurgan edi. Bu ishi uchun u vazifasidan ozod etilib xalq ta'qibiga uchraganida Laplas unga ko'mak bergani sir emas. Aslida Laplas va uning xotini Bayi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Demak Laplas ham mo'tadil qarashda bo'lgan deyish qiyin. U felyanlar kabi konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo'lib inqilobiy harakatlarning chuqurlashib ketishini istamasdi.

⁴¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-tom. 2003. 615-b.

⁴² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 4-tom. 2002. 576-b.

Inqilob yetakchilari akademiya faoliyatini tahlil qilib u haqda tanqidiy fikrlarni bildirdi. Yirik siyosatchilardan biri J.P.Marat inqilobiy kurashga o`zining butun istedodini sarflagan yirik olim, publisist, fizik edi. Uning “Xalq do`sti” gazetasi birinchi sonlaridanoq inqilobiy demokratiyaning jangovor organiga aylana boshlagandi.⁴³ Marat gazetasida fanlar akademiyasini qattiq tanqid qilib uni qotib qolgan eski tuzumning ustuni deb baholadi. Binobarin Marat akademiya bilan kurashni inqilobdan oldin boshlagan edi. U “Hozirgi zamon sharlotanlari (firibgarlari)” pamfletida ularni qattiq tanqid qildi. 1791-yil 12-sentyabrda nashr qilgan pamfletida Laplasning o`rtoqlari Lavuaz'e, Kondorse va yana majlisda saylangan burjuaziya vakillarining obro`siga putur yetkazmoqchi edi. Marat: “Ular masalalarni xuddi avtomatga, yoki tegirmon otiga o`xshaydi deya formulani hamma narsaga qo`llayveradi. Kamiga ular moliyaviy jihatdan yaxshigina taminlanadilar ham. Hukumatdan qandaydir vakil paydo bo`ladida davlat g`aznasidan ular uchun katta mablag` sovradi. Ular bilimdan faqat boylik uchun foydalanadi. Akademiya guruhlariga bo`linib haftada ikki marta mazmunsiz yig`ilish o`tkazishi hech kimga hech qanday naf keltirmaydi”⁴⁴.

Bu paytda Frantsiya siyosiy hayotida keskin o`zgarishlar yuz berayotgan edi. 10-avgust kuni yakobinchilar boshchiligida qurolli qo`zg`olon ko`tarilib Lyudovik XVI taxtdan ag`darildi. 22-sentyabr kuni esa Milliy Majlis Fransiyani Respublika deb e`lon qildi. Inqilobchilar akademiya yordam so`rab murojaat qilganida u bir necha vatanparvarlik so`zlarini aytishdan nariga o`tmadi. Keyinchalik mudofaa fondiga tabiatda uchraydigan holdagi oltinni yubordi. Inqilob davrida muhojir sifatida davlatni tashlab ketishga majbur bo`layotgan olimlar orasida akademiya a`zolari ham bor edi. Bu holat ilmiy doiradagilarga nisbatan xalq orasida qochoq sifatida nafratini uyg`otar edi. Ammo ko`p olimlar o`zlarini inqilob kurashiga bag`ishlagan. Masalan Lazar Karno respublikada eng og`ir holatlarda harbiy kuchlarga rahbarlik qildi. Komitet a`zosi sifatida 14-armiya tashkilotchisiga aylandi. U nafaqat yirik inqilobchi balki matematik va mexanik sifatida ham

⁴³ Янги тарих. 3 томлик. 2 том., Мухаррир И.С.Галкин. Т., 1960. 14 –б.

⁴⁴ Марат Ж.П. Памфлеты/Подред. Ф.Кана. М., 1937. С.74.

tanilgan. Bundan tashqari yuqori lavozimlarda Gaspar Monj, Fure, Gazenfrats, Furkrua kabi olimlar inqilobga o'z hissasini qo'shishgan. Ularga Konvent tomonidan og'ir vazifalarni, xususan front ortida turib armiya uchun zarur qurollar yaroq'larni yetkazish, texnik ixtirolar bilan harbiy qurollarni mukammallashtirishni hal qilishni topshirdi. 14-inqilobchi armiyaning g'alabasini kimyogarlar taminlab bergan edi. Inqilob davrida fan nihoyatda taraqqiy etib demokratik g'oyalarga xizmat qilgani uchun o'z vatanida qolib millat bilan birga kurashgan olimlar obro'si oshib ketdi.

Tashqi va ichki xavfsizlik taminlanganidan so'ng barcha sohalar kabi hukumat ta'lim tizimiga ham e'tibor qaratdi. 1794-yil kuzida Milliy Konvent o'quv muassasalarini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qildi. O'quv yurtlarini yo'lga qo'yish, urush davomida yaroqsiz qolgan o'quv binolarini ta'mirlash haqida birin-ketin dekretlar chiqara boshladi. qisqa vaqt ichida politexnik va normal maktablar, Milliy institut, og'irlik va uzunlik o'lchov palatasi tashkil qilindi.

“Inqilibdan avval maktab ishlari ruqoniylar qo'lida bo'lgani uchun pedagogik kadrlar yetishmas edi. O'qituvchilar tayyorlash uchun maktablar ochildi. Maktablarga o'qituvchi sifatida yirik olimlar tayinlandi. Avval ular dars o'tishdan bebahra edi. Maktablarga o'qituvchi sifatida Konvent taniqli olimlarni taklif qilib xalq orasida ularning obro'sini va unvonlarini ko'tardi”⁴⁵. Laplas va Lagranj yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilib matematikani o'tishda tub o'zgarishlar kiritdi. Yoshlarni maktabga jalb etish haqida buyruq chiqarildi. Laplas matnlari darslik sifatida nashr etildi.

Konstitutsiyaning maxsus qismi bilan 1795-yil 22-avgust kuni oldin bekor qilingan qirollik akademiyasi o'rniga Milliy institut tashkil etildi. Unda: “Institut Respublika tarkibida va nazoratida bo'ladi. U ilmiy va badiiy kashfiyot va ixtirolar ustida tadqiqotlar olib borib, ularni mukammallashtirishi lozim. Har yili, har bir bo'lim fan muvaffaqiyatlari haqida yuqori idoralarga hisobot berib turishi lozim. Institut har yili olti a'zosini tanlab Respublika hisobidan fan va jamiyatning barcha

⁴⁵ Воронцов-Беляминов Б.А. Лаплас. М., Наука. 1985. С.105.

sohalarni ilmiy tadqiq etish maqsadida chet ellarga safarga jo`natadi⁴⁶-degan bandi bor edi..

Institutni tashkil qilishda Lakanal, Monj, Donolarning hissasi katta bo`ldi. Dono institutni tashkil etish loyihasini Konventga taqdim etish vaqtidagi maruzasida:-“Bizlar Milliy institutni tashkil etishda Taleyran va Kondorse g`oyalaridan foydalandik. Institutning shuxrati qirollik akademiyasi shuxratidan yuqori bo`lishi va bu yerga dunyo olimlarining eng yaxshisi yig`ilishi kerak. Bu milliy ibodatxona uning eshiklari har qanday fitnalarga yopiq, faqat eng munosiblargagina ochiladi. Tinchlik prinsipining amal qilish vaqti yetib keldi. Va biz bu ibodatxona eshiklarini olim, notiq, shoir, tarixchi va aktyorlar uchun ochishimiz mumkin”-degan edi. 1795-yil 25-oktyabrda qabul qilingan qonun bo`yicha institutda uchta bo`lim joriy qilindi.

Fizika-matematika fanlari bo`limi. U ikki seksiyaga tarmoqlashtiriladi.

Siyosiy va gumanitar fanlar bo`limi. Olti seksiyaga ajratiladi.

Adabiyot va nafis san'atlar bo`limi. har bir seksiya tarkibida o`nta haqiqiy a'zo va oltitagacha provinsiyalardan kelgan xodimlar tashkil etishi mumkin. Har bir bo`lim bir semestrda o`ziga prezident va ikki yilga kotib saylaydi, hamda bo`sh ish o`rinlarini to`ldirishi mumkin. Hammasi bo`lib institutda 144 ta fransuz, 24 ta chet eldan kelgan xodimlar bor edi. Shulardan 48 tasi hukumat tomonidan 1795-yil 20-noyabrdagi qaroriga muvofiq tayinlanib qolganlari institutning ichki nizomiga binoan saylangan. Matematika bo`limiga javobgar sifatida Laplas, Lagranj, Lejandr, Bordo va Bossyu tayinlandi. Shuni alohida takidlab o`tish joizki 48 a'zodan 36 nafari avvalgi akademiklar edi. Tez orada fizika va matematika bo`limining 1-majlisida Lagranj vaqtinchalik rais etib, rais o`rinbosarligiga esa Laplasni tayinlashdi. Keyingi ikki yil davomida Laplas ikki marta shu lavozimga tayinlandi. Institutning ravnaqida Laplasning roli birinchi kunlardanoq sezildi. Institut faoliyati haqida 500 lar kengashiga hisobot berish uchun Laplas

⁴⁶ Б.А.Воронцов-Веляминов. Лаплас. М., Наука. 1985. С. 161.

boshchiligida deputatsiya tayinlandi. Hisobotni tahlil qilib chiqqan kengash Laplasni II-bo'lim prezidenti etib tayinladi.⁴⁷

Hukumatning keyingi qarorlari ichida institut haqida ikkita hujjat nihoyatda muhimdir. “ Institutdagi tadqiqotchilar fan, adabiyot, san’atda ahamiyatli yangilik qilsa muallif qonun chiqaruvchi organdan mukofot talab qilishi mumkin. Shu qaror bo’yicha institut biror a’zosining bir vaqtning o’zida ikkita bo’limda ishlashi ta’qiqlanadi.”⁴⁸ Bu nizomning joriy qilinishi institutda ilmiy hayotni jonlantirib yubordi.

Shunday qilib inqilob ta'sirida akademiya faoliyati islox qilindi, nizomlariga keskin o'zgartirishlar kiritilib inqilobiy hayotga moslashtirildi. Ayni paytda akademiyaning o'zi ham inqilob amalga oshirilishida muhim o`rin tutdi.

⁴⁷ Б.А.Воронцов-Веляминов. Лаплас. М., Наука. 1985. С.132.

⁴⁸ Б.А.Воронцов-Веляминов. Лаплас. М., Наука. 1985. С.162..

I.3. Bayramlar, nashriyotlar va yodgorliklarga munosabat.

XVIII asr oxirida Inqilob ta'sirida Fransiya jamiyati tubdan islox qilindi. Madaniyat masalalari inqilobiy kuchlar tomonidan qattiq nazoratga olindi. Uning har jabhasi kichik elementlariga qadar o'zgartirilib yangi jamiyatga mos yangicha madaniyat barpo etish uchun kurashga kirishgandi. Madaniyat masalasida bayramlar alohida o'rin tutadi. Chunki u alohida qatlam yoki ma'lum guruhga taaluqli emas, balki butun millat kishilarini o'z qamroviga olgan va inqilob uchun, yangi jamiyatni barpo etish uchun kuchli psixologik xarakterga ega hisoblanardi. Shu sababdan alohida e'tibor talab qilardi.

Bayramlar xususida konvent eski bayramlardan hech qanday asorat ham qoldirmasdan umuman yangi mafkura va g'oyalarga asoslangan bayramlar joriy qilish ustida bosh qotirdi. Dastlabki bayramni o'tkazish o'z-o'zidan ma'lum bo'lib-bu Bastiliya qal'asining olingan kuniga bir yil to'lishi munosabati bilan o'tkaziladigan federatsiya bayrami edi. Bayramga tayyorgarlik ko'rish uchun juda katta ishchi kuchi jalb qilindi. Tadbirni o'tkazish uchun Mars maydoni tanlandi. "Revol'yuson de Frans e de Brabant" gazetasi bayram tashkil qilish jarayonini nashr qilib bordi. Mayddonda 15 ming kishi ishladi, bayramga qadar ish yakunlanmasligi haqidagi xabar tarqalgach ishchilar soni 150 ming kishiga yetkazildi va ular 80 ming tuaz uzunlikdagi yerda katta ishni amalga oshirdi. Ushbu gazetaning yozishiga ko'ra "Bu bayram taraddudidan ko'ra umumxalq hashariga ko'proq o'xshab ketadi. Yoshu-qari barcha ishga chiqishgan. Hamma qo'lidan kelgan ishni bajarishayapti. Yakunda esa shahar aholisi kuchli baraban va zambaraklar sadosi ostida sodiqlikka qasamyod qildi."⁴⁹

Milliy Konvent diniy marosimlar ta'qiqlana boshlagandan so'ng o'miga yangi joriy qilingan "Oliy mavjudot" dinining marosimlarini qabul qildi. Bu diniy marosimdan ko'ra milliy ko'rikka ko'proq o'xshab ketadi. Unga ko'ra har yili 22-prerial (10-iyun)da o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Uning nishonlanishini bu davrda nashr etilayotgan "Monityor" gazetasi quyidagicha sharxlagan: "Bu kun inqilobning boshidan boshlab qatnashganlar bilan umumiy, birdamlik va birodarlik

⁴⁹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 490.

ruhida o'tdi. "Oliy mavjudot"ga bag'ishlangan bu kun har bir odamda go'zallik kasb etdi. Ulug' xalq tabiatga yaqinlashib, uning amrini o'z tuyg'ulari bilan mujassamlashtirdi. Yaratuvchiga kam-ko'stsiz itoat etishni, har qanday irimlardan ozod ekanligini va adolat va haqiqatni sevishni namoyon etdi."⁵⁰ Marosim juda oddiy ammo ulug'vor tashkil qilindi. Hamma binolar ozodlik ramzlari bilan bezatilgan edi. Uylarning bezalishida esa baxtililik va ko'ngilga xush keluvchi hukmron tuyg'ular ustun edi. Arafa kuni uylar shox-shabbalardan tortib gullar va har xil buyumlar bilan bezatildi. Har bir derazaga uch rangli bayroq ilib chiqildi, xuddi shu ranglar ibodatxona qurbongohida ham aks etgan edi. Tong otgandan butun shahar harakatga keldi. Parij ko'chalarida chaqiriqlar eshitildi.

Ayol va erkaklarni seksiyalarning chaqiruv punktlarida yig'ilishi so'raldi. Erkaklar qurolsiz, 14-18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar nayza, miltiq va qilich taqib keldi. Roppa-rosa soat sakkizda artilleriya ovozi eshitildi, bu Yangi ko'prikdan Tyuilri milliy bog'iga borishni anglatardi. Ikki qator saf tortib hamma yo'lga chiqdi erkaklar o'ngdan, ayollar chapdan. O'rtada to'rt burchak shaklda o'n ikki qator saf tortib harbiylar harakatlandi. Minnatdorchilik va yoshlik ramzi sifatida ayollar-atirgul, qizlar savatlarda har xil gullar ko'tarib olishdi. Erkak va o'smir yigitlar dub daraxti shoxlarini kuch va ozodlik ramzi sifatida olishgan edi.

Barcha Tyuilriga yig'ilganda Milliy Konvent katta orkestr jo'rligida yuqoridan amfiteatrda tushib keldi. Tadbir raisi nutq so'zlab bayramning kelib chiqishi, mohiyat-mazmuni, nishonlanishi haqida xalqqa tushuncha berdi va yaratuvchi tabiatga yuksak ehtiromda bo'lishni so'radi. Keyin simfoniya yangradi bu oliy mavjudotni borliqda tartib o'ratgani uchun sharaflash edi. Milliy bog'da xursandchilik davom etdi. Xalq Birlashuv maydoni (Mars maydoni)ga chiqdi. Milliy Konvent a'zolari uch rangli tasmalar bilan o'rab olingan edi. Tasmaning binafsha bilan bezatilgan qismi-bolalik, mirta daraxtining barglari bilan bezalgani

⁵⁰ Новая история в документах и материалах/Под. Ред. Н.М.Лукина и В.М.Далина. М., 1934. С. 128.

– o`smirlik, o`rta yosh davri dub barglari bilan, va qarilikni anglatuvchi uzum novdalari bilan bezalgan edi.⁵¹

Har bir deputat qo`lida bug`doy boshog`ini, gullar va mevalar bilan bezatilgan savatlarni ushlagandi. Milliy Konvent vakillari antik uslubda yasalgan maxsus aravalar atrofida harakatlandi. Aravada kasb-hunar va san`at qurollari joylashgandi. Xususan omoch ustiga qo`yilgan bir bog` bug`doy, ilm ramzi bo`lgan nashr uskunasi, Ozodlik haykali, dub daraxti - san`at rivojining ramzi sifatida olingan edi. Matolar bilan bezatilgan va shoxlariga tilla suvi yugurtirilgan sakkizta ho`kiz aravani tortib bordi. Tantanali yurish ochib qo`yilgan ko`priktan o`tib, Ozodlik haykalini aylanib, Birlik (Mars) maydoniga qaytib keldi. Maydon tepaligining o`ng tomonida erkaklar, chap tomonida ayollar tepalik atrofida esa qurollangan o`smirlar va harbiylar joylashdi. Eng baland qismida Milliy Konvent a`zolari va musiqachilar joylashdi. Hamma o`z joyini egallagach “Oliy mavjudot” uchun madhiya yangradi. Keyin qariya va o`smirlar Marselizani kuylashdi hamda respublika dushmanlari halok bo`lmaguncha kurashni davom ettirish uchun qasam ichishdi. Eng so`nggida yigitlar qurollarini ko`tardi, qizlar gullarini balandga otishdi, qariyalar ularning boshiga qo`lini qo`yib duo qildi. Nihoyat umumiy artilleriya ovozi yangradi. Barcha quchoqlashib “Yashasin Respublika!”-deb qichqirishdi. Shu bilan tadbir yakunlandi.⁵²

Bundan tashqari Milliy Konvent esda qolarli buyuk voqealarni, tenglik o`rnatish va mustaxkamlashga yordam bergan tadbirlarni ham bayram sifatida nishonlashni rejalashtirdi. O`sha voqealarning kelib chiqish sabablari, ulardan vujudga keladigan yaxshi va yomonliklarga xalq e`tibori qaratiladi, shu bilan ularga milliy tarix, siyosat va axloqdan dars berilgan bo`lardi. Uni quyidagicha qiyoslaydi “Bu suv osti qoyalarini aniqlashni o`rgatar edi, chunki aql bo`lmasa respublika kemasi qoyalarga urilib halok bo`lishi mumkin.”

Ayrim bayramlarni xalq xotirasida qolishi uchun ko`rgazmali tarzda tashkil qilish lozim. O`yinlar, tomoshalar, musobaqalar tashkil qilish bu eng maqbul

⁵¹ Хрестоматия по новой истории: (1789-1870)/Соц. А.Ф Ефимов и В.А. Орлов. М., 1941. С. 96.

⁵² Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 500.

yoʻldir. Sheʼriyat, musiqa, raqs, tasviriy sanʼat bobida ham koʻrgazma va bellashuvlar oʻtkazilishi kerak. Mukofotlar eʼlon qilinsa barcha jasurlikka, chaqqonlikka, xushyorlikka, kamtarlik va mehnatsevarlikka, hamma jismoniy va axloqiy sifatlarga ega boʻlardi. Har kim iqtidoriga yarasha taqdirlangan boʻlardi. Qoʻmita nazarida umumiy boʻlmagan bayramlar qattiqqoʻllik va nazoratsiz oʻtkazilsa umumiy ezgulikka xavf tugʻdirishi mumkinday tuyuldi. Ammo har bir kommunaning oʻziga xos bayramlarini oʻtkazishga ham ruxsat berildi. Umumiy bayramlar esa hukumat rahbarligida oʻtkaziladi.

1795-yil 25-oktyabrda Milliy Konvent milliy bayramlarni tartibga solish, nishonlash va vaqtini belgilash haqida qaror qabul qildi. Unga koʻra Respublikaning barcha kantonlarida yiliga 7 ta milliy bayram oʻtkaziladigan boʻldi. 1-vandemerda Respublika tuzilganligi bayrami, 10-jerminalda Yoshlik bayrami, 10-florelda Oila (Er-xotin) bayrami, 10-prerialda Minnatdorchilik bayrami, 10-messidorda Dehqonchilik bayrami, 9-10-termidor kunlari Ozodlik bayrami, nihoyat 10-fryuktidorda Keksalik bayramlari nishonlanishi joriy qilindi.⁵³

Bayramlarni nishonlash vaqtida mavsumga qarab har xil jamoa oʻyinlari, birodarlik ziyofatlari, fuqarolik va axloq haqida nutqlar, vatanparvarlik ashulalarini kuylash, sovgʻalar ulashiladigan boʻldi. Bayram nishonlanishi dasturini har bir kanton oldindan rejalashtirib, munisipal maʼmuriyat orqali xalqqa ovoza qiladi.

Qabul qilingan qarorlarga muvofiq 1798-yili Ozodlik bayramini quyidagi dastur asosida tashkil qilindi. Unga sanʼat asarlarini ham qoʻshib namoyish etishni ichki ishlar qoʻmitasi tasdiqladi. Bu bayram Parijga Italiyadan yigʻilgan fan va sanʼat asarlarini kiritilishi bilan bezaldi. Palma, kokos, banan daraxtlari Trinidad orolidan olib kelindi. Afrika va shimoliy mamlakatlardan hayvonlar olib kelindi. Umuman dunyoning har tarafidan keltirilgan buyumlar bilan shahar bezatildi.

Italiyadan keltirilgan fan va sanʼat asarlari Ozodlik bayramining ikki kunida ham namoyish etildi. Birinchi kuni asarlar ichki ishlar qoʻmitasiga topshiriladi. Namoyish vaqtida ularni “Fan va sanʼat Milliy instituti” ning aʼzolari olib yuradi. Bu kuniga ijrochi direktoriyaga namoyish qilinadi. 9-termidor kuni soat 9⁰⁰ da

⁵³Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, под ред. А.В.Адо. М., 1990. С. 470..

hamma fuqarolar Sena daryosining chap qirg'og'ida "Tabiiy tarix muzeyi"da yig'ildi. Haykallar va boshqa ko'rgazmaga qo'yilgan buyumlar aravalarda janubiy xiyobondan belgilangan tartibda harakatlandi. Aravalar Italiyada olingan o'ljalarsan'at asarlari, qimmatbaho buyumlar va boshqa jihozlar bilan bezatilgan. Namoyishni kavaleriya otryadi va harbiy orkestr boshlab berdi. Namoyish uch katta guruhga bo'lindi. Birinchi bo'lib 'Tabiiy tarix' –deb yozilgan bayroq ko'tarib "Tabiiy tarix muzeyi"ning professor xodimlari, aravalar yonida talabalar va taklif qilingan ishqibozlar yurdi. Ularning orqasidan harbiy guruh harakatlandi.

Ikkinchi guruh ko'tarib ketadigan bayroqda "kitoblar,qo'lyozmalar, medallar, qadimgi sharq tillarining qo'lyozma manbalari- fan va san'at ozodlikni qutlaydi va bezaydi"-degan yozuvlar bor edi. Keyin vatanparvarlik madhlarini kuylab xor jamoasi o'tadi, ketidan fan va san'at bilan shug'ullanadigan jamoa, Parij teatri jamoalari, bosmaxona ustalari, kutubxona xodimlari, politexnika maktablari o'qituvchilari, "Kollej de Frans" professorlari bordi. Oxirida uch oyoqli ot ustida Gomer byustini olib o'tiladi. Byust oldida "Yetti shahar uni vatani deb atalishiga tortishayapti"-degan yozuvli bayroq olib o'tildi. Ularning ketidan ham harbiy guruh joylashdi.

Uchinchi guruh bayrog'ida "Nafis san'at", "San'at lavr o'sadigan yerga intiladi"-degan yozuv bor edi. Bayroq ketidan yosh artistlar xori bayram mavzuiga taaluqli ashula aytib ketadi. Tasviriy san'at, skulptura, arxitektura maktablarida yani davlat tashkil etgan kurslarda o'qiyotgan sovrin egalari, markaziy san'at muzeyi ma'muriyati, fransuz muzeyining maxsus maktabi, fransuz yodgorliklari muzeyi xodimlari keyingi o'rinda bordi. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, va me'morchilik maktablari professorlari o'quvchilari bilan aravalar yonida bordi. Keyin antik skulptura yodgorliklari namoyishi bo'ldi. Unda: Gretsiya ularni boy berdi; Rim yo'qotdi; Ikki marta taqdiri o'zgardi, endi o'zgarmaydi"-degan yozuv bor edi. Oldingi ikki aravada oltin suvi yugurtirilgan bronzadan yasalgan to'rtta ot haykali o'rnatilgan. Otlar pastki tomonida: "Korinfdan Rimga, Rimdan Konstantinopolga, Konstantinopoldan Venetsiyaga, Venetsiyadan Fransiyagacha yo'l bosgan otlar, nihoyat ozod yerga yetib keldi"-yozuvi bor edi. Orqada

“Rasmlar” degan yozuvli bayroq. 28-aravada Rafaelning “O`zgarish”i va boshqa shedevrlari, Domenikino kartinalari, Julio Romano va boshqalarning asarlari joy olgan. 29-aravada Titsian, Paolo Veroneze va boshqalar asarlari joylashgan. Ularning ketidan vatan himoyachilari Yosh Brutning byustini olib borishdi. Byust turgan bronza taxtachada Tatsitning: “Oldin Rimda podsholar hukm surdi, Yuniy Brut unga ozodlik va Respublikani berdi” – degan satrlari va unga qo`shimcha Volterning “Rim ozod yetarli ” jumlasini yozilgan. Byust ketidan fan va san`at asarlarini Italiyada axtargan komissiya o`tadi. Ularning bosh kiyimi uch rangda bezalgan. Qo`llarida lavrdan yasalgan chambarak bor. Nihoyat katta harbiy guruh yurushni yakunlaydi.⁵⁴

Shunday qilib inqilob Fransiya hayotida yangidan-yangi bayramlarning joriy qilinishiga olib keldi. Nishonlanadigan har qanday bayram inqilobni kuylashi, tenglikni madh etishi lozim edi. Buning uchun hukumat tomonidan alohida e`tibor qaratildi.

Buyuk fransuz inqilobi davrida ta`lim tizimi bilan yonma-yon adabiyot, san`at, nashriyot, teatr masalalari ham Milliy Konvent muxokamalariga qo`yildi. Ular bilan bog`liq tartib qoidalar, nizomlarga o`zgartirishlar kiritildi. Asarlarning yaratilishi, saxnalarda qo`yilishi inqilobni tarannum etib, ozodlik, tenglikni madh etishi lozim edi. Bu soxalar inson qadr-qimmatini, xalq ozodligi g`oyalarini ilgari surgani uchun turli tahdidlardan, siyosiy bosimdan holi bo`lishi ta`kidlandi. Shu munosabat bilan 1791-yili 13-19-yanvar kunlari Ta`sis Majlisi “Teatrni ozod qilish haqida dekret” qabul qildi. Bu dekret teatr bilan bog`liq masalalarga oydinlik kiritdi. Unda teatr ochish, ularni moliyaviy ta`minlash, unda qo`yiladigan pyesalar va boshqa ko`rsatmalar, shartlar, imkoniyatlar bilan bog`liq moddalar qabul qilindi. Xususan uning birinchi moddasida “Har bir fuqaro xalq teatri ochishga haqli va u yerda har xil pyesalar qo`yishi mumkin. Faqat avval mahalliy munisipalitetga teatr ochish haqida bildirishnoma topshirishi lozim ”⁵⁵- deyilgan edi. Dramaturglarning asarlari muallifning yozma roziligi bilan Fransiyaning turli

⁵⁴Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 492

⁵⁵Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 472.

teatrlarida qo'yilishi mumkin. Agar hujjat bo'lmagan holda teatrdan tushgan daromad muallif hisobiga o'tkazib yuboriladi. Saxnada qo'yilayotgan asar muallifi besh yil yoki undan oldin vafot etgan bo'lsa uning asari jamiyat mulki hisoblanadi va hamma teatrlarda qo'yilishi mumkin.

Teatr jamoalari faoliyati davomida munisipalitet a'zolari nazorati ostida bo'ladi. Ulardan turli ko'rsatmalar oladi. Spektaklning qo'yilish qo'yilmasligini shu a'zolar hal qiladi. Muallif va aktyorlar javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holatlar bundan mustasno. Munisipalitet a'zolari teatr masalasida qonun doirasida va politsiya ko'rsatmasiga muvofiq buyruqlarni berishi mumkin.

Spektakl qo'yilishi jarayonida munisipalitet tartib saqlash uchun rasmiy ravishta muntazam qo'shinlardan jalb qiladi, agar jalb qilinmasa faqat bino tashqarisida soqchi qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda zalda tartib uchun bir nechta fuqarolar qo'yiladi, qo'riqchi faqatgina jamoaga xavf tug'ilgandagina binoga kiritiladi. Shunday qilib teatrning tashkil qilinishi va tartibli o'tishi ta'minlanadi.⁵⁶

Teatrlarda ko'pincha inqilob mavzuidagi sahna ko'rinishlari namoyish etilardi va buni hukumat ham qo'llab-quvvatlardi. 1793-yili 2-3-avgustda Konvent sahnada qo'yiladigan spektakl mavzulari haqidagi dekretida shu oyning to'rtinchi sanasidan, 1-sentabrga qadar Parij teatrlarida haftada uch marta inqilobning shonli voqealari va ozodlikning jasur yo'l boshchilari Vilgelm Tell, Gay Grakx, Brut va boshqalar haqida sahna tomoshalari qo'yilishini belgiladi. Haftada bir marta bunday tomosha Respublika hisobidan qo'yiladi. Agar har qanday teatrdan jamoa ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tomoshalar, yoki qirol hokimiyatiga hayrixohlik bildirgan spektakllar namoyish etilsa bunday teatrlar yopiladi. Rahbarlari esa qamoqqa olinib, qonunga binoan qattiq jazolanadi. Bu dekretni bajarish Parij munisipalitetiga topshirildi. Inqilobchilar nazarida shu paytga qadar san'at va uning barcha turlari boylarga xizmat qilib kelgan, puldorlarning ko'nglini ovlash uchun ermak bo'lib qolgan edi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki,

⁵⁶ Захер Я.М. Французская революция в документах: 1789-1794. Л., 1926.

inqilobgacha va inqilob davrida ko'p san'at talantlari yo'q qilindi. Ko'plari janglarda halok bo'ldi. Ayrimlari esa ikki tuzum orasida sarson bo'ldi. 1793-yili Milliy san'at hakamligi tuzish haqidagi dekretda J.L.David qilgan ma'ruzada ushbu mavzuga ham to'xtalib o'tdi. U san'at tabiat bilan bog'liq, tabiatni xususan odamzot tabiatini rassomlar o'rganishi kerak va hech qanday tahdid bo'lmasligi kerakligini ta'kidladi. Hakamlarning qanday ishlashi, qanchalik san'atga tushunchasi borligi va ular bilan bog'liq boshqa talablarni o'rtaga qo'ydi.

1794-yili yuz bergan ulkan o'zgarishlardan keyin yakobinchilar diktaturasi ag'darildi. Bu bilan jamiyat madaniy hayotiga ham ilqlik kirib keldi. Keskinlik biroz yumshadi. Matbuot erkinligini tiklash uchun harakatlar boshlandi. Milliy Konventda bahslar boshlanib ketdi. Ta'qiqlangan ayrim gazetalar qaytadan nashr qilina boshlandi. Xususan "Oratyor dyu pyopl" gazetasini chiqarish qaytadan tiklandi. M.Robespyer o'limidan keyin uning davri inqilobning eng inqirozli davri deb qaraldi va uning qilmishlari qoralandi. Haqiqatdan ham Robespyer ko'pchilikning qonini nohaq to'kkan edi. Matbuotga kuchli senzura o'rnatdi. Barcha gazetalar kuchli nazoratga olindi. Agar Robespyer matbuotni ozod qoldirganda ko'p qonlar nohaq to'kilmagan bo'lar edi.

Muharrir Freron axborot vositalariga qo'yilgan senzura masalasini qaytadan ko'rib chiqishni va quyidagi loyihani dekret sifatida e'lon qilishini so'rab Konventga murojaat qildi:

1. Matbuot ozod bo'lishi shart. Har qanday vaziyatda ham, hech qanday sabab-bahona uni ozodligidan mahrum qila olmaydi.

2. Har qanday qonun chiqaruvchi korpus, boshqaruvchi qo'mita, ijroiyl hokimiyat faqatgina nashriyotning xalqqa, Respublikaga, inson huquqlariga zid faoliyat yuritgan taqdirda nashr qilinishi cheklanishi mumkin.⁵⁷

Ko'p bahslardan keyin majlis Freronning nutqini chop etib, loyihasini qo'mitaga jo'natishga qaror qildi.

Axborot vositalari masalasi ko'p vaqt muhokamada bo'ldi. Buning yechimini topish esa murakkabligicha qolaverdi. Bunga M.J.Shenye ham o'z

⁵⁷ Олар.А, Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918.С. 354.

fikrlarini bildirdi. Uning qarashlari ko`proq royalist gazetalarining tanqidi to`g`risida edi. Yigirmaga yaqin gazeta egalari birgalashib Respublikaning og`ir davrida qirol hokimiyatining yonini olib hukumatini tiklashga undovchi maqolalar chop etmoqda. Respublikachilarga nisbatan esa har xil ig`vo tarqatib yuribdi. Hattoki respublika uchun jang qilganlarni, Robespyerni tiz cho`kib olqishlagan gazetalar chet el matbuotining tuhmatiga quloq solib respublikachilar obro`sini oyoq osti qilmoqda. Ayrim jurnalistlar ozodlikka qarshi, hatto Konvent raisini ham ig`vo, qo`rqitish va haqoratga to`la xatlar yozilgan konvertlarni yuborishgacha bormoqda. Bretan va Dofine departamentlarida tarqatilayotgan broshyuralarda qirol hokimiyatini o`rnatib, qirol bayrog`ini ko`tarishga undayapti.

Matbuot ozodligi xalqqa qarshi tuhmat emas, Respublikani qulatish degani emas deya so`zini yakunlaydi Freron. Nashriyotlar ozodligi masalasi yuqoridagi ikki sabab bilan yani ozodlik bersa inqilobga tahdid, senzura o`rnatilsa demokratik tamoyillarga zid kelib qolishidan katta bahs-munozaralarga sabab bo`lgan edi. Ammo 1796-yil 16-aprelda “respublika hokimiyatini tarqatishga qaratilgan har qanday g`alamislikka hamda jamoa va shaxsiy xavfsizlikka suiqasd qilishga qarshi choralar haqidagi qonun” da bunga biroz oydinlik kiritildi. Uning birinchi moddasida: Respublikaning ichki va fuqarolar xavfsizligiga qarshi jinoyatlarda aybdor deb topilgan shaxs jinoyat va jazo kodeksining 612-moddasiga binoan o`lim jazosiga tortiladi. Kimki gapi va matbuot orqali yoki umuman qaysi yo`l bilan tarqatilmasin Milliy vakolatxona va Ijroiyy Direktoriyaning tarqatilishi haqidagi xabari, ushbu organlarning bitta yoki hamma a`zosini o`ldirishga, qirol hokimiyati, 1791, 1793-yilgi konstitutsiyalarning tiklanishiga, yoki III yil konstitutsiyasidan tashqari har qanday hokimiyatni tiklashga undash, jamoa mulkiga qasd qilish, agrar qonunga zid yoki yo boshqa biror shaklda shaxsiy mulkni talon-taroj qilishga undagan bo`lsa o`lim jazosi beriladi. Agar sud aybini yengillashtiradigan sabablarni ko`rsatsa jazo surgun qilish bilan almashtirilishi mumkin-deb belgilab qo`yildi.⁵⁸ Bu qaror qabul qilingandan bu kuniga “Matbuot

⁵⁸ Свобода, равенство, братство; Великая французская революция: документы, письма, речи, воспоминания, песни, стихи/Сост. О.Куцова, С.Коротков. Лг., 1989. С.127.

organlarining qilgan jinoyatlariga qarshi “Qatag’on choralari haqida” dekret chiqarildi. Bu matbuot faoliyati masalasiga to’liq oydinlik kiritdi. Unga ko’ra birorta gazeta va birorta vaqtli matbuot maqola va xabarlar chop etganda, afishalar yopishtirilganda, fuqarolar orasida birorta yozma xabar tarqatilganda muallifining nomi va nashriyot manzili ko’rsatilmasa chop etish taqiqlanadi. Bu buyruqqa amal qilmaslik muallif va nashriyot nomini ko’rsatmaslik, yoki soxta ism va manzil berilgani ma’lum bo’lsa politsiya tomonidan ta’qib qilinadi. Tartib xodimlari ta’qib sababi qanday bo’lishidan qat’iy nazar avvalgi olti oyda jinoyatchi jarimaga tortiladi, ikki yildan so’ng qamoqqa olinadi. Agar noshir, sotuvchi, tarqatuvchi, yetkazib beruvchi yoki yopishtiruvchi yozilgan narsaning muallifini ko’rsatmasa, ma’lumotlar yolg’on bo’lsa uni chet el fuqarosiga ko’rsatsa yoki doimiy turar joyi yo’q odamni muallif deb ko’rsatsa, unda ular o’zlari aybdor hisoblanadi va ikki yil qamoq jazosiga tortiladi, jinoyat takrorlansa mamlakatdan chiqarib yuboriladi. Agar sud jinoyatda yumshatish holatlari borligini aniqlasa unda jazo olti oyga kamaytiriladi.⁵⁹ Shunday qilib axborot vositalari masalasidagi muammolar Konvent tomonidan hal qilindi va bu to’g’rida dekretlar chiqarildi.

Eski davrdan meros qolgan binolar ularni tarixiy yodgorliklar safiga kiritish, ta’mirlash, yaroqlilaridan foydalanish, feodalizmni eslatadigan yodgorliklarga munosabat xususida ham siyosatchilar bir to’xtamga keldilar.

Avvalo Milliy maktablarni bino bilan taminlash uchun eski feodal qo’rg’onlari musodara qilindi, keyin Milliy Majlis 1790-yili department direktoriyasiga o’z hududlarida joylashgan yodgorliklar, cherkov binolari va boshqa binolarni milliy mulkka aylantirish haqida buyruq chiqardi, hamda ularni bor imkoniyat bilan saqlashni, qo’riqlashni tayinladi. Ular barcha amalga oshirilgan ishlar xususida yuqori organlarga hisobot berib bordilar. Majlis Parij munisipalitetiga o’xshash ko’p yodgorliklari, shaharda joylashgan xartiyalar omborxonalari, hujjat va turli qog’ozlar saqlanadigan arxivlar, kutubxonalari haqida shunday g’amxo’rlik qilishini so’radi. Ular ustidan nazorat to’la, kami-

⁵⁹ Документы истории великой французской революции в двух томах, том-1. М., 1990. 483-6.

ko'stsiz hamda odilona bo'lish uchun munisipalitet har xil akademiyalardan tanlangan a'zolar bilan hamkorlik qilishi lozim edi.

Yangi jamiyat uchun yaroqsiz bo'lgan eski yodgorliklar xususan inqilob tomonidan fransuz xalqining ko'z o'ngida takabburlik, xurofot va zulmni sharaflaydigan deya baholangan yodgorliklar bundan buyon mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Milliy majlis ozodlik va tenglik tamoyillariga asoslanib ushbu yodgorliklar bronzasidan zambaraklar quyilsa vatan himoyasi uchun ko'proq foyda keltiradi degan xulosaga kelib tezkor choralarni qabul qilish uchun dekret chiqardi. Unga ko'ra: Hamma statuyalar, barelyeflar, yozuvlar, haykallar har qanday materialdan qilinganiga qaramay ularning yaroqsizlari vatan himoyasi uchun ishlatilsin. Jamoa maydonlarida, ibodatxonalar, bog', park, feodallar hovlisida, hatto qirol ixtiyorida qoldirilgan yerlarda qurilgan bo'lsa ham hamma yodgorliklar kommuna vakillari tomonidan yechib olinib tegishli joylarda saqlanishi kerak.

Parij shahrida joylashgan yuqorida aytilgan predmetlarning hammasi Parij kommunasining vakillari tomonidan ichki ishlar vaziri, qurollanish komissiyasining ikki a'zosi va yodgorliklar komissiyasining ikki a'zosi nazorati ostida qurol-aslaxa bo'lib quyilishi kerak. Kommuna tashabbusi bilan feodalizmdan qolgan har xil yodgorliklar, hali ham ibodatxonalarda, ayrim jamoat joylarida va shaxsiy binolar peshtoqida saqlanayotgan bo'lsa tezda buzilishi kerak. Yodgorliklar komissiyasiga alohida san'at qadr-qimmatiga ega bo'lgan yodgorliklarni saqlab qolishni buyurdi va qonunchilik korpusiga o'sha predmetlarning ro'yxatini tasdiqlashga taqdim etishini so'raydi. Qurollanish komissiyasi bo'lsa tezda dekret loyihasini taqdim etish kerak. Unda Fransiyaning har bir kommunasida joylashgan yodgorliklar metalli vatan himoyasi uchun xizmat qilishi ko'rsatilib o'tilsin.⁶⁰ Qabul qilingan bu dekretlar natijasida ko'pgina tarixiy yodgorliklarga ham zarar yetdi. Ko'pincha feodallar ixtiyoridagi yodgorliklar eritilib yuborilardi. Harbiy soxa esa doim metall buyumlarni talab qilar edi.

Asrab qolingan noyob buyumlarni saqlash uchun javobgar xodimlar Milliy Konventdan alohida bino berishini so'rab murojaat qildi. Bu so'rovga javoban

⁶⁰Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 484-485.

1793-yil 27-iyulda Milliy Konvent kengashida bu masala bo'yicha qilingan ma'ruzalar bo'yicha dekret qabul qilindi. Ichki ishlar vazirligining tashabbusi bilan shu yili 10-avgustda Luvrning Pale Nasonal bilan tutashgan qismidagi galereyada Respublika muzeyi ochildi. Qabul qilingan dekretning ikkinchi moddasiga binoan, hamda vazirlik ko'rsatmasi bilan komissarlar kuzatuv ostida muzeyga nodir rasmlar, statuyalar, vaza, qimmatbaho jihozlar, marmardan yasalgan buyumlar olib kelindi. Versal saroyi, park, Trianon yodgorliklariga alohida dekret chiqarildi. Vazirlik ko'rsatmasi bilan antik davrga taaluqli tasviriy san'at asarlari, byustlar, qirol saroyidagi, qal'alardagi, xiyobonlardagi emigrantlarga qarashli va boshqa joylarda joylashgan barcha buyumlar ham Luvrga ko'chirtirib keltirildi.⁶¹ Keltirilgan buyumlar bilan muzey fondi boyib bordi. Shu tariqa bugungi kunda dunyoga mashhur Luvr muzeyiga asos solindi.

Luvr muzeyi faoliyati yo'lga qo'yilgandan so'ng Parijda 1794-yili dehqonchilik va san'at komissiyasi nazorati ostida san'at va hunar konservatoriyasi omborxonasi tashkil qilindi. Unda turli xil mashinalar, modellar, qurollar, chizmalar, san'at va hunar haqidagi kitoblar saqlanadi. Yaratilgan va mukammallashtirilgan barcha aslahalar hamda mashinalarning asl nusxasi konservatoriyada saqlanadigan bo'ldi. Unda qurol va mashinalar, san'at va hunarda ishlatiladigan jihozlarning qo'llanmalari va ishlatish usullari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Qo'mita ruxsati bilan hamkorlikda ishlayotgan dehqonchilik va san'at komissiyasi turli yo'llar bilan dehqonchilik va san'at, hunarmandchilik uchun turli xil yangiliklarni, yangi modellar, chizmalar, tariflarni amaliyotda qo'llash uchun jo'natib turadi. Shu orqali uning respublika hayotiga foydasi tegadi.

Shunday qilib inqilob natijasida madaniyat masalalarida juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Eng muhimi ta'lim tizimining tubdan islox qilinishi bo'lib, u to'liq cherkov vasiyligidan ozod etildi. Kichik o'zgarishlarga qaramay to'liq dunyoviy lashtirildi. Axborot vositalari uchun qonun-qoidalar esa hukumatlar almashishi bilan o'zgarib turdi. Eng tez xabar yetkazish vositasi bo'lgan gazeta nashriyotlari boshqa soxalardan ko'ra ko'proq siyosatchilar nazorati ostida edi.

⁶¹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 485-486.

Odatda bu davrda har bir siyosiy partiya va tashkilotlar o'z gazetasini chop etar edi. Hukumat dekretlari, murojaatlari gazetalar orqali e'lon qilinardi. Shu tufayli turli soxaga oid xabarlar tezda xalqqa ma'lum bo'lardi. Yangi jamiyatda yangicha shaxsni tarbiyalashning muhim ommabop usuli inqilobiy bayramlarni joriy qilish edi. Bu bilan xalq eski feodal tuzumga xos urf-odatlarini tark etib tenglik, ozodlik ruhida tarbiyalanardi. Shu orqali inqilobning afzalliklari har bir kishi ongiga singdirilardi.

II BOB. DINIY MASALALAR SIYOSATCHILAR MUHOKAMASIDA

2.1. Milliy Konventda cherkov masalasi

Feodalizm davrida cherkov feodallar bilan to'liq maqsadni umumlashtirib ko'pincha birga harakatlanardi. Ko'p sohalarda bir-birining manfaatiga xizmat qilardi. Inqilobning to'la-to'kis amalga oshirilishida qirol hokimiyati va feodallar bilan birga cherkov ham asosiy to'g'anoq edi. Shu sababdan ham o'zgarishlarning dastlabki davrida siyosiy kengashlarda inqilobchilar va ruhoniylar kuchli qarama-qarshi guruhlarini tashkil etar edi. Ikki tomonning manfaati avval soliq borasida va cherkov mulklarini milliyalashtirish masalasida to'qnash keldi. Siyosatchilar Ta'sis Majlisida zo'r berib bu masalani inqilob foydasiga hal qilishga urindi.

F.Byuzo Ta'sis Majlisining 1789-yil 6-avgustida qilgan ma'ruzasida ruhoniylarni qattiq tanqidga oldi. U o'zidan avval minbarga chiqqan cherkov xodimlarining so'zlariga ochiq-oydin qarshi chiqdi. Mulk aslida cherkovga emas, millatga tegishli ekanligini ta'kidladi. Shu tufayli zalning bir tomoni gulduros qarsaklar, bir tomonida haqoratli so'zlar boshlandi. Byuzo eng murakkab masalani ko'targan edi. Uning e'tiroficha ruhoniylar ko'rsatmasiga binoan qavm pashishlari(cherkov xodimlari) uchun millatdan "ozroq ulush" ko'paytirishni so'raganligini aytdi. Shu sababli ruhoniylar ma'lum ma'noda millatning cherkov mulklariga haqqi borligini o'zlari ham e'tirof etgani edi.⁶²

Graf Mirabo esa navbatdagi yig'ilishda cherkov desyatnasi masalasini muxokamaga qo'ydi. Minbarda u o'zidan oldin so'zga chiqqan notiqning fikrlariga qo'shilib unga hech qanday qo'shimcha shart emasligini ta'kidladi. Faqatgina desyatina bilan bog'liq VII moddaga fikr bildirdi. "Bu shunchalik jabrli soliqki agar bizlar muqaddas burchimizni o'zgartirgan holda shundayligicha yoki shunga yaqin qoldirsak bu zulmdan bo'lak narsa emas. Faraz qilaylik bir bo'lak yerning hosili 12 bog` bug`doyga teng. Yer ishlovi, urug'i, ssuda, o`rim, xo`jalikni yaxshilab turish va boshqalar teng yermiga yani olti bog`ga teng kelsin. Qirollik

⁶² Свобода, равенство, братство; Великая французская революция: документы, письма, речи, воспоминания, песни, стихи/Сост. О.Куцова, С.Коротков. Лг., 1989. С. 112.

solig'i hosilning sakkiz qismiga yani 1,5 bog'ga teng. Qirol solig'ining ikkilamchi to'lovi 1,5 bog'ga teng. Shundan desyatina yig'uvchiga 1 bog'ini beradi. Demak hosilning sof ikki bog'i dehqonga qoladi. Bu keltirilgan misolda hech ham qo'shilgan joyi yo'q. Bu o'rta holda yashovchi dehqonning hayotidan misol.⁶³

Har bir daladan ancha somonning olib ketilishi yerni o'g'itdan judo qiladi. Uning ustiga desyatina juda ko'p mulk turlari kanop, mevalar, zaytun, hayvonlar, hatto somon ham kiritilgan. Bu dehqonni xonavayron qiladi. Shular hisobga olinsa mulkka soliq qanchalik og'ir ekanligini sezasizlar. Mulkni tegishli idoralar musodara qiladi bunga ruhoniylarning haqqi yo'q. Shunday qilib desyatina ruhoniylarning yillik daromadi edi. Undan foydalanishni qirol buyrug'iga binoan o'zgartirish mumkin edi.

Aslini olganda desyatina mulk deb qarash kerak emas, bu soliq ruhoniylarning foydali jamoa ishlari uchun beriladigan to'lov, shu to'lov hisobiga millat, uning axloq va maorif rivojiga qo'shgan ulushi uchun to'laydigan haqdir." Shundan keyin ruhoniylar orasida shovqin ko'tarildi. Mirabo so'zini davom ettirib, bu ruhoniylar g'ururiga tegadi deyish mumkin. Lekin inqilob haqqoniy va oliyjanob tuyg'ularni yuzaga chiqardi. Endi eski dunyoqarashlarni bartaraf etish kerak. Men jamiyatda yashashning uch turini bilaman - qashshoq, o'g'ri yoki mehnatkash. Mulkdorlar bular jamiyatning iqtisodchilaridir.⁶⁴

Qanday bo'lmasin axloq va ta'lim xizmatchilari jamiyat hayotida faxrli o'rin olishi kerak. Ularning egallagan o'rni va ahamiyatiga qarab taminlash to'g'ri va oqilona bo'lar edi. Lekin ularga mulkdor sifatida ziyon keltiradigan soliqni talab qilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Nima uchun desyatina millat tarafidan qo'yilganligi haqida bahslashishlarini bilmayman. U haqiqatdan ham shundaydir va shuning uchun millat uni yo'q qilib boshqacha yo'l tutishga haqli. Millat cherkov desyatinasini yo'q qiladi. Chunki u jamiyatning foydali mehnatining og'ir

⁶³ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 379.

⁶⁴ Олар.А. Култ разума и култ Верховного существа во время французской революции. М., 1925. С. 125.

to'lovi hisoblanadi. Shu bois boshqa osonroq va haqqoniyroq to'lov yo'nalishini qo'llashga haqli.

Bu so'zlarga qarama-qarshi o'laroq Abbat Siyes minbarga chiqib quyidagilarni aytdi: Milliy Majlis desyatina to'lash haqida qaror chiqardi, endi esa siyosatchilar uni to'lamaslikka chaqirayapti. Buni buyruqni chop etishdagi o'zgarishlar deb hisoblash kerakmi? Juda antiqa hazil! Bu yaqindan beri majlisni egallab olgan betartib harakat shamoli qayerdan esayotganligini bildiradi. Bu harakatlarga bizlarning dushmanlarimiz qarsak chalayapti va bu bizning halok bo'lishimizga olib keladi.

Agar cherkov desyatinesi yo'q qilinsa undan nima kelib chiqadi? U to'lanishi kerak bo'lgan tomonda emas to'lash kerak bo'lgan tomon qo'lida qoladi. Desyatina qabul qilingandan buyon biror marta ham sotilmagan yer qolmadi. Men sizlardan so'ramoqchiman. Siz yer sotib olganda u bilan bog'liq burchga - desyatina ega bo'lmaysizmi? Desyatina hozir to'layotgan bironta mulkdorga qarashli emas. Takrorlayman hech kim mulkning bu daromadli qismiga ega bo'lmagan. Shuning uchun hech qaysi mulkdor unga ega bo'lolmaydi. Nega shuncha notiqlardan barchasi jamoat intilishlari haqida gapirdiyu, biron tasi ayrim shaxslar saodati haqida qayg'urishdan nariga o'tmadi? Desyatini ruhoniylar qo'ldan olmoqchi. Nima uchun? Jamiyat foydasiga bu kerakmi? Yo'q faqat mulkdor uni to'lashni xohlamayapti. Soliqni faqat yer egasiga to'lashni xohlaydi. Bu ko'rilayotgan choralar nohaq deb hisoblayman. Desyatina mulkdorning keyingi taqdiri qanday bo'lmasin to'lanishi kerakligini takidlayman va buning sizlarga taaluqli joyi yo'q. Bu yer beruvchiga nisbatan yo'q qilinsa ham, qarzdor tarafga yo'q qilinishi mumkin emas. To'rtinchi avgustdagi dekretida desyatina to'lanadi degandingiz. Shu bilan sizlar oldinga siljishga qobiliyatlaring borligini bildirdilaring. Endi esa o'zlaringni to'xtata olmayapsizlar. Sizlarga ishonsak desyatina to'lanmay qoladi. U davlatga daromad manbai bo'lmasligi kerak. Sizlar uning yordamida o'zlaringni boyitmoqchisizlar. Soliq to'lovchilar esa dastingizdan qashshoqlashib boradi.

Agar sizlar 4-avgustdagi qaroringiz bilan kifoyalanmasangiz, uni to'liq va butunlay o'zgartirsangiz, boshqa bironta dekretangiz yashashga haqli emas. Har bir siyosatchi moddalarni qaytadan ko'rib chiqishni va o'zgartirishni talab qiladi. Hali hech nima qilinmagan, viloyatlar esa qabul qilingan qarorlarning tez o'zgartirishlaridan hayron bo'lyapti. Agar desyatina chuqurroq tahlil qilinishi lozim bo'lsa Majlisning qaror qabul qilishini kutaylik. Men 4-avgustda qabul qilingan qaror o'zgarishi quyidagicha ifodalanishi kerak deb o'ylayman: Hamma desyatinalar mahsulot yoki pul ko'rinishida ikki taraf roziligi bilan yoki Milliy Majlis qabul qilgan qaror yo'li bilan to'lanadi. Cherkov desyatinalarining to'lov narxi doimiy daromadga aylantirilib qonun bo'yicha tegishli joylarga ishlatiladi.⁶⁵

Milliy Majlisda bahslar shu yo'sinda davom etdi ruhoniylarning talablariga qarshi bir necha inqilob namoyondalari dekret qabul qilish uchun o'z fikrlarini izhor etdi. Shundaylardan biri SH.M.Taleyran edi. U ham cherkov mulklarini milliylashtirish tarafdori edi. U nutqida davlatning ancha vaqtdan buyon katta muxtojlikda ekanligini, buning oldini olish uchun katta mablag' kerakligini takidlab o'tdi. Xalqning real hayotini esa quyidagicha tushuntirdi: barcha mablag'lar tugagan, xalq soliqlar bilan bo'g'ib tashlangan. Yana bitta yengilgina soliqqa ham ularning kuchi yetmaydi. Bu haqda o'ylash ham kerak emas. Bizlarga esa kelajakda tartibni to'liq tiklash uchun mablag' kerak. Bunday mablag' manbai bor. U juda katta va bu bizlarning muammolarimizni hal qilishi mumkin. Mening fikrimcha ularni ishlatish mulkka nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondoshiladi. Buning birdan-bir manbai cherkov mulkida deb bilaman.

Cherkov mulkiga nisbatan jiddiy munosabat, hech bo'lmaganda desyatini rad etish natijasida to'liq xonavayron bo'lgan shaxslarning taqdirini yaxshilashga qaratilishi kerak. Faqat shu sabab bilan ham yer mulkidan daromad oluvchi din peshvolari hademay bu mulkning yirik taqsimotini ko'rishlari mumkin. Desyatina hisobidan yashovchilar esa buning o'rniga nima olishini o'ylashadi. Menimcha, dindorlar mulk egasi emas, boshqa mulkdorlarday cherkov hisobidan daromad

⁶⁵Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 380-381.

olsalarda unga to'liq egalik qila olmaydi. Bu mablag' ularning shaxsiy manfaati uchun emas uning xizmatini bajarish uchun berilgan.

Shak-shubhasiz, millat qanday tabaqaga mansub bo'lishidan qat'iy nazar katta huquqlarga ega. Agar u barcha ruhoniylar tabaqasini yo'q qilishga haqqi bo'lmasa ham, ayrim korporatsiyalarini cheklash huquqiga ega. Agar uni keraksiz, befoyda deb hisoblasa ularning bor mol-mulkiga va imtiyozlariga ega bo'lish huquqini beradi.

Shubhasiz millat benefetsiyalar ta'sisi amrini bajo keltirib, ayrim vazifalarni bekor qilishi ham mumkin. Shu tamoyilga asoslanib millat hozirgi davrdagi ozod mulklarni ixtiyoriga binoan ruhoniylarga berishi yoki boshqa jamoa manfaatlariga ishlatishi mumkin. Shu yo'sinda millat ozod mulklardan kelajakda o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin.

Lekin majlis hozirgi mulkdorlar daromadini qisqartirib, ularga ega chiqa oladimi? Ko'pgina katta obro'li shaxslar millatning shu huquqqa ega bo'lishini rad etganligi ham bizga ma'lum. Ammo hozirgi vaqtda bizlar mavjud dalillardan kelib chiqib xulosa chiqarishimiz lozimki, bu masala bizlarning desyatina haqidagi dekretimizda o'z ifodasini topgan. Bu qarashlarga qarshi keltirilgan fikrlarga ham bir qancha tanqidiy dalillar keltirishga asos bo'ldi. Shulardan eng oddiyiga majlisdagilar e'tiborini qarataman. Qonun muxofazasida mulkka ega bo'lish huquqi qanchalik daxlsiz bo'lmasin bu qarashlar mulk tabiatini o'zgartira olmaydi. Cherkov mulkiga nisbatan ishlab chiqilgan qonun hozirgi mulkdorlarga faqat benefetsiy asoslovchi akt bo'yicha nima berilgan bo'lsa shunga egalik qilishi hammaga ma'lum. Cherkov mulki to'g'risidagi qonun hujjatlarida ham, cherkov qonunlari ham tushuntirib berishi aytilgan: benefetsiya olgan shaxsga faqat yashash uchun kerakli darajada mulkning bir qismi o'tishi hammaga ma'lum. Bunda aytilishicha qolgan daromadning bir qismi kambag'allarga tarqatish uchun va ibodatxonalarni saqlash uchun berilgan.⁶⁶ Agar millat mulkdorni kerakli darajada taminlab bersa, u shaxs mulkiga tegingan deb hisoblanmaydi. Agar millat

⁶⁶ Захер Я.М. Французская революция в документах: 1789-1794. Л., 1926. С.140.

bunga to'la haqli holda boshqa qismlarga ega chiqib hamma burchlarni o'ziga olsa: kasalxona va yetimxonalarni ta'minlash, ibodatxonalarni ta'mirlash, xalq ta'limi harajatlarini majburiyatlarni ham bajaradi. Mabodo millat bu mablag'dan faqat umumiy talofat ko'rgan holda foydalansa ta'sis qilingan qonunlar o'z vazifasini o'tayotgan hisoblanadi. Haqiqat esa qaror topadi.⁶⁷

Shunday holat qaror topganda haqiqat oyoq osti qilinmay millat umumiy talofat vaqtida yo'q qilingan diniy to'lovlarni o'zlashtirishi va ayni paytda har bir ruhoniylar uchun yashash sharoitini yaratib berishi uchun mablag' ajratish kerak; ta'sischilarning umumiy fikriga asoslanib bundan buyon ozod etilgan barcha benefetsiariylar daromadini o'z kamchiligiga ishlatishi mumkin. Keyinchalik ozod bo'lsa ham xuddi shunday yo'l tutishi kerak. Benefetsiy egalarining daromadlari ma'lum miqdordan oshib ketsa majburiyatlarning bir qismini o'ziga oladi.⁶⁸

Vaqt o'tgan sayin ruhoniylarning ahvoli taranglashib bordi. Ular endi doimgidan ko'ra faollashib bordilar. Mavjud huquqlarini saqlab qolish uchun tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatdi. 13-oktyabrdagi ta'sis majlisida cherkov nomidan abbat Mori ma'ruza tayyorladi. U majlisda agar qora va oq ruhoniylarning to'liq xonavayron bo'lishi o'ylab ko'rilganda edi, qarorning yengilmas kuchi bilan kurashishga hojat qolmay, bizlarga jim turish va itoat etishdan boshqa chora qolmas edi. Qabul qilingan qarorni o'zgartirishga urinmaslik kerak deya ta'kidladi. Qaror ustida muhokama olib borishdan foyda yo'q. Biz bu yerda faqat mulohazalar bilan ish tutayapmiz. Avvalo hozirgi notinch zamonda din prinsiplari tushkunlikka duch kelgani hokimiyat asosiga putur yetkazdi. Omma boshqaruv tizimining jamiyatga ham, dinga ham ziyon yetkazayotgan turli qarashlar bilan birga Jeneva tinchligini buzgan fuqaro J.J. Russoning "Jamoa shartnomasi" boblarining qiroлга tasdiqlanishini kutayapti. Kuchli inqiroz davrida, xudodan yuz o'g'irgan bir zamonda bizlar Ta'sis majlisiga haqiqatni eslatib o'tishimiz mumkin. Bu ham bo'lsa qonunning ishonchli ustuni-dindir. Bu siyosiy tamoyilga o'zlaring ham baho

⁶⁷ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, под ред. А.В.Адо. М., 1990. С. 380-382.

⁶⁸ Захер Я.М. Французская революция в документах: 1789-1794. Л., 1926. С. 141.

berdilaring yani to konstitutsiya qabul qilinmagunga qadar pul mablag`lari masalasiga teginmaslikka.⁶⁹

Konstitutsiya - bu ulug` asar. Xalq sizlardan donishmand bo`lishingizni kutayapti. Sizlar esa davlat dini haqida biror jo`yali qaror qabul qilmadingiz. Faqat dindorlikning siyosiy holati haqida bahslashasizlar. Aytish mumkinki milliy din davlat qonunchiligining asosi bo`lishi kerak va buni hamma anglashi lozim. Toki yepiskoplar dindorlarni yetalab mulkka o`zining qadimiy huquqi borligini sizlarning qarshingizda isbotlab yurmasin. Haqiqatdan din xalqning yolg`iz axloqi bo`lib, qadimgi ibora bilan aytganda u jamiyat oldida insonning birinchi burchidir.

Bu munozaralarni va ruhoniylar harakatini qoralab Le-Shepel'e o`zgacha fikrlarni taklif qildi. “ Men majlisda bizning dushmanlarimiz, bizning mulkimiz degan so`zlarni rohiblardan eshitib lol qolayapman. Masala quyidagicha ayrim mulkdorlar millat mulkiga to`lkiq egalik qilish huquqini olishi mumkinmi?”⁷⁰ U majlisga ikkita taklif kiritdi.

1. millat nuqtai nazaridan yondashilsa menmort huquqi bo`yicha unga ega bo`lganlar mulkdor emaslar. Har qanday muassasa davlat rivoji uchun millat tarafidan yaratilgan. Har bittasiga mablag` ajratilib topshiriq berilgan. Shu jumladan ruhoniylarga ham.

2. Ruhoniylar hech qachon mulk egasi bo`lmagan, faqat boshqaruvchi bo`lganlar. Lekin bu korporatsiya, bu tabaqa yo`q bo`ldimi? U ulug` inqilob yaratgan xarobalar ostida qoldi. Endi faqat tarix bisoti sifatida unga baho berish mumkin. Millatchi u mulkdormi? Cherkov kimning sharafiga ibodat qiladi? Millat uchun. Kimning yetishmovchiligi uchun mulk berilgan edi? Diniy marosimlar uchun, ayrim shaxslar uchun emasdir. Diniy marosimlar kimga qarashli? Millatga. Muxtojlik bo`lgani uchun sizlardan daromadingizning bir qismini olishdi. Bu sizlarning roziligingiz bilan deyapsiz. Lekin daromaddan sovg`a qilishga sizlarning haqqingiz yo`q, chunki u sizga to`liq qarashli emas. Qirol bu mablag`ni sizdan

⁶⁹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 383.

⁷⁰ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 384.

millat uchun oldi, chunki mablag` millatga qarashlida. Shunday ekan xalq manfaati birinchi qonundir.

Shuning uchun bu tamoyillarni dekretlashtirishga shoshilish kerak. Buni millat manfaati va konstitutsiya talab qilmoqda. Busiz konstitutsiya mavjud bo`lolmaydi. Davlatni qutqarish uchun tabaqaga bo`linishni yo`q qilmoqchi edingiz. Lekin ruhoniylar o`z mulklarini saqlab qolishsa, ruhoniylar tabaqasi yo`q bo`lmagan deb hisoblanadi. Bugundan boshlab ruhoniylar ham fuqaro bo`lishsin. Agar men dindor bo`lganimda pulni abbatlardan olgandan ko`ra millatdan olishni afzal ko`rardim.

Ruhoniylar diniy marosimlarga, kambag`allarga ajratilgan mablag`dan sovg`a ulashmoqda. Bu bizga qo`yilgan tuzoq bilan barobar, chunki ruhoniylar bu mablag`lar orqali tiklanib yana tabaqa bo`lib olmoqchi.

Bunday qattiq tortishuvlardan keyin vaziyat qaror qabul qilishni talab qildi. Inqilobiy vaziyat shuni taqozo etmoqda edi. Nihoyat cherkov mulkini millat ixtiyoriga o`tkazish haqida dekret e`lon qilindi. 1789-yil 2-noyabrda ta`sis majlisi bu muammoni dekret chiqarish bilan to`liq hal etdi. Dekretning birinchi moddasida “Cherkovning hamma mulki millat ixtiyoriga o`tadi va u kerakli darajada ibodatxonalarni mablag` bilan taminlaydi. Ruhoniylar va kambag`allarni o`z qaramog`iga oladi. Bu ishlarining bajarilishi haqida viloyat ko`rsatmasiga asosan nazorat ostida amalga oshiriladi ” deb belgilandi. Ruhoniylar yashash uchun kerakli bo`lgan pul hajmi yiliga 1200 livrdan oshmaydigan bo`ldi. Uy va atrofdagi bog` bundan mustasno.⁷¹

Barcha fuqarolar teng deb e`lon qilinganidan so`ng lavozimlar va huquqlar borasida ham yagona xulosaga kelindi. Shundan so`ng katolik bo`lmagan shaxslarni har qanday fuqarolik va harbiy lavozimlarda ishlashga ruxsat berilgani haqida dekret chiqarildi. Unga ko`ra yahudiylar masalasini to`liq hal qilmasdan va ularning fuqarolik holati haqida qarorlar chiqarish huquqini o`z ixtuyorimizda qoldirgan holda, fuqarolarning saylanish huquqi chegaralanishi konstitutsion

⁷¹ Сборник документов по истории нового времени буржуазные революции XVII-XVIII вв. Подред. В.Г.Сироткина М., 1990. С. 182.

dekretlarda belgilab, so`ng Milliy majlis quyidagicha qaror chiqardi: birinchidan Milliy majlis dekretlarida ko`rsatilgan shartlarni inobatga olgan holda katolik bo`lmagan har qanday fuqarolar ma'muriy lavozimlarga saylanishga haqli. Ikkinchidan, katolik bo`lmaganlar ham har qanday harbiy lavozimga barcha fuqarolar qatori saylanishga haqli.⁷²

Qabul qilingan bu dekret ruhoniylarga qattiq zarba berdi. Ular bor imkoniyatini ishga solib bunga qarshi chiqdilar. Ta'sis majlisida ular qarordan noroziligini arxiyepiskop Buanjele orqali izhor etdi. Cherkov qo`mitaga murojaat qilib Buanjele dinning fuqarolar tabiati va davlat rivoji uchun qanchalik muhim ekanligini ta'kidladi.

Sizlarning cherkov qo`mitalaringiz din dogmalarining mustahkam ekanligini tan oldi. Hamma davrda din o`zining yengilmas ta'limotini olib kelgan va kelajakda ham shunday bo`lib qoladi. Yepiskoplar payg`ambarlarning o`rinbosari, ular ibodatxonalar rasm-rusumlarini bajaradi; din namoyondalari o`z qavmiga Injil nurini olib boradi. Apostollar o`rgatgan. Cherkovlar sog`lom haqiqatlarni qo`llab-quvvatlagan va rivojlantirgan, azaliy qoidalarini taraqqiyot inkor qila olmaydi.

Sizlar bu qadimiy rasmlarigi amal qilmoqchi bo`lsangiz uning tamoyillarini tan olishingiz kerak. Ulardan birinchisi cherkovning hokimligi va qoidalarini tuzishga haqli ekanligi, diniy ishlarda qavm va dinga ishonganlar shu qoidalariga rioya qilish kerak. Iso Masih yepiskop va qavm boshliqlarini muqaddas unvon bilan taqdirlagan. U dini qavmini ogohlantirishni buyurgan. Ularga Masih dini dogmalarini o`qitish huquqi taqdim etilgan, din sirlarini bilishni va cherkovni boshqarishni buyurgan. Lekin u bu huquqlarni qirollarga, magistratlarga va boshqa fuqaroviy hokimiyatlarga bermagan.⁷³

Sizlarga hamma narsani tortinmay buzib tashlashni taklif qilishayapti, lekin bizlar cherkov hokimligi huquqidan voz kecha olamizmi? Bosh cherkov tuzgan qonunlardan ibodatxonalar voz kecha oladimi? Sizlarning dekretlaringiz bajarilishini tartibga keltirmasingizdan yordam berish mumkinmi? Bu narsalar

⁷² Олар. А. Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французкой революции» Пг., 1918. С. 362-363.

⁷³ Хрестоматия по новой истории: (1789-1870)/Соц. А.Ф Ефимов и В.А. Орлов. М., 1941. С. 78.

bizning hukmimizda ekan, bizlar Milliy Majlisning xohishini bajarib yomonlikni yo`qotmoqchimiz. Umummilliy bosh gallikan cherkovini tuzishni taklif etamiz. Uni har tomonlama o`rganib chiqib din manfaati va davlat manfaatlarini o`sha bosh cherkovda yarashtirib ko`ramiz.⁷⁴

Qabul qilingan dekretlar haqidagi xabar darrov ko`pgina mamalakatlarga tarqaldi. Fransiya'dagi voqealarni diqqat bilan kuzatib turgan Rim papasi Piy VI bu xabarni sovuq qarshi oldi. U yashirin konsistoriyadagi nutqida shunday degan edi: Fransiya yevropa davlatlari ichida eng kuchli davlatlardan biri bo`lganligini, lekin fransuz inqilobi tufayli davlat o`z fuqarolari tomonidan ag`darilib, jar yoqasiga kelganini aytdi. Inqilobning birinchi harakatlarida jamiyat boshqaruvida yangi tartib o`rnatishni maqsad qilgan bo`lsa xalqning azob-uqubatini kamaytirish, keyinchalik birdan konstitutsiyadan dinga e`tibor qaratildi. Shu bilan birga zo`ravonlik va qonli tusga kirgan harakat boshlanib ketdi. Biz bu xabarni eshitib xudodan xalqimizga rahm-shavqat so`radik, har kuni ibodat qilib turibmiz. Lekin yovuzlik kundan-kunga kuchayib bormoqda, iltijolarimiz esa xudoga yetib bormayapti.

General shtatlar chiqargan farmonlar dinga qarshi chiqib uni larzaga solayapti. Ular apostol taxtini, huquqini uzurpatsiya qilayapti va ahdni buzayapti. Ularning negiziga yolg`on talimot manba bo`layapti. Unga ko`ra dastlabki dekretlar bekor qilinayapti. Keyingi dekretlarda hamma katolik bo`lmagan kishilar ma'muriy va harbiy lavozimlarni egallashga haqli. Katolik dini bosh din emas, ayniqsa diniy marosimda qasam ichishni tan olmaslik, ikki jinsdagi diniy tashkilotning a'zolari monastirdan ketishga ruxsat berilishi dinga katta shikast yetkazdi.

Cherkov mulki milliatga tarqatildi. Cherkovning asosiy daromadidan biri-desyatina yo`q qilindi. Ibodatxona va mehroblardagi qimmatbaho idishlar o`g`irlab ketildi.

Bizlar fransuz davlati va muqaddas taxt o`rtasida to`liq munosabatlarning uzilishini ko`rib turibmiz, ammo tilimiz lol. Kimga iltijo qilaylik? Yepiskoplar

⁷⁴. Манфред.А.З. Великая французская буржуазная революция. М., Госполитиздат. 1956. С.146.

qo`rqqanidan kafedralarni tashlab ketayapti, ruhoniylar majlis o`tkazish huquqidan mahrum etildi. Qirollik obro`siga putur yetib qirolning o`zi shtatlarga bo`ysunib o`zi dekretlarni tasdiqlayapti.

Butun millat davlatning xotirjamligini va jamiyat baxtini, avliyo Avgustin aytganidek, barcha diniy ta`limotni unutdi. Ular doimo bir-biri bilan yeyishib yotgan faylasuflar qo`liga davlatni topshirdi. Bizlar xalqni gap bilan yo`limizga solib olmoqchi emasmiz, chunki bizning gaplarimiz xalqni battar yovuzlashtirib yuborishi mumkin. Faqat xudoga iltijolarimiz bilan murojaat etib, jim turishdan boshqa ilojimiz qolmadi. Bu nutqimiz bilan qanchalik dinga, apostol tojiga zarba berilganiga guvoh bo`lamiz, lekin bizning jim turishimiz, beparvolik yoki ularni ma`qullashimizni anglatmaydi. Hozirgi davr shuni taqozo qilayapti.⁷⁵

⁷⁵М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С.41-42.

2.2. Cherkov va uning mulkiga doir hujjatlar

Siyosatchilar orasida M.Robespyer eng ashaddiy inqilobchilardan biri edi. U majlislarda radikal qarorlar qabul qilinishini talab qilib chiqardi. O'zi boshchiligida tuzilgan rejani jamiyat va cherkov o'rtasidagi munosabatni oydinlashtiradi deb takidlagi. Ruhoniylar jamiyatda magistratlik vazifasini bajarib dinni quvvatlaydi. Hamma tamoyillar shundan kelib chiqadi. Qo'mita tayyorlagan rejaning uchta qismi shu tamoyillarga o'xshaydi. Hamma davlat lavozimlari davlat tomonidan o'rnatiladi. Ularning maqsadi jamiyat tartibi va baxtini ko'zlashidir. Bu haqiqat oldida jamiyatga kerak bo'lmagan, foydasiz benefetsiy va muassasalar-kafedral soborlar, qavm va yepiskopliklar yo'q qilinishi kerak. Ikkinchidan, cherkov xizmatchilari xalq baxti va farovonligi uchun tuzilgan edi. Bundan chiqdi ularni xalq tayinlashi kerak, xuddi magistratlarni va boshqa davlat lavozimlarini tayinlaganday. Uchinchi, cherkov xizmatchilari jamiyatning baxt-saodati uchun tayinlangan ekan, ular oladigan mablag' ham hammaning manfaati va foydasiga xizmat qilishi kerak, ayrimlarning boyishi uchun emas. Bu mablag' davlat xodimlarining maoshidan oshmasligi kerak. Shuning uchun bizlar kamtarona mablag' ajratamiz, bu kambag'allarga nisbatan shavqatsizlikka yo'l qo'yilmaydi. Shu uch tamoyil ichida qo'mita loyihasining to'liq tasdig'i bor. Bular: birinchidan cherkov lavozimlarida yepiskoplar va kyurelar qolsin, ular soni jamiyat talabiga qarab hisoblanadi. Ikkinchidan, arxiyepiskop va kardinallar lavozimi yo'q qilinadi. Uchinchidan, kyure va yepiskoplar maoshi haqida qo'mita qaror chiqaradi. To'rtinchidan yepiskop va kyurelar xalq tarafidan saylanadi. Bildirilgan bu takliflar hammasi ko'rib chiqilib dekret uchun loyiha tayyorlandi. Ushbu loyiha asosida cherkov lavozimlari va xodimlarning maoshi, turar joyi to'g'risida, benefetsiyalar haqida dekret chiqarildi. Har bir department bir diotsezni tashkil etadi, uning chegarasi departmentnikiga teng. Qirollikning 83 ta departamentida yeparxiyalar markazi tashkil etildi. Qirollik o'nta arxiyepiskop okrugiga bo'linadi, ularning markazi Ruan, Reyms, Bezanson, Renn, Parij, Burj, Bordo, Tuluza, Eks

va Lion shaharlari bo`ladi.<sup>76</sup> Fransiyaning hamma cherkov va qavmlariga, fransuz fuqarolariga kafedralari chet mamlakatlarda, yoki ularning Fransiyada yashovchi vakillari tomonidan tasdiq etilgan bo`lsa har qanday vaziyatda yepiskop va arxiyepiskoplarning hokimligini tan olishi man qilinadi. Har bir diotsezda lavozimga tayyorlovchi bitta seminariya tashkil qilindi. Shaharlarda 6 mingdan kam odam yashasa bitta qavm tayinlanadi, qolgan qavmlar yo`q qilinib bosh qavmga qo`shilib ketdi.⁷⁷

6 mingdan ziyod kishilarga ega bo`lgan shaharlarda har bir qavm diniga sig`inuvchilar sonini ko`proq qilib birlashtirishi mumkin, u yerlarda mahalliy sharoitga qarab qavm saqlanishi yoki yangi qavm tayinlanishi mumkin. Keyingi sessiyada ma`muriy majlislar yepiskoplar bilan birgalikda diotsezlarning qaysi qavmlarini qoldirib qaysisini yo`q qilish yoki kengaytirish, tayinlash haqida xalq ehtiyojini va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda ko`rsatma berishadi. Qavmlarni yo`q qilish haqidagi qaror qabul qilingandan keyin ham ma`muriy majlis yepiskop bilan kelishib qavm cherkov tomonidan qatnash uzoq bo`lgan joylarda kichik butxonalar qoldirilib u yerga bayram va yakshanba kunlari xalqning ilmini oshirish uchun messa xizmatini o`tashga vikariylar yuboriladi. Hamma unvonlar va lavozimlar dekretida ko`rsatilganlaridan tashqari hamma martabalar, kanonitlar, prebendlar, yarim prebendlar, kapellalar, monastirlar qoidalar bo`yicha boshqariladigan va faqat daromad manbai sifatida ishlatiladigan hamma benefetsiyalar qanday maqsadda ishlatilmasin va nomlanmasin dekret chop etilgach yo`q qilinadi va boshqa tayinlanmaydi.

Ushbu dekret chop etilgan kundan hamma yepiskop va kyurelar saylov orqali tayinlanadi. Saylov ovoz berish yo`li bilan ko`pchilik ovoz orqali amalga oshiriladi. Agar yepiskop o`rni vafoti va boshqa sabab bilan ozod bo`lsa, o`sha departamentning prokuroriga xabar berishi shart va ular bildirish xati kelganidan

⁷⁶ Робеспьер М. Избр. Произв.: В 3-х томах/ Сост. А.З.Манфред. М., 1954. С.91.

⁷⁷ Юровская Е.Е. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., 1990. С.98.

so`ng uchinchi bozor kunigacha avvalgi saylovda qatnashganlar orqali yangi yepiskop saylaydi. Yepiskop lavozimiga saylanishi uchun 15 yil davomida diotsezda kyure, vikariy, bosh vikariy va o`quv yurti boshqaruvchisi bo`lib ishlashi kerak.

Ushbu dekret bilan ozod bo`lgan kafedralar, yepiskoplar 15 yillik xizmati bor yo`qligidan qat`iy nazar hozir tayinlanayotgan yoki keyinchalik ozod qilingan yeparxialarga saylanishi mumkin. Diotsez chegaralari o`zgarib boshqa diotsezda xizmat qilgan kyure va boshqa ruhoniylar umumiy saylovga loyiq muddat xizmat qilgan bo`lsa shu diotsezda xizmat qilgan deb hisoblanadi va saylanish huquqiga ega bo`ladi. Shuningdek hozirgi kyurelar bir diotsez qavmida o`n yil xizmat qilgan bo`lsalar, agar vikariy lavozimini egallamagan bo`lsa ham saylanishi mumkin. Xuddi shu holat yo`q qilingan qavmdagi kyurelarga ham qo`llanadi. Qavm yo`q qilingandan so`nggi vaqt ham ularning xizmat vaqtiga o`tadi. Xuddi shunday missionerlar, vikariylar, ruhoniylar, kasalxona va xalq maorifida xizmat qilganlar, din martabasini qabul qilganiga 15 yil to`lgan bo`lsa bosh yepiskoplik lavozimiga saylanish huquqiga egalar. Saylov komissiyasi raisi saylov natijalarini qirolga jo`natishi kerak. Yepiskop lavozimiga saylangan shaxs bir oy mobaynida o`z arxiyepiskopiga, agar arxiyepiskop bo`lib saylangan bo`lsa okrug yepiskopligi oqsoqoliga ko`rinishi kerak. U saylov xabarnomasini topshirib kanonlik konfirmatsiyasi haqida so`rash kerak.⁷⁸

Arxiyepiskop va yepiskop oqsoqol o`zining maslahatchilari oldida saylangan shaxsni axloq masalasida sinovdan o`tkazishga haqli. Agar uning saylangani o`rinli deb hisoblansa kanonlik tayinlanishini oladi, rad javobi berilsa sababini arxiyepiskop yozma ravishda bildiradi. Yangi saylangan papaga murojaat etolmaydi. Lekin u yer yuzidagi butun olam cherkovining boshlig`iga bo`linmas birlik belgisi sifatida va u buni qo`llayotganini bildirish uchun noma yuboradi. Unvon olish marosimi oldidan yangi saylangan shaxs munisipalitet a`zolari, xalq va dindorlar oldida unga berilgan diotsezdagi xudojo`ylar haqida g`amxo`rlik qilishni, millatga qonun va qirolga vafodor bo`lishni, o`z huquqi bilan milliy majlis

⁷⁸ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.394-395.

tasdiqlagan va qiroʻl qoʻllagan konstitutsiyani qoʻllab-quvvatlashi haqida tantanali qasam ichishi kerak.

Distriktda kyure lavozimiga boʻsh oʻrin boʻlsa ham har yili saylov chaqiriladi. Shu maqsadda saylovlar har bir qavmdagi boʻsh oʻringa alohida oʻtkaziladi. Saylanganlar nomlari saylov raisi tomonidan bosh cherkovda shu voqeaga bagʻishlangan tantanali xizmat oldidan xalq va ruhoniylar ishtirokida eʼlon qilinadi.

Xalq ishonchi bilan chaqirilgan xizmat yuzasidan doimiy ravishda bir joyda yashab jamiyatning birinchi va muhim xizmatlarini bajarayotgan ruhoniylarga millat maosh toʻlaydi. Har bir yepiskop va kyurega ularga qarashli cherkov vikariylariga uy-joy berishda vazifasiga oʻsha uy-joyi taʼmirlab turish kiradi. Departamentlar qavm va kyurelardan tushgan arizalarni koʻrib chiqishi shart bundan tashqari ularga maosh ham quyida koʻrsatilgandek toʻlanadi. Qariligi yoki kasalligi sababli vazifasini oʻtolmagan kyurelar department direktoriyasiga xabar berishi kerak. Munisipalitet yoki distrikt maʼmuriyati tomonidan bunga asos boʻlsa kyure saylovini yoki yordamchi vikariy yuboriladi va boshqalar qatori millatdan maosh oladi.

Cherkov xodimlarining doimiy yashash joyi haqida qonun qabul qilindi va bunga barcha ruhoniylar amal qilishi majburiy deb belgilandi. Yepiskoplar, kyure va vikariylar faol fuqarolar boʻlgani uchun birlamchi majlislarda, saylovda qatnashishi mumkin. Ular qonunchilik majlisining saylov boshligʻi va deputati boʻlishi, kommunaning bosh qoʻmitasiga aʼzo boʻlishi, hamda distrikt va departamentlarning maʼmuriy qoʻmitasiga aʼzo boʻlib saylanishi mumkin. Lekin yepiskoplik, kyure va vikariy lavozimlari, mer yoki munisipalitet aʼzosi, distrikt, direktoriya va department aʼzosi boʻlganda ikki lavozim bir vaqtda bajarilishi mumkin emas. Shuning uchun ular saylanganda qaysi lavozimda qolishni tanlash kerak.⁷⁹

⁷⁹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 395.

Qabul qilingan qonunlarning barchasi ham joylarda amalga kiritilavermadi. Xususan inqilob voqealarining eng qaynoq nuqtasi bo'lgan Vandey va De Sevr departamentida eski tuzumni saqlab qolish tarafdorlari kuchli ta'sirga ega edi. Shu sababdan bu yerda qonun ijrosini taminlashda turli muammolar kelib chiqardi. Bu hududlarga yuborilgan fuqaro komissarlari Gallua va Jonsonlar ruhoniylar bilan bog'liq turli muammolar yuz berayotganini Ta'sis Majlisida so'zladi. Vandey departamentida ruhoniylarni qasamyodga keltirishda birinchi tartibsizlik davri boshlandi. Shu vaqtgacha aholi tinch va osuda hayot kechirar edi. Ular dindorlarni osmondan yuborilgan sadaqa tarqatuvchilar deb bilib ularga sidqidildan ishongan edi. Vandey departamenti aholisining ruhoniylarga ishonib bog'lanib qolganligi, ayrim ruhoniylar tomonidan ularning chalg'itilishiga olib keldi va ular isyon ko'tardi. Ayrim ruhoniylar avom xalqni qo'rqitish, aldov bilan chalg'itdi. Sobiq yepiskop Lyoson va oldingi ruhoniylar o'rtasida kuchli ittifoq tuzildi. Hukumat dekretlariga qarshi reja tuzib shu reja hamma qavmlarda amalga oshirilishi kerak edi. Bosh ruhoniy Parijdan noma va varaqalar yuborib butun mamlakatni egallab olmoqchi edi. Doimo xat olib turgani haqida janob Boregar, vikariy Meral, sobiq yepiskop Lyuson so'roq vaqtida bo'yniga oldi.⁸⁰

Yozilgan nomalardan birida Millat Majlisida 7-mayda qabul qilingan dekretda qasamyod qabul qilmaganlarni ruhoniylar safidan chiqarilgan deb e'lon qildi. Aynan shu dekret ruhoniylar fuqaro konstitutsiyasiga qarshi chiqmasa Rim katoliklari va boshqa dindagilarga o'zlari xohlagan joyda din urflarini bajarishga ruxsat beradi. Qonunning birinchi bandidagi pashishlarga berilgan ozodlik aslida qo'yilgan tuzoqdir, chunki cherkovlarni haqiqiy dinga xizmat qilmaydigan bir gala mansabparastlar egallab olayapti. Ular yuqorida turgan shaxslar bilan kelishib dinni noto'g'ri yo'lga boshlaydi deyilgandi.

Yepiskop Lyuson Langr yepiskopiga xat bilan birga kyurelar uchun bir necha banddan iborat qo'llanma ham yuborgandi. Unga ko'ra cho'qingan, nikohlangan va qazo qilganligi haqidagi akti ikki nusxada tayyorlanishi kerak.

⁸⁰ Е.Е.Юровская Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., Высшая школа 1990. С. 146.

Biri qo'lda, ikkinchisi biror ishonchli shaxsda saqlanishi kerak. Bu ro'yxatdan istisno kyurelar qo'lidagi ruxsatnoma 18 sahifalik qo'llanmaga asoslanishi kerak. Bu hujjatlar ikki ishonchli guvoh tomonidan tasdiqlanib, kyure yoki uning o'rinbosari tomonidan muhrlanishi kerak. Agar kyure ishdan olinib o'rniga yangisi tayinlanganda o'z vazifasidan ketmaslikka urinib keyingi voqealarga to'sqinlik qilishi kerak. Kyurelar o'rniga saylangan shaxsning qavm cherkoviga va pop uyiga kelganligi haqida ma'lumot tayyorlab kelgan ruhoniyni hamma ishlariga qarshilik qilgani haqida yozib borishi kerak. Bu ma'lumotlar o'zi, o'rinbosari, imkon bo'lsa qo'shni cherkov rohibi tomonidan tasdiqlanib bu ishlar hammadan sir tutilishi kerak. Haqiqiy yepiskoplarning ruxsatisiz yo'q qilingan qavm rohiblari ham xuddi shunday qarshilik ko'rsatishi kerak o'zlarini qonuniy qavm boshlig'i sifatida ko'rib qavmda qolish imkonini bo'lmasa cherkovga yaqinroq joylashib xudojo'ylarga xizmatlarini sidqidildan bajarishi shart.

Agar inqilobiy rahbarlar, xudojo'y katoliklarning qabristoni boshqalar bilan umumiy bo'lishini xohlamasa va qazo qilgan kishining qarindoshlari maxsus joyda 19-saxifaga asoslanib sun'iy muqaddaslangan joyda marosim bajarilayotgan bo'lsa va eski kyure bu yerda qolishni xohlamasa marosimni o'tkazayotgan yangi kyuredan noroziligi sifatida o'lgani haqidagi hujjatni tasdiqlashi va qabriston darvozasigacha birga borishadi, ammo ko'mish marosimi vaqtida o'zlarini chetga tortishi mumkin.

Yangi tayinlanganlar oldingi kyurelar bilan mansab talashsa, sobiq kyurelar vazifasini bajarayotgan vaqtida hujjatlarga faqat ism-shariflarini yozib, mansabini yozmaslik kerak. Qavm mansabidan ozod etilganlar xudojo'ylarning harakati umuman hamma voqealar bilan qavmni tanishtirib chiqqan dekretlarga qarshi turishga birlashishni so'rardi. Qasamyodni qabul qilgan va qilmaganlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar xalq orasida ham ixtilofga olib keldi. Oilalarda ham ota-bola, eri-xotin ajrashishga tushishdi, munisipalitetlarda tartibsizliklar boshlandi.⁸¹

Vandeyda fuqarolarning ko'pgina qismi milliy gvardiyada xizmat qilishdan bosh tortdi. Norozi bo'lganlar ruhoniylarga taaluqli qonunlarga qarshi bo'lgan

⁸¹ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 431.

xalqni qo'llab-quvvatlashdi. Qasamyodni qabul qilmagan ruhoniylarga yordam berishdi. Qasamyod qilgan ruhoniylar huzuriga 5-12 tagacha odam kelsa, qasamyod qilmaganlar ibodatiga son-sanoqsiz kishilar kelardi. Dindorlar ichidagi ayrim fuqarolar o'rtasida ham siyosiy bo'linish yuz berdi; qasamyodni qabul qilgan ruhoniylar tarafdorlari o'zlarini vatanparvar deb, uni inkor qilgan tarafdorlar o'zlarini aristokratlar deb atashdi. Vandey departamentida 2/3 qismdan ziyod aholi aristokratlar tarafiga o'tib ketdi. Shunday qilib Vandey departamentidagi holat o'zgacha edi. Bu yerda qasamyodni qabul qilmagan ruhoniylarning tanobini tortib qo'yishni Ta'sis Majlisidan talab qila boshladi.⁸²

Vandey departamenti baribir notinch hududlardan biri bo'lib qolaverdi. Sen-Flur direktoriyasi okrugida ham g'alayonlar boshlandi. Olomonni tarqatish uchun komissarlar tayinlandi. Ular Oradur qavmiga yetib borib shaharga kirganida hamma joy osoyishta edi. Lekin karvonsaroylarda Gondej va Sezen qavmlaridan kelgan fuqarolarga yig'ilishgani noqonuniy ekanligini tushuntirishganida, ular ruhoniylarning kirdikorlaridan charchaganliklarini, oilalarida notinchliklar kelib chiqayotganini va tug'ilgan go'daklar ro'yxatga olinmayotganligi, ozod qilingan ruhoniylar xalqni qarg'ish va qo'rquv bilan qo'lga olayotganini aytishdi. Ularni tartibga chaqirib, qonun-qoidani tushuntirgach, fuqarolar tarqala boshladi, lekin gaplarining oxirlarida ozod qilingan ruhoniylar nomini qoralab fuqarolar urushi boshlanishi mumkinligiga shama qilishganida, g'alayon boshlanib ketdi. So'nggi qaror eshitilgach qon to'kilishini xohlamasliklarini va "yashasin millat, yashasin qonun, yashasin qirol"- deya uylariga tarqalishdi.⁸³

Komissarlar ishni hal qildik deb turganida, Perfor va Polben milliy gvardiya shaharga kelayotganini eshitdi. Ular Bibi Maryam qavmini himoya qilish uchun kelishayotgandi. Ma'lumotlarga ko'ra, qasamyodni rad etgan ruhoniylar mish-mish tarqatib tayinlangan kyurega qarshi fitna uyushtirgan. Xabar topgan harbiylar harakatga keltirilgan.

⁸² Революционное правительство во Франции в эпоху Конвента: (1792-1794): Сб. докум. и материалов /подред. Н.М.Лукина. М., 1926. С.64.

⁸³ Мягкова Е.М. "Из принципа гуманности" Террор и Вандея. Новая и новейшая история. 5-сон. 2003.

Komissarlar ko`rgan choralar bilan olomon tarqatildi, harbiylar ortiga qaytarilgan va tinchlik o`rnatildi. Lekin bunday hodisalar davlatning turli qismlarida ham bo`lib turardi. Tinchlik faqat qasamyodni qabul qilmagan ruhoniylar xalqni yo`ldan urib chalg`itmaganida barqaror bo`lishi mumkin edi. Bu xavfning oldini olish uchun turli hududlarga komissiya tasdiqlagan qo`llanmalar yuborildi. Fransiyada din hukmronligi davrida ruhoniylar yordamida bir xil din tamoyillariga amal qilingan, lekin inqilob davrida konstitutsiyani yani franzuzlar “yangi Injili”ni tantanali ravishda e`lon qilishdi va u amaldor shaxslarga xalqning ozodlik tamoyillariga rioya qilishlariga qarshilik qila olmadi. Endi biror bir cherkov marosimlarni yo`llarda ham o`tkazib yo`lni to`sib qo`yolmaydi. Marosim faqat yilning ma`lum muddatida ibodatxonada o`tkaziladi.⁸⁴

Ilmiy tashviqotlar bilan g`amxo`rlik qilib biz uni sog`lom falsafaga topshirib, aql padsholigini kengaytirib, uzoq vaqtdan beri xurofot ostida ezilib kelgan xalq ozod qilinishi kerak.

Xalq tayinlagan jamiyatdagi amaldorlar har xil diniy marosimlarda ishtirok eta olmaydi. Ozod mamlakatda qonuniy marosimdan boshqa hukmron marosim bo`lishi mumkin emas – deyilgan edi 48 ta seksiya qo`mitasiga yuborgan qo`llanmasida.

Tayinlangan ruhoniylar ham tamagirlik qilayotgani haqida ham ko`plab norozilik maktublari kommuna idoralariga kelib tushayotgandi. Shu sababli Parij kommunasi bu haqda qaror qabul qildi. Barcha fuqarolar ikki ruhoniylar ishtirokida dafn etilishi mumkin. Marhumning eshigiga yoki cherkovga qora xoch ilinmasin. Cherkov oqsoqoliga berilgan imtiyoz bekor qilindi.

Bosh qo`mita xalq qo`zg`oloni tufayli tenglikni o`rnatdi. Bu tenglik hamma joyda bo`lishi kerak. Hozirgi vaqtda dafn etish marosimi bu muqaddas tamoyilga qarama-qarshi bo`lyapti. Kommuna vakillari bebaho tenglikni tiklab birlashgan holda dushmanlarga qarshi chiqish kerak. Ozod davlatda har qanday xurofot va fanatizm yo`q qilinib sog`lom falsafa va toza axloq bilan almashtirilishi kerak. Boy

⁸⁴ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 394-395.

va kambagʻallar qonun va aql-idrok oldida teng ekan, demak qabrga ketayotganda ham teng boʻlishi kerak. Shuni eʼtiborga olgan holda kommuna prokurori quyidagicha qaror qildi, bosh qoʻmita tasdiqladi:

1. oldin qabul qilingan qonunlar boʻyicha shahar ichidagi qabristonlar yopilib shahar devoridan tashqariga chiqariladi.

2. bu dekret eʼlon qilingandan boshlab bir xil tarzda dafn marosimlari oʻtkaziladi.

3. mayitni olib ketayotganlardan tashqari ikkita ruhoniyan tashqari diniy xodimlar boʻlmasligi kerak.

4. Har xil mashʼal kortejlari yoʻq qilinsin.

5. millat ruhoniylarga haq toʻlar ekan hech kim dafn va diniy marosimlar uchun boshqa haq talab qila olmaydi.

6. bugundan boshlab cherkovlarga ortiqcha haq toʻlash bekor qilinsin.

7. Choʻqintirish, nikoxlash, dafn etish va boshqa marosimlar uchun haq talab qilgan ruhoniylar ishdan boʻshatilsin.

8. Bugundan boshlab azadorlik belgisi boʻlgan krek (qora mato) marhum eshigi va ibodatxonada ilib qoʻyilmasin.

9. Jamoa yoʻllari hamma uchun ochiq va uni hech kim oʻz maqsadida ishlata olmaydi. Shuning uchun dafn va boshqa diniy marosimlar uchun yoʻlning bir tarafi egallansin, ikkinchi tomoni oʻz yumushi bilan ketayotgan fuqarolar uchun boʻshatilsin.

10. yuqoridagi moddadan faqat ozodlikni himoya qilib jon bergan fuqarolar istisno.

11. Konstitutsiya har xil imtiyozlarni yoʻq qilgani uchun hech kim ibodatxonada maxsus oʻrinda oʻtirmaydi.

12. cherkov kitoblaridan koʻchirma olish vaqtida kyure faqat gerb yigʻimini olishi mumkin.⁸⁵

Shu tariqa Parij shahrida diniy marosimlar va ibodatxona xodimlarining huquqlari tartiblashtirildi. Bu qoidalar aksilinqilobchi ruhoniylarning qarshiligiga

⁸⁵ Документы истории великой французской революции. В 2-х т. т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С. 448-449.

uchradi. Endi ruhoniylar yanada shiddatliroq kurashga kirishdilar. Chunki, agar bu qonunlar amalga oshirilgudek bo`lsa ruhoniylar ayanchli ahvolda qolar edi.

2.3. Inqilob davrida din xodimlarining huquqiy maqomi

Jamiyatni tartibga solish uchun Ta'sis Majlisi 1792-yil 26-avgustda qat'iy qonunlar chiqarishga majbur bo'ldi. Qasamyod qilmagan ruhoniylar dastidan qirollikdagi notinchliklar vatan uchun birinchi xavf-xatarni keltirib chiqarishi mumkin deb hisoblandi. Milliy Majlis tashabbusi bilan fransuzlar birlashib tashqi dushmanga qarshilik ko'rsatish kerak. Davlatning ichki tinchligini saqlash uchun xalq o'zi chora ko'rish kerak edi. Shularni inobatga olib Milliy Majlis qaror qildi. Unga ko'ra 1790-yil 27-noyabr, 1791-yil 15-17-aprel dekretiga asoslanib qasamyod qilgan va keyin qasamidan qaytgan yoki qasamyod qilishdan bosh tortgan ruhoniylar bir hafta ichida distrikt va departamentni, ikki hafta ichida esa qirollikni tark etish kerak. Ularning har biri distrikt yoki munisipalitet direktoriyasiga kelib qaysi davlatga ketishini aytishi lozim. Unga darhol pasport, deklaratsiya berilib uning belgilari va yo'nalishlari, hamda qirollikdan chiqib ketish vaqti ko'rsatiladi.⁸⁶ Belgilangan muddatdan so'ng qasamyodni qabul qilmagan, ko'rilgan choralarga qarshilik ko'rsatgan ruhoniylar Fransiya Gvianasiga jo'natiladi. Distrikt direktoriyasi ularni qamab navbat bilan harbiy ijro qo'mitasi ko'rsatgan eng yaqin dengiz flotiga jo'natish kerak. Ruhoniylarni olib ketayotgan kemalar oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan taminlanadi. Dekretga amal qilib davlatni majburiy yoki o'z xohishi bilan tashlab ketayotgan shaxs daromadi va nafaqasidan ayriladi. Yo'l harajatlari uchun kuniga 10 lye masofa yurish hisobi bilan uch livr to'lanadi. To kemaga joylashguncha yoki chegarani kesib o'tguncha bu mablag` davlat hisobidan distrikt kassalari orqali amalga oshiriladi. Chiqib ketishga ariza berib, pasport olib qirollikda qolib ketgan yoki qaytib kelgan ruhoniylar o'n yilga ozodlikdan maxrum etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan choralardan turar joyidagi kommunaning shifokori majruhliligini tasdiqlagan ruhoniylar bundan istisno. Ularga berilgan guvohnoma bosh kengash tomonidan imzolangan bo'lishi shart. Bundan tashqari 60 yoshdan oshgan shaxslar ham bu choralardan ozod.

⁸⁶ Олар А. Церков и государство в эпоху Великой французской революции. Госполиздат Украины. 1925. С. 117.

Istisno bo`lgan hamma ruhoniylar bir departamentdan bo`lsa, ular bosh shaharning biror uyida joylashtirilib politsiya nazoratida turishi kerak. Milliy majlis ko`rgan choralar qonunni buzgan yoki buzayotgan ruhoniylarni jinoyat kodeksida ko`rsatilgan jazodan ozod qilmaydi. Haqiqiy dekret bajarilishi uchun distrikt direktoriyasi departament direktoriyasiga ularning hulqi haqida doimiy ravishda xabar berishi kerak. Departament direktoriyasi unga qarashli territoriyada dekretning bajarilishi haqida vaqtincha ijroiya hokimiyatiga xabar berib turishi kerak. Undan tashqari distrikt direktoriyasi har ikki haftada ichki ishlar vazirligiga departament direktoriyasi yordamida okrukdagi ruhoniylarning qirollikdan chiqib ketgan yoki chiqib ketmoqchi bo`lganlarining ro`yxatini nomma-nom ichki ishlar vazirligiga yuborib turish kerak. O`z navbatida ichki ishlar vaziri Miliy majlisga xabar berishi kerak.⁸⁷

Cherkov xodimlarining huquqlari belgilab berilgandan so`ng cherkov mulki musodarasiga o`tildi. 1792-yil 9-14-sentabr kunlari qonun ta`sis qiluvchi majlis cherkovdagi mavjud kumushlarni zarbxonaga topshirish haqida muxokamaga qo`yildi. Soliq vaziri majlis xohishini bajarishi uchun u saroy va cherkovlardan olingan kumushlarni zarbxonaga tanga chiqarish uchun berilishini talab qildi. Bu talab inobatga olinib qonunlashtirib qo`yildi. Ruhoniylarning maoshi daromad manbai masalasidagi bahs yakunini topmay qoldi. P.J.Kambon kabi siyosatchilar davlat tomonidan beriladigan mablag`ni ham yo`q qilish tashabbusi bilan chiqdilar. Uning hisobicha ibodatxonaga ajratilayotgan mablag` 1793 –yilda yuz mln. ekyuga yetadi. Davlatda esa buncha mablag` yo`q. Shuning uchun moliya qo`mitasi, cherkov kinga xizmat ko`rsatgan bo`lsa o`sha to`lashi haqida buyruq chiqarish taklifini ilgari surdi. Xalqqa buni tushuntirsa xalq 1200 livr o`rniga uch yoki to`rt ming livr to`lasa ham bo`ladi.

Cherkovdan fuqarolik holati hujjatlarini munisipalitet qo`liga berish haqida dekret e`lon qilindi. Unga ko`ra kelajakda munisipalitetlar tug`ilish, nikox va o`lim

⁸⁷ Олар А. Церков и государство в эпоху Великой французской революции. Госполиздат Украины. 1925. С. 119.

haqida aktlar tuzib chiqishadi. Agar bu aktni tuzuvchi shaxs kelolmay qolsa bu vazifani mer, munisipal xizmatchisi yoki bosh kengash a'zosi bajarishi mumkin.

Har bir munisipalitetda uchta kitob chiqarilib har bittasiga alohida tug'ilish, nikox va o'lim qayd etiladi. Ro'yxatlar ikki nusxada bo'lib har bir distrikt hisobiga sotib olingan gerbli qog'ozda bo'ladi va munisipalitet direktoriyasiga yuboriladi. O'sha qayd kitobidagi aktlar va unda berilgan ko'chirmalar tug'ilish, nikox va o'lim qaydi haqiqiylikining isboti bo'ladi.

Dekret chaqirilgandan so'ng bir hafta ichida mer yoki munisipal xizmatchisi kommuna prokurori talabi bilan sud kotibi hamrohligida qavm cherkovlariga, ruhoniylar uyiga, arxivlarga borib kyure va boshqa ro'yxat saqlovchi qo'lidagi hamma ro'yxatlarni inventarlab qo'yishi lozim. Bu ro'yxatlar yopilib muhrlab qo'yiladi. Hamma eski va yangi ro'yxatlar ratushaga ko'chiriladi. Ushbu ro'yxatlar ratushaga ko'chirilgach faqat munisipalitetlar tug'ilish, nikox va o'lim aktlarini tuzish va saqlashga haqli bo'ladi. Boshqa shaxslar bu ishga aralashishi mumkin emas deya ko'rsatildi.⁸⁸

Yakobinchilar klubi masalaning hal qilinishini doimo keskin qo'ygan. Ular ruhoniylar borasida ham ayovsiz fikrlarni ilgari surardi. Kambonning majlisdagi taklifi xabari Yakobinchilarga yetib kelgach, klub majlis chaqirdi bu majlisda ikki masala ko'rildi. Biri ko'char mulk solig'ini va patent yig'imini yo'q qilish haqidagi; ikkinchisi din xizmatchilarining maoshini diniy obshina hisobiga o'tkazish haqidagi masala. Yakobinchilardan Bazir so'zga chiqib: bu loyihaga qarshi ekanligini bildirdi. Uning fikricha, bu dekret haqiqatdan ham ayrim mablag'larni tejab qolishi mumkin, ammo yangi g'alayonlar manbai ham bo'lishi mumkin. Bu loyiha amalga ohsa qanchadan-qancha ruhoniylarni yashash uchun mablag` topolmay, mehnat qilolmay, qaroqchilikka majbur qiladi. Toki oxirgi ruhoniylar kampir o'lmaguncha bu loyiha qon to'kilishidan boshqa narsa bermaydi. Yana ham biz qirol ustidan sud qilmoqchi bo'lgan vaqtda xalq bizdan yuz o'girishi mumkin.⁸⁹

⁸⁸ Документы истории великой французской революции в двух томах, том-1. М., 1990. 411-б.

⁸⁹ Робеспьер М. Избр. Произв.: В 3-х томах т.1./ Сост. А.З.Манфред. 1954. С.87.

Ammo ko`pchilik bu taklifga qarshi chiqdi. Masalan Shabo “Huquq deklaratsiyasi bo`yicha fuqarolarning dinga ajratadigan mablag`i ozodlikka qilingan tajovvuz deb hisoblanadi ”-deb eslatib o`tdi. Shuning uchun fransuz millatining rivojlanishi darajasini oshirib ruhoniylarsiz yashashga o`rgatish kerak mazmunidagi gapni aytdi.

Lerua esa bu ikki qarashni muvofiqlashtirish yo`lini tutish kerak degan taklifni kiritdi. Uning fikriga ko`ra qishloq aholisi va qisman shaharliklar juda xudojo`y shu sababdan agar ularni xalq to`laydigan obshina hisobiga qo`yib qo`ysa, jahlg`a mingan ruhoniylar xalqni qo`zg`atib Respublikani beshigida yo`q qilishi, fuqarolar urushini boshlab yuborishi mumkin. Ruhoniylarga xuddi yovvoyi hayvonlarga munosabatda bo`lganday munosabatda bo`lish kerak. Ularni jahldan tushurish uchun xo`rak tashlash kerak degan fikrni izhor qildi.⁹⁰

Yakobinchilar orsida hayotga real ko`z biilan qarab, jamiyatdagi hodisalarni to`g`ri baholay oladigan va siyosiy masalalarning yechimida shoshmasdan ish ko`radigan mashhur arbobi J.Danton edi. Uning harakatlarida biz vaziyat kelmaguncha qaltis harakatlarni amalga oshirmaslikni maqbul topganini kuzatishimiz mumkin. U kengashda quyidagi fikrlarni aytgandi: falsafa tamoyillarini hayotga kiritib Fransiya aholisini to`lqinlantirib yuborish mumkin, lekin xalq bu tamoyillarni qabul qilishiga hali tayyor emas. Royalist va mutaassiblar ozodlikka qarshi xalqda nafrat uyg`otmoqda. Falsafa g`oyalari menga qadrli, lekin qashshoq inson boyvachchaning xohlagancha yayrab yashashini ko`rib hech bo`lmasa u dunyoda bu dunyodagi azobi uchun rohat ko`rishiga ishonadi.

Xalqning ko`zini ochib, o`qitib haqiqiy dinning bahosini tushuntirib keyin o`zgarishlarni kiritish kerak. Xalqqa oddiy va aniq qilib ayting “Baxtli bo`lish uchun ruhoniylar sizlar kerak emas deb hisoblamaganlaricha ular sizlar bilan qoladi.” Albatta Dantonning bu taklifi o`sha davr Fransiya hayotini to`g`ri tahlil qila olganligidan darak beradi, chunki hech bir ijtimoiy jarayonda hodisalar tezlik

⁹⁰ А.Олар, Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918. С. 320.

bilan birining o`mini ikkinchisiga bo`shatib xalq kayfiyatini zudlik bilan o`zgartirib yuborgan emas.⁹¹

Yuqoridagi masalalarga oydinlik kiritish uchun 1793-yili Konvent dekret qabul qildi. U Fransiyaning tinchligini ta`minlashi kerak edi. Ruhoniylar, sobiq dvoryanlar, senorlar, josuslar va shu shaxslarning uy xizmatkorlari, shuningdek chet elliklar, eski tuzumda biror lavozimda ishlaganlar, jamoa ishlarini bajarganlar inqilobdan keyin buzg`unchilik qilganlarni qo`llab-quvvatlaganlikda ayblangan bo`lsa va suiqasdda, talon-tarojlikda, yong`in chiqarganda ayblanganlar o`lim jazosiga tortiladi. Qamoqda saqlanayotgan boshqa jinoyatchilar masalasini ko`rib chiqish Milliy Konvent keyinchalik takliflarga asoslanib dekret chiqarishga qaror qildi.

Bir oydan so`ng ruhoniylar masalasi yana Konvent kun tartibiga qo`yildi. Milliy Konvent dekreti bo`yicha oq va qora ruhoniylar safidagi hamma din unvonidagi shaxslar, monaxlar, ularning shogirdlari, birodarlikka qo`shilgan shaxslar 1792-yil 15-avgustdagi qonuniga ko`ra ozodlik va tenglik qasamyodini qabul qilishidan bosh tortgan bo`lsa kemalarga chiqarilib Fransiya Gvianasiga jo`natilishi yana bir bor eslatib o`tildi. Xuddi shunday jazo kantonning oltita fuqarosi xufiya xasbariga ko`ra fuqarolikka qarshi chiqqan shaxslarga ham qo`llanadi. 23-martdan keyin qabul qilingan qasamyod haqiqiy deb hisoblanmaydi. Ular orasida oltmishdan oshgan qariyalar, majruh va kasalmandlar yo`lga yaramaydiganlari bo`lsa departamentning markaziy qismida bir hafta ichida joylashtiriladi. Birinchi va ikkinchi moddalarga binoan surgun qilinganlar respublika territoriyasiga qaytishsa yigirma to`rt soat ichida o`lim jazosiga hukm qilindi. Yepiskoplar, avliyolar, vikariylar qasamyod qabul qilib xalq tomonidan saylangan bo`lsa vazchilar dindorlar biron ma`muriy lavozimda bo`lsa, dindorlar armiya yoki lagerlarda bo`lsa, bu dekretidan tashqarida hisoblanadi. Qabul qilingan bu dekret ruhoniylarga qattq talabni qo`ydi. Shundan keyin vatanini tark etishni

⁹¹ А.Олар, Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918. С. 319.

istamagan dindorlar qasamyodni qabul qildi yoki umuman dindorlikdan voz kechdi.⁹²

Ushbu holatdan keyin departamentlarning xalq vakillari mahalliy sharoitiga qarab ruhoniylarga munosabatda bo'lishni Konventdan so'radi. Masalan, Somma departamentining Milliy Majlisdagi vakili A.Dyumon o'z nutqida eski ma'muriyat o'rniga yangi ma'muriyat saylanganida ikki ruhoniylar ham qabul qilishini so'radi. Dyumon kafedraga chiqib din yo'qligini, ruhoniylar xalqni aldaganini aytgandi. Ruhoniylar ham buni tasdiqlashib faqat aql va yurak dini borligini aytganini e'tirof etdi. Xalq qarsak chalib "Yashasin konvent", "biz qutqarilib qoldik"⁹³ - debdi. Dyumon hamma misdan bo'lgan cherkov buyumlarini pushka yasash uchun topshirgandi. Dyumon ana shunday keskin siyosatchilardan edi. Buni uning nutqidan bir necha kun keyin markazga yo'llagan xatidan ham bilsa bo'ladi. Xatda u cherkov bayramlari va yakshanba kunida marosim o'tkazgan ruhoniylarni qamoqqa olgani, xochlarni yoqqanligi va uch ruhoniyni surgun qilgani haqida yozgandi. Xatini "respublika yo o'lim"- deb tugatgandi.

Uning bunday qattiqqo'lligi konventda ham A.Dyumonning ruhoniylarga va dindorlarga nisbatan yumshoqroq munosabatda bo'lish kerakligini uqtirdi. Chunki bunday keskin harakatlar hali mustahkam o'rnatilmagan yosh hukumatning mavjudligiga putur yetkazishi mumkin edi. Shu munosabat bilan Jamoa qutqaruv qo'mitasi A. Dyumonga Sommaga va Uaz departamentlariga ko'rsatmalar yozilgan xatni yubordi. Unda "bizningcha sizning oxirgi harakatlaringiz katolik diniga qattiq zarba bo'lib tushdi. Fransiya xalqining bir qismi, ayniqsa janubda aholi hali eski aqidalarga moyil. Fuqarolik urushi boshlanib ketmasligi uchun ehtiyot bo'lib harakat qilish kerak va inqilob dushmanlarining gap-so'z qilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ammo ruhoniylarni yoppasiga ochiq ta'qib qilish kerak

⁹² Янги тарих 3 томлик. 2 том., Т., 1960. 56 б.

⁹³ Е.Е.Юровская Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., Высшая школа 1990. С.141.

emas.⁹⁴ - deb tugatilib tagida Kollo d'Erbua, Robesper, Karno va Biyo-Varenilarning imzolari bor edi.

10-oktabrda siyosiy ma'ruzasida Fushe butun Fransiya xalqi nomidan so'zga chiqib aholining dinga bo'lgan munosabatini ifodalab berdi. Fransiya xalqi qonun haqiqat va ozodlik bergan imtiyozlar bilan taqdirlanishdan boshqa hech qaysisini qabul qilmasligini, umumiy axloq marosimlaridan boshqa marosim va madaniyatni qabul qilmasligini, suverenitet va respublika qudratdan bo'lak hech qanday aqidani qabul qilmasligini inobatga olgan holda umumiy din qoidalarini qabul qildi. Agar o'sha vaqtda respublika endigina hamma diniy marosimlarni birday bajarishga ruxsat bermaganda barcha dinga sig'inuvchilarga maydon va ko'cha-ko'yda turli matoqlar osib o'zlarining diniy marosimlarini o'tkazishga ruxsat berganida bu jamoa noroziligi va tartibsizligini keltirib chiqarar edi. Bularni inobatga olgan holda Milliy Majlis qaror qabul qildi. Barcha diniy marosimlar faqat ibodatxonada amalga oshiriladi. Respublika bundan buyon biror dinni ustuvor deb hisoblamagani uchun hamma diniy ashyolarni yo'l va maydonlardan, jamoat joylaridan olib tashlanadi. O'z ibodatxonasidan tashqarida ruhoniylar kiyimida yurganlar qamoq jazosiga tortiladi. Har bir munisipalitetda qazo qilgan odam qaysi diniy sektaga qarashli bo'lmasin yigirma to'rt soat, agar to'satdan o'lgan bo'lsa qirq sakkiz soatdan so'ng umumiy qabristonga olib boriladi. Ustida uyqu shakli tushirilgan yoping'ich, atrofida munisipalitet a'zolari, do'stlari aza kiyimida va quroldosh do'stlari ishtirokida dafn etiladi. Qabriston yashash joyidan uzoqda bo'lib daraxtlar ekilgan bo'lishi kerak. Haykallardan faqat uyqu siymosidagi haykal o'rnatilib qolganlari yo'q qilinadi. Kirish joyida qazo qilganlar ruhiga diniy hurmat yuzasidan "O'lim-bu abadiy uyqu" - yozuvi bo'lsin.⁹⁵

Bunga qo'shimcha shu yili kuzda Parij kommunasi ham ruhoniylarga va har xil diniy e'tiqodlarga nisbatan qonun joriy qildi. 10-oktabrda qabul qilingan qonunga xilof ravishda hali ham Parij ko'chalarida fanatizm va qirol hukmronligi belgisi bo'lgan yodgorliklar borligi haqida bosh kengashga xabar kelgandi. Turli

⁹⁴ Е.Е.Юровская Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., Высшая школа 1990. С.142.

⁹⁵ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.418.

qiyofadagi dinga sig'inishlar qonunga xilof ekanligini, hamda hukumat zimmasidagi diniy va qirol hukmronligini bildiradigan yodgorliklarni olib tashlash kerakligini e'tiborga olib qaror qabul qildi. Sakkiz kun ichida jamoa ishlari ma'muriyati zimmasiga yuqoridagi ashyolarni, hamda gotik uslubdagi fransuz qirollarining haykallari, Parij portalidagi xudoona haykalini olib tashlash yuklandi. Shuningdek Ayiqlar ko'chasidagi Bibi Maryam haykali yo'q qilinsin. Bundan tashqari Parijning turli hududlaridagi kvartallarida diniy tasvirlar olib tashlanadi. Fanatizm va ruhoniylar qurbonliklariga qarshi hamda o'yib yozilgan mar-mar, bronza va boshqa haykallar yo'q qilinishi haqida parlament qarori qabul qilindi. Bosh kengash jamoalarga shunday yodgorliklarni ko'rsatishni, inqilobiy qo'mitaga esa ularni yo'q qilishni yuklaydi.

Kommuna uyi seksiyasida va Bon-Nuvel'da bir ovozdan hamma ozodlik kultidan boshqa hech qanday kult yo'qligini tan olishini takidlagi. Qilingan maruza va takliflarni kengash hujjatlashtirib qo'ydi. Bosh kengash a'zolaridan birining taklifi bilan ozodlik va aql kultidan boshqa kult yo'qligini tan olmaganlarga cherkovdagi butun jihozlarni olib ro'yxat tuzib, zarbxonaga jo'natilmagan buyumlarni sotib ro'yxat va pullarni millat g'aznasiga yuborishga ruxsat beradi. Lombard va Boreper seksiyalariga kengash cherkovlarini yopishga qaror qiladi, chunki ular ozodlik kultidan boshqa kultini tan olmaydi. Xuddi shunday holatni Kenz-Ven, Muzey, Lombard, Gravilye seksiyalarida ham kuzatish mumkin. Kengash hammasini mamnunlik bilan qabul qildi va hujjatlashtirib qo'ydi. Bu gazetalarda chop etilib borildi. 29-noyabr kuni kommuna kengashi prokurori taklifi bilan qaror qabul qildi. Kengash hech qaysi kultga, din g'oyalariga qarshi takliflar, petitsiyalar kiritmaydi. Jamoaga ziyon yetkazilmasa har qanday dinga sig'inish imkoniyatidan mahrum qilmaydi. Fuqarolar uylaridan ruhoniylarga joy ajratib turli in'omlar qilishiga ruxsat berishini ma'lum qiladi. Shu bilan birga ular katolik diniga e'tiqod qilishdan voz kechib aql-idrok, ozodlik kultini qabul qilgan seksiyadagilar xohishini hurmat qilishlari lozim.⁹⁶

⁹⁶ Олар.А. Култ разума и култ Верховного существа во время французской революции. М., 1925. С.121

Milliy Konvent va departamentlarda qabul qilingan qarorlar asta-sekin o`z kuchini ko`rsata boshladi. Turli hududlardan markazga qarorlarning ijrosini ta`minlash borasida bayonotlar berib turildi. Xususan Quyi Sharonta departamentining komissarlari, xalq vakillari J.M. Lekinio va J.F.Leneloning Roshfordagi holat haqida Milliy konventga bergan hisoboti saqlangan. Hisobotda sakkizta katolik mazhabining duogo`ylari va protestant mazhabidan bir rohibning haqiqat ibodatxonasida, sobiq qavm cherkovida bundan buyon faqat axloq tamoyillari va sog`lom falsafa uchun xizmat qilmoqchi ekanliklarini aytib, dindan voz kechganini aytishgan. Ular ichgan qasamlari qat`iyligining ifodasi sifatida diniy yorliqlarini ladanga qo`shib yoqib yuborishgan. Endi shahrimizda faqat axloq xutbasi o`qiladi. Bitta ibodatxona – haqiqat ibodatxonasi bor bo`ladi.⁹⁷

Xalq o`zi aql-idrok shu`lasiga intiladi. Inqilobiy tribunal esa aristokratlarni jazolaydi, sotqinlarni esa gilotina yo`q qiladi. Bundan keyin ushbu hujjatda inqilobga xizmat qilishni bo`yniga olgan ruhoniylarning qasamyodi keltirilgan.

Qasamyod. Biz ruhoniylar Fransiya respublikasi kontitutsiyasi bilan qasamyodga keltirilgan va jon-tanimiz bilan Fransiya qonunlariga sadoqat bilan, hozirgi tuzumni ro`yobga keltirgan, zulmning barcha turlari yo`q qilgan falsafa haqiqatlarini tan olamiz va bizning vatanparvarlik ozodlik va tenglikka muhabbatimiz isboti sifatida bizlarni ruhlantirgan xohishimiz va xalq baxtiga katta yordam berishimiz, qaysi dinga sig`inishidan qat`iy nazar sidqidildan xizmat qilishga va`da beramiz. Hozir kafedrada xalq oldida qasam ichganimizdek haqiqat ibodatxonasida bundan buyon axloqni uqtiramiz, insofli aql-idrok tamoyillariga o`rgatamiz. Faqat sog`lom falsafani rivojlantirib qaysi davlat odami bo`lmasin ularni o`qitamiz. Bir-biriga yordam berishga qo`llab-quvvatlashga va o`zining ozodligini har qanday siyosiy va diniy zulmlardan himoya qilishga o`rgatamiz.

Roshfor. 1-dekadaning so`nggi kuni. 2-oy. 2-yil. Respublika yagona va bo`linmas.

*Imzo: Fransua Masdebor, Kene, Nikola Plyushon, Gyui Bopual.*⁹⁸

⁹⁷ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.422.

⁹⁸ Документы истории великой французской революции. В 2-х т., т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990. С.423.

Odatda har bir ruhoniylar mana shunday mazmundagi qasamyodni qabul qilardi. Shundan keyin ularga ibodatxonalarda va boshqa diniy idoralarda ishlashga ruxsat berilardi.

Marat va Lepelete o`ldirilganidan so`ng ularning xotirasiga turli hududlarda, turli tashkilotlar yodgorlik o`rnatishga qaror qildilar. Masalan: Nogironlar seksiyasining deputatlari respublikachilar Marat va Lepelete xotirasiga byust o`rnatilganining tantanali ochilishi haqida e`lon qildi va konvent deputatlari orasidan vakil yuborishni so`radi. Konvent raisi bu tadbirda qatnashishga rozi ekanligini bildirdi. Taklifnomada “Xalq hech qachon o`z vakillari bilan bunchalik darajada yaqin bo`lmagan. O`z navbatida vakillar ham xalq ularni qanchalik yaxshi ko`rishini inqilob ozodlik alangasi orqali bildirdi. Ichki dushmanlar bizlarni sizlardan ajratmoqchi. Ammo ochilish marosimiga kelgan deputatlar ozodlik uchun yarador bo`lgan faxriylarni va kuchli, baquvvat respublikachilarni ko`radi. Ular biror buyruq bilan emas o`z xohishlari bilan vatan uchun qonini to`kishga tayyordirlar. Ular ozodlik yoki o`limni tanlaydilar.”- deya komissar Derb imzosi qo`yilgan edi. Seksiya xotira marosimini o`tkazishni “Jurnal de deba e de dekret” gazetasida ham e`lon qilib marosimga taklif qilgan edi. U yerga konvent tomonidan deputatlar ichidan o`n ikkita delegati yuborildi.⁹⁹

Bu tadbirdan keyin konvent ham 5-noyabrda yig`ilishida respublika uchun jon bergan inqilobchilarning xotirasini abadiylashtirish uchun chora-tadbirlar ko`rilishi haqida qaror qabul qildi. Unda so`zga chiqqan Maribon-Monto “konvent zalining eng hurmatli joyi vatanga bor kuchini, o`zining bor boyligini va jonini bergan kishiga berilish kerak yani – Maratga” - deya ta`kidladi. Bunga asoslanib ozodlik uchun azob chekkan va jon bergan Maratga yodini abadiylashtirish maqsadida yasalgan byustni faxriy joy egallash uchun Milliy konvent binosining majlisxonasi ustuniga qo`yishga qaror qildi.

Inqilobning dastlabki kunlaridan boshlab kundan-kunga yakobinchilarning ta`siri oshib bora boshladi. Ular qilgan o`zaro majlis natijalari ko`pincha Milliy

⁹⁹ Олар.А. Культ разума и культ Верховного существа во время французской революции. М., 1925. С. 128.

majlisda dekret sifatida qabul qilinishiga olib kelardi. Yakobinchilar hukumat tepasiga kelgach esa vaziyat tubdan o'zgardi. Xususan ruhoniylar qatlami qattiq siquvga olinib boshladi. Ko'p seksiyalar faoliyati tanqid qilina boshlandi. 1793-yil noyabr oyida yakobinchilarning Parij, Limoj va Tyull shaharlari a'zolarining birgalikdagi majlisi bo'ldi. Majlisga B.Monta raislik qildi. Kundan-kunga jamoaga ham, konventga ham kelgan xatlarda asrlar davomida qilgan jinoyatlari uchun ruhoniylar kechirim so'rab, aql-idrok, ozodlik, vatanga muhabbat tamoyillarini qo'llab qasam ichganliklari haqida misollar keltirildi. Aslida esa ular bunga majbur qilinardi. Ko'rsatgan zulmlarini unutishni xalqdan yolvorib so'rashayapti. Kun sayin ularning ichida yaxshilik tomon o'zgarayotganlari borligini ko'rsatayapti.

Shaharlar, hattoki butun qishloqlar so'qir ko'zlarini ochib konvent panjarasiga kelib qasam ichishayapti. Har xil cherkov buyumlarini yashiklab zarbxonalarga topshirayapti.¹⁰⁰

Nahotki Parij o'zining inqilobga sadoqatlilikini bir necha marta isbotlasada, eskilik sarqitlarini ko'mib tashlolmaydi? Parijda ikki xil xalq yashaydi. Biri vatanparvar ko'pchilik bo'lmasada kuchli g'ayratli kishilar. Ikkinchi xalq ko'proq qariyalardan iborat. Ko'zlarini oq qoplagan. Bu xalqni hurmat qilish kerak, chunki ular endi boshqacha bo'lolmaydilar. Lekin ushbu xalq orasida ruhoniylar, moliyachilar bor. Ular inqilobdan keyin munofiq bo'lishdi. Ularni sizlarning qasos, sizlarning adolatli sudingiz zabt etishi kerak.

Gravilye seksiyasi avval vatanparvarligini namoyon etib keyin mo'tadillar ta'siriga tushib qoldi. Hozir esa ularni haydab yana avvalgidek yashay boshladi. Bu seksiya ham davlatimiz kabi hech qanday kultni tan olmasligi va sig'inmasligi kerak.

Bizlarga tabiat inson ko'ngliga solgan axloqiy prinsiplardan bo'lak hech qanday axloq kerak emas. U deydi: Baxtli bo'l-mana senga xudoni sharaflagich haqiqiy uslub, mana sening yerga kelgan maqsading. Bizlarni ruxlantirib, oramizda adashganlarni u to'g'ri yo'lga boshlash kerak, faqat u bizning foydamiz, ularni

¹⁰⁰ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С. 74-75.

o`rganish, egallash kerak. Haqiqat nuri shundaydir, ko`zimiz ochilib oldingi zulmatni endi ko`tara olmaymiz.

Biz boshlagan inqilob xalqning aldanganligini tushuntirib, soddaligimizdan hukmronlik qilish uchun foydalanganligini tushuntirib bergandan keyin tugaydi. Ha, ruhoniylarni adolat sudiga beramiz. Konventga kelsak, u turli mazhablarga erkinlik berish kerak deb hisoblaydi, chunki avlodimizning bir qismi hali zaif. Lekin bir sekta ikinchisiga ustunlik qilishiga yo`l qo`ymaydi. Shuning uchun konventda petitsiya tuzamiz. O`zlarini katolik deb hisoblagan har qaysi okrug seksiyasi aholisi yig`ilib joy ajratib ikki suga xohlagan marosimini o`tkazsin, ammo davlat bunday befoyda va ziyonli odamlarga haq to`lashni to`xtatsin.¹⁰¹

Yana shuni aytmoqchi edimki,-deya so`zini davom ettirdi B.Monto: Men bu yerga bir vatanparvarni olib kelganman. U ig`vo tufayli Konserjeri qamoqxonasiga tushib qolgan, inqilobiy tribunal sudiga topshirilgan edi. U 10-avgust voqealari ishtirokchisi Bernar. Bernar o`zini vatanparvar hisoblab, ig`vo tufayli qamoqa tushib, u yerda uning 10-avgust Kommunasidan ekanligini bilmay nozirlar sentabr to`polonchilaridan bo`lsa kerak deb o`ldirmoqchi bo`libdi. Uni zo`rg`a qutqarib qolishibdi.

Bir fuqaro Parij kommunasidagi cherkov buyumlari zarbxonaga topshirilganligini xabar qildi. Parij yaqinidagi bir nechta kommunalar buyruqni bajaribdi, butun departamentda eskilik sarqitlari qolmagan. Xalq jamoalari Markaziy klublari deputatlari Gravilye seksiyasidagiga o`xshagan odamlarni yo`q qilishni qo`llab-quvvatlaydi.¹⁰²

Tyulldagi kengashda jamoa a`zolaridan biri vatanparvarlarning ko`nglini buzayotgan Tyull kommunasining har burchakdagi xurofot belgilarini buzib tashlashni taklif etdi. To`liq tarkib bilan hamma ko`chaga chiqib Ozodlik ibodatxonasidan Xurofot ibodatxonasiga aqidaparast va adashganlarning yodgorliklarini olib tashlash uchun jo`nadi. Jamoa qaroriga ko`ra jamoadan

¹⁰¹ А.Олар, Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918.320-б.

¹⁰² М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С.97.

chiqarib yuboramiz deb qo`rqitib xotinlarini ham bu operatsiyada qatnashtirishdi, chunki o`sha kun aql va falsafaga bag`ishlandi.

Xurofot ibodatxonasi peshtoqiga “Aql-idrok ibodatxonasi” - degan yozuv ilinishi taklif qilindi. Majlis yakunida yepiskop Brivol lavozimidan kechganini ma`lum qildi. Jamoa qarsaklari bilan uni qarshiladi. Konvent raisi ma`lum qilishicha, Parij departamenti va kommuna tayinlagan hokimiyat binosiga yepiskop Gobel, vikariylari, ketidan bir nechta ruhoniylar panjarasiga kelib ularni tinglashimizni so`rashdi. Deputatsya notig`i Momoro so`ziga qaraganda, kelganlar ustiga xurofot kiygizgan liboslarni yechib, odam bo`lishni xohlayotgan ekan. Ularni tinglab safiga qabul qilishsa ularning ketidan boshqalar ham ergashadi, shunday qilib zulmat o`z tarafdori yordamida chekinadi.

Gobel: men plebey bo`lib tug`ildim, shuning uchun erta ozodlik va tenglikka muhabbatni his etdim. Xalq irodasi men uchun yuksak qonun edi, o`sha irodaga bo`ysunish mening birinchi burchim, xalq irodasi meni Parij yepiskopi qilib tayinladi.

Endi esa inqilob oxirida milliy kultdan, ozodlik va tenglik kultidan boshqa kult yo`qligini tan olib, katolik kulti lavozimidan voz kechdim. Mening vikariylarim ham shuni tasdiqlab, konvent kontselyariyasiga yorliqlarimizni topshiramiz.

Yashasin respublika!

Panjara oldida yig`ilgan fuqarolar majlislar zaliga kiritilib konvent a`zolariga qo`shildi va Gobel boshiga qizil qalpoq kiygizildi.

10-oktabrda yakobinchilar o`tkazgan navbatdagi kengash Limojda bo`ldi. Unda Dyubua, Parijda o`tkazilganidek, Limojda ham spektakl va bayramlar tashkillashtirishni taklif etdi. Fuqaro Nikola bayramlar loyihasini tushuntiradi. Har dekadaning birinchi kunida, havaskorlar tomonidan biror-bir vatanparvar pyesa saxnalashtirishni taklif qildi.

A`zolardan biri Parijdan aktyorlarni taklif qilishni so`radi. Xalq maorifi qo`mitasiga kerakli loyiha tuzish buyurildi. Muqddas Mixail cherkovinijg bosh peshtoqiga “Haqiqat ibodatxonasi”- degan yozuv qo`yish taklif qilindi. Majlis

municipalitetga bayram tashkillashtirib, unga havaskor musiqachilarni taklif etishga qaror qildi.

Milliy konvent II yil 20-bryumer (10.11.1793.) da Parij fuqarolari iltimosiga ko`ra Parij xudoonasi ibodatxonasi bundan boshlab “Aql-idrok ibodatxonasi”- deb nomlanishi haqida dekret chiqardi.

Bundan tashqari barcha tayinlangan ma'murlar, diniy shaxslar va barcha mazhablar xizmatkorlaridan o`z unvonlarini tashlash haqidagi arizalarni qabul qilishga haqlidir. Arizalar ro`yxati tasdiqlangan holda har ikki haftada xalq maorifi qo`mitasiga yuborilsin degan dekret qo`shimcha qilindi.¹⁰³

Diniy tashkilotlarga ajratilgan mablag`larni bekor qilish haqida Parij seksiyalari va xalq jamoalarining konventga yuborilgan petitsiyasini o`qib eshittirildi. Deputatsiya notig`i o`zi ishonmagan marosim uchun bironta fuqaro pul to`lamasligi haqida qonun chiqarishingizni so`raymiz. U marosim uchun hali jodugarlarga ishonganlar to`lasin, respublikachilar faqat ozodlik, haqiqat va aql kultiga ishonishadi. Yolg`on va bekorchilik uchun to`lov to`xtatilish vaqti keldi.¹⁰⁴

Yakobinchilar klubidagi kengashlarning birida M.Robesper quyidagicha nutq so`zlagandi: aqidaparastlardan qo`rqasizmi? U o`ldi. Ruhoniylardan qo`rqasizmi? Ular sizdan ko`ra ma`rifatdan qo`rqadi. Ular o`z libos va unvonlarini tashlab, municipal xizmatchi, mamuriy xodim va xalq jamoa raislari bo`lishayapti. Ularning vatanparvarlik tuyg`ulariga ishonmang. 70 ming livr rentasini olti ming livrga tushurilib, yangi libosni emas, yangi terini qoplaganlardan qo`rqing. Hamma ruhoniylar ham yomon emas, orasida yaxshilari ham bor, ammo ular juda kam. Keyin u ruhoniylar ozodlik nomi bilan ozodlikka qarshi chiqayotganligini aytdi.

Konvent katoliklarni yo`q qildi deb hisoblashayaptilar. Konvent bunday o`ylamay ish qilmasligi kerak. U din ozodligini tan oladi, jamoa tartibini buzayotgan, respublikaga qarshi chiqayotgan, ozodlikni bug`ayotgan

¹⁰³ Свобода, равенство, братство; Великая французская революция: документы, письма, речи, воспоминания, песни, стихи/Сост. О.Куцова, С.Коротков. Лг., 1989. С.66.

¹⁰⁴ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. 76-б.

mazhablargina jazolanadi. Ayrim odamlar dinsizlikni ham qandaydir dinga aylantirmoqchi. Konvent bu siyosiy va xalq organi, nafaqat huquqni, balki fransuz xalqining xarakterini ham hurmat qilishga majburlaydi. Bekordan-bekorga konvent “Oliy mavjudot” oldida “Inson huquqlari deklaratsiyasi” ni e’lon qilmadi.

Balki men ham aqidaparastdurman, lekin xalq nomidan gapirayapman. Dinsizlikni aristokratlarni; jabrlangan bokiralik va tantana qilgan jinoyatni jazolaydigan “Oliy mavjudot” g’oyasi- bu xalq g’oyasidir. Men maktab yoshimdan yomon katolik edim, lekin hech qachon befarq do’st va ayyor inson himoyachisi bo’lmaganman. Men yana ham ko’proq axloqiy va siyosiy g’oyalar bilan bog’lanib, shunday degan bo’lardim: “Agar xudo bo’lmaganida uni o’ylab topish kerak bo’lar edi.” Robesper “Oliy mavjudot” dinini yangi respublikaning g’oyaviy va ma’naviy negiziga aylantirmoqchi edi.¹⁰⁵ Nutqining davomida u fransuz inqilobiga qarshi chiqqan ichki va tashqi dushmanlar haqida gapirdi.

Konvent komissari M.Godfruanng kurtalan qog’oz fabrikasidagi jamoa qutqaruv qo’mitasiga kurtalenda qurollangan olomon cherkovlarning ochilishini talab qilgan. Kulomye atrofida qo’zg’olon to’liq kuchga ega, shu joylarga kuchli va ishonchli komissarlarni jo’natishni so’rab xabar qilgandi. Chunki bunday ahvol qog’oz fabrikasida ishning uzilishiga olib kelgandi. Uning tabiricha cherkovlarni xalqdan so’ramay erta yopib qo’yishdi, hujjatlarda ruhoniylarning xizmatini tashlashga majbur qilingan.

Komissarlar va harbiy kuch tartib o’rnatish uchun kerak; Kulomye meri bu haqda Parij meriga yozgan edi. Yangi kalendarining amalga kiritilishi ham norozilik uyg’otdi, u eski bayramlar yo’q bo’lishiga sabab bo’lgandi. Men xalqqa bu haqda tushuntirdim deya xabarini tugatgandi.

Parij kommunasida ham ruhoniylar masalasi ko’rildi. U ham boshqa siyosiy tashkilotlar kabi dindorlar siyosati borasida ularga o’xshagan qarorlarni qabul qildi. Majlis ishtirokchisi Shomet siyosatchilar orasida to’g’ri qaror qabul qilishda va vaziyatga baho berishda boshqalardan ajralib turar edi. 1793-yili 23-noyabrdagi majlisda u kommunachilarni yangi fitna tayyorlanayotganligi bilan ogohlantirdi.

¹⁰⁵ Янги тарих 3 томлик. 2 том. Т., 1960. 57 б.

Majlisdagilarga qarab: Sizlar suyuqoyoq ayollarni axloq mustahkamligi uchun haydadilaring, ular endi ruhoniylar yordamida ibodatxonalarda majlislar o'tkazib fuqarolar urushi boshlanishiga imkon yaratayapti.

Ruhoniylar har qanday jinoyatga qo'l urishi mumkin, shuning uchun kengashdan shuni talab qilamiz, Parij xalqi aql-idrok hukmini tushunib yetdi va Aql kultidan boshqasini tan olmaydi.

Bu talabga binoan kengash quyidagicha qaror qildi. Hamma din va mazhablar cherkovlari Parijda tezda yopiladi. Har qanday kult ruhoniylari shaxsan din e'tiqodi uchun kelib chiqqan notinchliklar uchun javobgar. Ibodatxonalarning ochilishini so'ragan har kim shubhali deb hisoblanib qamaladi. Inqilobiy qo'mitalar har bir ruhoniyni kuzatuvga olsin. Ruhoniylarga jamoa lavozimlar yoki qurol-aslaxa ishlab chiqarish joylarida ishlash man qiladigan dekret chiqarilishi haqida konvent petitsiya bilan chiqdi.

Shomet boshqa kungi bir majlisda: uning so'zi bo'yicha din g'oyalari va e'tiqod haqida siyosiy majlis bo'lsa ham gapirishga majbur, chunki dushmanlarga shu yo'l bilan o'z quvvatlari va kuchlarini o'zlariga qarshi qilib qo'yishayapti. Shuning uchun ularning qo'ygan tuzog'iga tayyor turish kerak. Kengashga bir qaror haqida gapirdi, u qaror aqidaparastlikni kuchaytirib yuborishi mumkin, chunki inson huquqlari delaratsiyasi va konstitutsiyasiga ham to'g'ri kelmayapti.

Huquq deklaratsiyasining 7-bandida o'z fikri va maslagini chop etib yoki boshqa yo'l bilan aytish mumkin deyilgan, shu sababdan tinchmajlislar va ozod kult o'tashlari man etilishi mumkin emas. Konstitutsiyaning 122-moddasida aytiladi: "Konstitutsiya hamma fransuzlarga ozodlik, tenglik va ozod kult o'tashga kafillik beradi."¹⁰⁶

Mening bunday yo'l tutishimning sababi bu, tajribamdan bilganim odamning eng qimmatbaho narsasi bu e'tiqodi. Bu uchun u baxtini ham, kerak bo'lsa hayotini ham qurbon qiladi, hattoki o'qimishli odamlar ham absurd g'oyalari va e'tiqodidan qiyinchilik bilan voz kechadi.

¹⁰⁶ Олар.А. Христианство и французская революция М., 1921. С.78.

Menimcha, Kommuna Kengashi har xil kultlar haqida bahsni to'xtatish kerak. Dinsizlarmi, katolikmi, protestantmi, kalvinistmi, provaslavmi ular bilan nima ishimiz bor. Bizlar faqat ularning respublikachi ekanligini bilsak kifoya. Undan ko'ra boshqaruv masalalari bilan shug'ullanaylik va unga diniy huquqlaridan foydalanishga ruxsat beraylik. Shunday qilib men quyidagilarni talab qilaman: kengash qaror qilsin, bundan buyon biror bir kult yoki din metafizik g'oyalar haqida hech qanday taklif, petitsiya, fikrlarini tinglamaydi. Kengash yana shuni e'lon qilsinki kult ozodligi o'rnatilgan ekan, kengash hech qachon fuqarolarga, ruhoniylarga uy ijaraga olib kult o'tashga qarshi emas, agar bu ishlar jamoaga ziyon yetkazmasa, qolgan hamma masalaada kengash seksiyalar fikri bilan hisoblashishga majbur etadi. Ko'pchilik ovozi bilan Shometning taklifi qabul qilinadi.¹⁰⁷

Oldingi majlisda har oy oxirida o'tkaziladigan bayram dasturini tuzishni bo'yniga qo'yilgan prokuror kengashga quyidagilarni havola etdi. Uchinchi dekadaning oxirgi kunida mer va kommuna prokurori Aql ibodatxonasiga yo'l oladi, ular inson huquqlarini deklaratsiyasini va konstitutsiyasini o'qib berishadi. Ular urushdan kelgan xabarlarni va oldingi bayramlardan so'ng chiqqan qonunlar bilan tanishtirib chiqishadi. Lavozimidagi shaxslardan birortasi axloq haqida gapiradi. U fuqarolar qaxramonlik fazilatlarini maqtab oxirgi vaqtlarda shunday harakatlar qilingan bo'lsa uni rasmiylashtiradi. O'sha Aql uyida haqiqat qutisi yoki idish qo'yilib uning ichiga fikr, maslahat, mulohazalar tashlanadi. Bu hammaning foydasi ko'zlab yozilgan xatlarda yozganlarning manzili ko'rsatiladi va har dekadada umumxalq orasida mulohaza qilinadi. Majlis respublika musiqasi ostida ashula va vatanparvar madhi ostida yakunlanadi. Aql uyining eshigi oldida ikki tribuna yasalishi kerak va ularda "Og'iroyoq ayollarga hurmat va e'tibor", "Qariyalarga hurmat" - degan yozuv bo'lishi kerak. Kengash bu dasturni qabul qildi va chop etishga buyruq berdi. Bir nechta deputatsiyalar tinglanib ular cherkov buyumlarini olib kelgani haqida ruhoniylar lavozimlarini topshirilgani haqida nutq

¹⁰⁷ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С. 116.

soʻzladi. J. Danton: Lavozimini topshirgan ruhoniylar bu haqda qoʻmitaga eʼlon qilishi kerak, biz bu haqda dekret chiqarganmiz. Ruhoniylarning qaroridan zavqlanish kerak emas. Ruhoniylarning aqidasi uchun hurmat qilmadikmi, endi eʼtiqoddan voz kechgani uchun hurmat qilishimiz kerak emas, biz xalqqa xizmat qilishimiz kerak. Cherkov buyumlarini vatan uchun topshirgan ekanlar buni namoyish qilish yoki oʻlja sifatida qarash kerak emas. Bizning vazifamiz har kuni tugalmas deputatsiyani qabul qilib, bir xil narsani takrorlayverishdan iborat emas. Qoʻmitalar chet el fitnasi haqida doklad tayyorlashi kerak. Bizlar hukumatga kuch bagʻishlashga tayyor turishimiz kerak. Kun tartibida terror masalasi qoʻyilishi haqida xalq adolatli talab qoʻyayapti. Lekin xalq oʻz maqsadiga xizmat qilishni talab qilayapti. U aristokratlarga, munofiq'larga, fitnachilarga va sotqinlarga qarshi qaratilishi kerak. Xalq tabiatdan unchalik kuchli boʻlmasada, lekin bor kuchi bilan vatanga xizmat qilganlar qoʻrquvdan qaltirab yahsashni xohlamaydi. Respublikani tuzib, xalq endi respublika boshqaruviga koʻproq kuch va harakatchanlik bagʻishlash uchun hamma choralarni qoʻllashni talab qiladi.

Bu ulugʻ masalalar ustidan har kuni har bittamiz oʻylab koʻraylik qutqarish jamoa qoʻmitasini mayda –chuyda ishlardan ozod qilib, muhim ishlarga qaratish lozim. Qutqarish jamoa qoʻmitasi xavfsizlik jamoa qoʻmitasi bilan birga tezda fitna ochilgani haqida va vaqtinchalik hokimiyatga kuchli vakolat berish uchun buyruq yozilsin.¹⁰⁸

¹⁰⁸ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. С.119.

XULOSA

XVIII asr fransuz inqilobi o'z davri jamiyati uchun ulkan o'zgarishlarni amalga oshirdi. biz undan oldin yuz bergan va keyin sodir bo'lgan inqiloblar va isloxotlardan uning o'ziga xos tomonlarini kuzatishimiz mumkin.

U jamiyatning barcha sohalarida keskin o'zgarishlarni amalgam oshirdi. Feodal tuzumni umuman barbod qildi. Bu madaniyat va din masalalarida ayniqsa ko'zga tashlanadi. Madaniyat masalasi doim umumxalqqa tegishli tushuncha bo'lgani, undan jamiyatning biror a'zosi chetda bo'la olmasligi nazarda tutilsa va ayniqsa islohotlar amalga oshirilayotgan (xoh inqilobiy, xoh tadrijiy yo'l bilan) bir davrda unga e'tibor doimgidan ham kuchaydi. Chunki inqilobni amalga oshirishda targ'ibot-tashviqotda va xalqqa tushuntirishda, madaniyat sohalaridan unumli foydalanish mumkin.

Fransuz inqilobining boshida turgan siyosatchilar buni teran anglagan holda madaniyat ustidan nazoratni kuchaytirdi. Ayniqsa, madaniyatning muhim sohaları bo'lmish – xalq ta'limi va axborot vositalarining ustidan yurgizilgan siyosatda buni yaqqol kuzatish mumkin. Chunki XVIII asr oxiri fransuz inqilobi yuz bergan davrdagi jamiyatda targ'ibot – tashviqot uchun muhim qurol vazifasini shu ikkisi bajargan edi. Ko'p hollarda xalq noroziligi va namoyishlarga gazetada yozilgan xabarlar: qonunlar, dekret va nizomlarning bosib chiqilishi sabab bo'lar edi. Shu sababdan hokimiyat organlari ularni bir zumga bo'lsada e'tibordan chetdada qoldirmas edi. Qarama – qarshi tomonlar, partiyalar, odatda o'z gazetalariga ega bo'lardi. Ayrim vaqtlarda ular hal qiluvchi rol ham o'ynardi. lekin Robespyer boshchiligidagi yakobinchilar hokimiyatga kelgach, axborot vositalari uchun qat'iy nazorat o'rnatdi. Ularning erkin faoliyati bo'g'ilib senzura yo'l qo'yildi.

Xalq ta'limiga bo'lgan e'tibor ham bundan kam emasdi. Butun bir ta'lim tizimining isloh qilinishi, uni cherkovdan ozod qilib dunyoviy lashtirish inqilobning eng muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Siyosatchilar tomonidan inqilobning dastlabki bosqichlaridayoq unga e'tibor qilishi bekorga emas edi. Chunki inqilob harakatlanishida dastlabki to'siqlardan biri cherkov hisoblanardi. Uni hal qilish siyosatchilar oldida turgan dolzarb vazifa edi. Shuning uchun cherkov masalasi

darhol ko`rib chiqildi va unga tegishli huquqlar Milliy Majlis tomonidan keskin ravishda bekor qilindi. Ko`p hollarda ta`lim – tarbiya cherkov bilan bog`liq faoliyatda bo`lgani uchun ta`lim tizimini undan ajratilganidan keyin, unga g`amxo`rlik qilish dunyoviy tashkilotlarga xususan yangi isloh qilingan hukumatga bog`liq bo`lib qoldi. Shu sababli ta`lim islohoti jadallashti. Siyosatchilar bu masalani hal qilishda akademiya va turli o`quv yurtlaridan yirik olimlarni jalb qilib ta`lim islohotini amalga oshirishning nazariy va amaliy tomonlarining uddasidan chiqq oldi. Bugungi kundagi ta`lim tizimiga ma`lum ma`noda poydevor vazifasini o`tadi.

Madaniyat sohalaridan yana biri milliy teatr faoliyatiga ham siyosatchilar ta`siri katta edi. Ular teatrlarda qo`yiladigan sahna ko`rinishlarini inqilob g`oyalari va mafkurasiga mos kelishini talab qildi. Monarxiya va feodalizmni olqishlaydigan teatr tomoshalarini qo`yish ta`qiqlandi. Endi faqat inqilob namoyondalarining qaxramonliklari, ularning inqilob vaqtida ko`rsatgan jasoratlarini ulug`laydigan tomoshalarni ko`rsatishni rag`batlantirildi. Umuman har bir tomoshaning g`oya va mafkurasi inqilob uchun zid kelmasligi lozim edi. U ko`rsatgan tomoshalari orqali xalqni islohotlarga muhabbatini orttirishi, uning dastlabki qiyinchiliklariga bardoshli qilib tarbiyalashni vazifa qilib olishi lozim edi. Shu tariqa teatr inqilobning yakunlanishiga hissasini qo`shardi.

Teatr bilan hamohang san`atning haykaltaroshlik, tasviriy san`at, arxitektura sohalari ham inqilob uchun xizmat qilishga jalb qilindi. Feodalizmni eslatuvchi yodgorliklar masalasi hukumat tomonidan chiqarilgan dekretlar orqali o`z yechimini topdi.masalan bunday yodgorliklar po`lat yoki bior metallardan qilingan bo`lsa uni eritibinqilob uchun kurashayotgan harbiy qismlar uchun qurol – aslaha quyish haqida convent dekreti e`lon qilindi. Shunday qilib inqilob uchun zararli bo`lgan yodgorliklar inqilobni amalgam oshirish uchun xizmat qilishi muhim deb hisoblandi.

Madaniyat bobidagi eng ta`sirli sohalardan biri bu – bayramlar masalasi edi. Bayram jamiyat hayotining baxtli damlarida muhim vazifa bajaradi. Biz o`rgangan davr fransuz jamiyatida inqilobni sharafllovchi, uni kuylaydigan, yangi hayotning

afzalliklarini ko'rsatib beradigan, hamda jamiyatning barcha a'zolari: yoshu-qari, turli kasb egalkari, ijtimoiy qatlamlar, turli tashkilotlarga taaluqli va ularni birlashtiradigan bayramdan ustunroq turadigan, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan biron jabhani ko'rsatish qiyin. Buni inobatga olgan inqilob yetakchilari bayramlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Qolaversa qo'shni monarxiya tuzumida yashayotgan davlat fuqarolari inqilob keltirgan baxtni ko'z – ko' qilish va ularni ham bunga chorlashi mumkin edi.

Feodal jamiyati umuman tubdan isloh qilindimi ular bilan bog'liq bayramlar ham o'z intihosini topishi qonuniy jarayon edi. Ularning o'rniga esa yangi bayramlar joriy qilindi. Bu inqilob keltirgan yangi hayotning baxtli tomonlarini ko'rsata oladigan va birinchi bobda ko'rsatilgan beshta bayram edi. Bayramlarning nishonlanishida hamma qatnashardi va bu jamiyatda mavjud tabaqaviy, diniy va boshqa muammolarning ma'lum ma'noda bartaraf etilishiga olib kelardi.

Shu tariqa madaniyat masalalaridagi inqilob yo'lidagi mavjud muammolar shu tarzda hal qilinib borildi. Buning barchasi esa kelajakda fransuz millatining ma'lumoti va madaniyati borasida dunyo xalqlari ichida alohida e'tirofga sabab bo'lishi uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri edi.

Inqilobni amalga oshirishda monarxiyachilar tomonida turib islohotlarga qarshi kurashuvchilar ichida cherkov xodimlari asosli, real kuchga ega edi. Shu sabab inqilobchilar bilan kurashishda feodal va monarxiya tarafida turgan cherkov islohot uchun dastlabki to'g'anoqlardan biri bo'ldi. Uni bartaraf etish uchun siyosatchilar kuchli kurash maydoniga kirishga majbur bo'ldi. Chunki cherkovning g'oyat ustunli tomonlari bor edi. U ham moddiy, ham ma'naviy quvvatga ega va butun davlatga, hatto undanda kengroq miqyos kasb etadigan qudratli markaz tomonidan boshqariluvchi yirik tashkiliy uyushma edi. Davlatda mavjud mulklarning katta qismiga egalik qilishi siyosatga aralashish imkonini berardi. Uning modiy qudrati shundan iborat bo'lsa, ma'naviy jabhada u xristian xalqlari ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsata olardi. XVIII asr xristian kishisining ishonchi va e'tiqodini egallagan edi. Bu hol inqilob yetakchilari oldiga qo'yilgan dolzarb muammoni keltirib chiqarardi. Unga qarshi kurashish uchun tish – tirnog'i bilan

harakat qildi. Milliy Konventda uzoq munozara va tortishuvlarga sabab bo'ldi. Oxir oqibat inqilob qo'li baland kelib cherkov davlatga bo'ysundirildi. Bu fransuz inqilobining tarixiy g'alabasi edi deyish mumkin. Endi cherkov davlat siyosatiga aralashishdan mahrum bo'ldi. Uning roli keskin pasayib ketdi. Siyosatchilar esa uning ustidan nazoratni puxta olib bordi. Cherkov xodimlarining barcha huquqi fuqarolar huquqiga tenglashtirildi. Marosimlar, ibodat masalasida nizomlar joriy qilindi. Hatto cherkov xodimining maoshi ham konvent tomonidan belgilab qo'yildi. Ularga hukumat ko'rsatmalari va ozodlikni ma'qullab qasam ichirildi. Rad etganlari davlatni tark etishi, aks holda surgunga yuborilishi bilan ogohlantirildi.

Cherkov masalasidagi siyosat ichida eng muhimi uning mulki musodara qilinishida edi. Shu orqali u moddiy quvvatdan mahrum qilindi. Desyatina yig'ish huquqidan ham mahrum etildi.

Inqilobchilarning dinni yangilash borasidagi harakati o'zini oqlamadi. Bir necha asr da'vomida millat mentalitetiga singib ketgan xristian dini qisqa muddat ichida yangi o'ylab topilgan e'tiqod – "Oliy mavjudot" ga o'rmini boshatib bermadi.

Shunday qilib madaniyat va din masalalaridagi siyosatda katta o'zgarishlarning amalga oshirilishiga sabab bo'ldi. Jamiyat yangilanishida bu ikki soha muhim bo'g'in vazifasini o'tadi. Inqilobni xalq ongiga singdirish uchun muhim manba bo'ldi. Fransuz millatining kelajakdagi hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Buyuk fransuz inqilobi insoniyat tarixida birinchi marta barcha uchun tenglik, birodarlik va erkinlik olib kelgan bugungi farovon jamiyatlar bunyod bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Каримов.И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ» Т., Шарқ 1998.
2. Каримов.И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч» Т., Маънавият, 2008.
3. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” Т., Ўзбекистон. 2011.
4. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 4-том. Т., 2002.

Manba va hujjatlar

1. Атеизм и борьба с церковью в эпоху Великой французской революции/подред. С. Фридлянда. М., 1933.
2. Бабёф Г. Новые документы Гракха Бабёфа/Публ. подгот. А.М.Бобков, В.М.Далин и Н.И.Непомнящая//Вопросы истории. 1961.№ 2.
3. Документы истории великой французской революции. В 2-х т, т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990.
4. Кондорсе Ж.А. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума/подред.В.Н.Сперанского. М., 1936.
5. Конституции и законодательные акты буржуазных государств XVII-XIX вв. подред. П.Н.Галанзы.М.1957.
6. Марат Ж.П. Памфлеты/подред. Ф.Кана. М., 1937.
7. Новая история в документах и материалах/подред. Н.М.Лукина и В.М.Далина. М., 1934.
8. Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаца,Лаканалья, Лепелете,Лавуазе и др./подред. А.П.Пинкевича. М., 1926.
9. Революционное правительство во Франции в эпоху Конвента: (1792-1794): Сб. докум. и материалов /подред. Н.М.Лукина. М., 1926.
10. Революционный трибунал в эпоху Великой французской революции: воспоминания современников и документы./ подред. Е. В. Тарле. Пг. 1918-1919. Ч 1-2.
11. Робеспьер М. Избр. Произв.: В 3-х томах./ Сост. А.З.Манфред.

12. Сборник документов по истории нового времени. Буржуазные революции XVII-XVIII вв. подред: В.Г.Сироткина. М., Высшая школа. 1990.
13. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) Сост.Е.Е. Юровская, М., Высшая школа 1990.
14. Свобода, равенство, братство; Великая французская революция: документы, письма, речи, воспоминания, песни, стихи/Сост. О.Куцова, С.Коротков. Лг., 1989.
15. Французская революция в документах: 1789-1794. Сост. Я.М.Захер. Л., 1926.
16. Хрестоматия по новой истории: (1789-1870)/Соц. А.Ф Ефимов и В.А. Орлов. М., 1941.
17. Хрестоматия по новой истории/подред. В.Ф.Семенова и К.А. Антоновой. Ч.1: 1640-1815. М., 1963.

Umumiy adabiyotlar

1. Воронцов-Вельяминов Б.А. Лаплас. М., Наука. 1985.
2. Домнич М.Я. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960.
3. Манфред А.З. Великая французская буржуазная революция. М., Госполитиздат. 1956.
4. Михайлов. Я. М. Анаксагор Шомет. М., 1930.
5. Олар А., Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918.
6. Олар А. Церков и государство в эпоху Великой французской революции. Госполитиздат Украины. 1925.
7. Олар.А. Культ разума и культ Верховного существа во время французской революции. М., 1925.
8. Олар.А. Христианство и французская революция М., 1921.

Jurnallar

1. Гениффе.П. “Террор: случайность или неизбежный результат революции? Из уроков французской революции XVIII в.” Новая и новейшая история. 2003. № 3.
2. Мягкова Е.М. “Из принципа гуманности” Террор и Вандея. Новая и новейшая история. 2003. № 5.
3. Сергиенко В.Ю. Конституционные монархисты – эмигранты времен французской революции конца XVIII в. Новая и новейшая история. 2003. № 5.

uzswlu.datasite.uz

<http://e-tarix.uz>

www.wattpad.com

www.bbc.co.uk

www.ziyonet.uz